



Tadqiqot.uz

UZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TA'LIM MUASSASALARI  
PROFESSOR-O'QTUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR,  
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



IYUL

No 78  
TOSHKENT

DAVRIYLIGI: 2018-2025

RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI

ILMIY KONFERENSIYA

# YANGI O'ZBEKİSTON: 2025

CONFERENCES.UZ

ILMIY TADQIQOTLAR

| ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES |

MATERIALLAR TO'PLAMI



CONFERENCES.UZ

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР 1-  
ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
ЧАСТЬ-1**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
SCIENTIFIC RESEARCH  
PART-1**



«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 61-кўп тармокли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 29 февраль 2024 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2024. - 128 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараккиёт стратегияси сарі» тамоилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси мувофиқ: – илмий изланиш ютукларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат килиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуклар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараккиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шоҳруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хукукий тадқиқотлар йўналиши -**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар -**

Исмаилов Ҳусанбой Махаммадкосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -**

Доцент Уринбоев Хошимjon Бунатович (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви -**

Доцент Шакирова Шохидা Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети  
"Беш мухим ташаббус" маркази раҳбари)

**6.Журналистика -**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантиришни йўлидаги тадқиқотлар –**

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" HTM ўкув ва тарбия ишлари бўйича директор  
ўринбосари)

**8.Адабиёт-**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -**

Phd Воҳидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар -**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик  
факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт-**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)



### 14. Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чарисев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### 15. Мусиқа ва ҳайт-

Доцент Чарисев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### 16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич (Наманган мухандислик-курилиш институти)

### 17. Физика-математика фанлари ютуклари -

Доцент Соҳадалиев Абдурапид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

### 18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишилар -

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### 19. Фармацевтика -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### 20. Ветеринария -

Жалилов Фазлиддин Содикович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### 21. Кимё фанлари ютуклари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

### 22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

### 23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишилари -

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

### 24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаххоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

### 25. География-

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

#### Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Tel: (+998-94) 404-0000

#### Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000



## ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI YANADA TAKOMILLASHTIRILMOQDA

Usmonov Tohirbek Shavkatovich  
Qumqo‘rg‘on tumanlararo iqtisodiy sudi sudyasi

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasida soliqqa tortish tizimi davlat moliya siyosatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning samarali ishlashi budget barqarorligi, tadbirkorlik rivoji va aholining ijtimoiy farovonligini ta’minlashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mustaqillik yillarda soliqqa oid qonunchilik bir necha marotaba tubdan isloh qilindi va 2019 yil 30 dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekisto Respublikasi Soliq kodeksi mazkur jarayonning mantiqiy davomi sifatida qabul qilindi. 2025 yil 26 iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 1071-sonli Qonuni esa ushbu yo‘nalishdagi navbatdagi muhim bosqich sifatida soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish, soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi munosabatlarni soddalashtirish hamda huquqiy aniqlikni ta’minlashga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** soliq ma’muriyatchiligi, soliq imtiyozlari, soliq nazorati, elektron tasdiqlash, “Suv hisobi” axborot tizimi, “Mahalla servis” kompaniyalari, charm-poyabzal sanoat zonalarini boshqarish direksiyalari.

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat xizmatlarini ko‘rsatishda byurokratizm va ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish, shu jumladan aholining masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek aholi va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash hamda soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga masofadan turib elektron davlat xizmatlaridan mustaqil ravishda keng foydalanishni va zarur hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirishni yanada qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash, shuningdek ortiqcha undirilgan soliq summasini soliq to‘lovchining boshqa soliqlar bo‘yicha kelgusi to‘lovlar hisobidan hisobga olish tartibini yanada soddalashtirish, ayrim toifadagi shaxslarga soliq imtiyozlarini berish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Shu munosabat bilan 2025 yil 26 iyun kuni “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 1071-sonli Qonuni qabul qilindi hamda ayrim qonun hujjatlariga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

Qonun hujjatlariga kiritilgan qo‘srimchalarga ko‘ra, soliq munosabatlarida foydalanganligi elektron hujjatlarni shaxsning roziligini ifodalaydigan va uni identifikasiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlash usullari orqali tasdiqlash elektron raqamli imzoga tenglashtirildi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligidagi, shu jumladan baliqchilik xo‘jaliklarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisobotlari “Suv hisobi” axborot tizimi va ushbu sohadagi vakolatli organlarning ma’lumotlari asosida avtomatik tarzda shakllantiriladi.



Kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, ortiqcha undirilgan soliq summasini soliq to‘lovchining boshqa soliqlar bo‘yicha kelgusi to‘lovlari hisobidan hisobga olish tartibi yanada soddalashtirildi. Unga ko‘ra, boshqa soliqlar bo‘yicha kelgusi to‘lovlar uchun hisobga olish soliq to‘lovchining yozma yoki elektron arizasiga ko‘ra soliq organlari tomonidan 3 kun ichida amalga oshirilishi belgilandi.

“Mahalla servis” kompaniyalariga soliq imtiyozlari beriladi. Qonun bilan kiritilgan qo‘s Shimchalarga ko‘ra, “Mahalla servis” kompaniyalari tomonidan mahallalarni obod qilish bilan bog‘liq ishlarni bajarish va aholiga qonunchilikda belgilangan ayrim ijtimoiy pulli xizmatlar ko‘rsatishdan olingan mablag‘lar soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlarga kiritildi. Shuningdek, mazkur xizmatlarni ko‘rsatishga mo‘ljallangan binolar joylashgan yer uchastkalari yer solig‘i solish obyekti hisoblanmasligi belgilandi. Quyidagi daromad turlariga soliq solinmasligi ko‘zda tutildi:

Chernobil AESdagi halokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan fuqarolarning, shuningdek ular xotini (eri)ning daromadlari (mazkur soliq imtiyozi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining ma’lumotnomasiga, nogironlik to‘g‘risidagi ma’lumotnomaga, Chernobil AESdagi halokat oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasiga, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo‘ladigan boshqa hujjatlarga asosan beriladi);

“Mahalla servis” kompaniyalari xodimlarining faoliyati natijasida olingan, ularning soliq solinishi lozim bo‘lgan ish haqi tarzidagi daromadlari.

Bundan tashqari, Jizzax viloyatinining Sharof Rashidov va Toshkent viloyatinining Ohangaron tumanlarida tashkil etilgan charm-poyabzal sanoat zonalarini boshqarish direksiyalari mol-mulk, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan 2025 yil 1 yanvardan 2026 yil 1 yanvargacha ozod etilishi ko‘rsatildi.

Zero, ushbu Qonun soliq munosabatlaridagi elektron hujjatlarda imzo sifatida hujjatni imzolagan shaxsnинг roziligidini ifodalaydigan hamda uni identifikasiya va autentifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlashning boshqa usullaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, soliq to‘lovchilarining huquqlarini ta’minalash uchun va “Mahalla servis” kompaniyalari o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga, Chernobil AESdagi halokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslarni rag‘batlanirishga, shuningdek suv hajmi bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisobotlarini avtomatik tarzda shakllantirish tartibini joriy etish orqali soliq ma’muriyatichilagini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir, 2019 yil 30 dekabr).
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga qo‘s Shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni (2025 yil 26 iyun, 1071-sон).



## ТЕРРОРИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАР БҮЙИЧА РАҶАМЛИ ДАЛИЛЛАРНИ ТЎПЛАШДА ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИНГ ЎРНИ

Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович

Жамоат хавфсизлиги университети мустақил изланувчиси

E-mail: amrilloxon47@gmail.com

**Аннотация:** Мазкур мақолада рақамли технологияларнинг жадал ривожланиши даврида терроризм билан боғлиқ жиноятлар бўйича ўтказиладиган тезкор-қидирув тадбирлари давомида рақамли далилларни тўплаш ва мустаҳкамлаш механизми, ҳукуқий асослари ҳамда далиллар мақбуллигига оид айrim масалалар ёритиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** электрон маълумотлар, рақамли технологиялар, рақамли далиллар, тезкор-қидирув тадбирлари, далиллар мақбуллиги.

Мамлакатимизда қонун устуворлигини таъминлаш борасида амалга оширилаётган ислоҳотлар ҳукуқни муҳофаза қилувчи органлар олдига янги вазифаларни қўймоқда ҳамда ушбу органларнинг ўз зиммасига юклатилган вазифаларни бажариш бўйича тезкор ва самарали қарорлар қабул қилиши учун мустаҳкам ҳукуқий асос яратишга қаратилган [1].

Замонавий ахборот технологияларининг жадал ривожланиши жамият ҳаётининг барча соҳаларига, шу жумладан, жиноятчилик соҳасига ҳам катта таъсир кўрсатмоқда. Терроризмга доир жиноятларни содир этиш жараёнида замонавий ахборот технологиялардан фойдаланиш ҳолатлари тобора кўпроқ қайд этилмоқда. Хусусан, террористик ташкилотлар ўз ҳаракатларини режалаштириш, мувофиқлаштириш, фаолиятларини молиялаштириш ва амалга оширишда интернет, мобил алоқа, ижтимоий тармоқлар ва бошқа замонавий рақамли технологияларнинг имкониятларидан кенг фойдаланишмоқда. Бу эса рақамли далилларнинг таркибини ташкил қилувчи электрон маълумотларни йиғиш, мустаҳкамлашни ҳукуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятининг муҳим йўналишларидан бирига айлантиromoқда.

Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 85-моддасига кўра, исбот қилиш тузилмасига далилларни тўплаш, текшириш ва баҳолаш киради. Ўз навбатида, қонун чиқарувчи (Ўз.Р.ЖПКнинг 87-моддаси 1-қисми) бу тузилманинг биринчи элементини аниклаш учун уни амалга оширишнинг ҳукуқий воситаларига кўрсатиб ўтади: ушбу Кодексда кўзда тутилган **тергов ҳаракатлари ва тезкор-қидирув тадбирларини ўтказиш** йўли билан [2].

Терроризм билан боғлиқ жиноятларни тергов қилишда террористик хужумларни содир этишга тайёргарлик босқичида мазкур жиноятнинг оқибатлари келиб чиқишидан олдин уларнинг олдини олиш ва чек қўйиш тезкор-қидирув фаолиятни олиб борувчи орган ходимларининг ҳаётий ўта муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Шу билан бирга, дастлабки тергов жараёнида бундай турдаги жиноятларни ҳар томонлама, тўлиқ ва холисона тергоқ қилишда, тергов куч ва воситаларининг самарали сарфланиши ҳам жиноят иши хужжатларига қўшиш учун



тақдим қилинадиган, Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 25 декабрь кунги “Тезкор-қидирав фаолияти тўғрисида”ги Қонун талабларига мувофиқ ўз вақтида ва сифатлари ўтказилган тезкор-қидирав тадбирларининг натижаларига боғлик ҳисобланади. Мазкур Қонуннинг 14-моддасида қайд этилган жами 16 та тезкор-қидирав тадбирларининг “маълумотларни тўплаш”, “тезкор кузатув”, “турар жойларни ва бошқа жойларни, биноларни, иншоотларни, жойнинг участкаларини, техник ва транспорт воситаларини текшириш”, “телефонлар ва бошқа телекоммуникация қурилмалари орқали олиб бориладиган сўзлашувларни эшитиб туриш, улар орқали узатиладиган ахборотни олиш”, “абонентлар ёки абонент қурилмалари ўртасидаги боғланишлар тўғрисида ахборот олиш” каби тезкор-қидирав тадбирлари давомида шахснинг жиноий фаолиятини тасдиқловчи муҳим электрон маълумотларни олиш имконияти мавжуд [3]. Мазкур электрон маълумотлар тезкор ходимлар томонидан ўз вақтида қайд этилиб, тегишли тартибда олиб қўйилиб, сақланган тақдирда, келгусида уларнинг йўқ қилинишининг олди олиниб, жиноят учун жазо муқаррарлиги принципининг таъминланишида ёрдам беради.

Хусусан, тезкор-қидирав тадбирлари давомида олинган электрон маълумотлар дастлабки тергов жараёнида терговга тақдим қилингандан сўнг, юқорида қайд этилганидек, улар тегишли тергов ҳаракатлари ўтказилиши билан уларга баҳо берилиб, текширилгандан сўнг, бевосита жиноят иши бўйича рақамли далиллар деб топилиши мумкин. Ўз навбатида, тезкор-қидирав тадбирлари натижасида олинган электрон маълумотлар, жумладан, “телефонлар ва бошқа телекоммуникация қурилмалари орқали олиб бориладиган сўзлашувларни эшитиб туриш, улар орқали узатиладиган ахборотни олиш” тезкор-қидирав тадбири натижасида қайд этилган телефон сўзлашувлари ва СМС ёзишмаларининг баённомалари ҳамда сўзлашувларнинг фонограммалари, “абонентлар ёки абонент қурилмалари ўртасидаги боғланишлар тўғрисида ахборот олиш” тезкор-қидирав тадбири натижаси бўйича олинган маълумотлар (амалга оширилган кириш-чиқиш қўнғироқлари детализацияси) дастлабки тергов давомида шахс ҳаракатларида жиноятнинг нафақат объектив томони, балки субъектив томонини исботлашда муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, тергов олди босқичида жиноятга алоқадор шахсларнинг жиноий жавобгарлиқдан қочиб қутулиши, яъни Конвенцияларга мувофиқ Ўзбекистон Республикаси билан жиноят ишлари бўйича ҳамкорлиги мавжуд бўлмаган хорижий мамлакатлар ҳудудига чиқиб кетиши ва жиноят изларини яшириши, хусусан, жиноий фаолияти ҳақидаги маълумотлар мавжуд бўлган ахборот ташувчи қурилма (ноутбук, смартфон, флешка ва х.к.) ларни йўқ қилинишининг олдини олиш зарур ҳисобланади.

Шу ўринда қайд этиб ўтиш жоиз, терроримзни молиялаштириш жиноятларида Қонуннинг 14-моддасида кўрсатиб ўтилган “маълумотлар тўплаш” тезкор-қидирав тадбири доирасида тезкор фаолиятини юритувчи ваколатли шахс прокурорнинг санкцияси асосида банк сирини ташкил этувчи маълумотларни олиш имкониятига эга. Ушбу тадбир бўйича тегишли ҳисоб-рақам орқали амалга оширилган банк операциялари ҳақида электрон маълумотларнинг, шунингдек, “предмет ва хужжатларни текшириш” ва “турар жойларни ва бошқа жойларни, биноларни, иншоотларни, жойнинг участкаларини, техник ва транспорт воситаларини текшириш” тезкор-қидирав тадбирлари доирасида бино ва иншоотларга



ўрнатилган ташқи кузатув камераларининг видеотасвирлари каби электрон маълумотларнинг ўз вақтида қайд этилиб, олиб қўйилиши дастлабки тергов давомида жиноятнинг тез очилишига ва зарур гувоҳларнинг шахсини аниқлашга ёрдам беради. Бундан ташқари, ҳозирги кунда хориж давлатларида ишлаб чиқарилган турли русумдаги видеорегистраторлар видеотасвирни тушириш билан бир қаторда овоз ёзиш имконияти борлиги сабабли, автотранспорт воситаларини текшириш давомида салонда ўрнатилган мазкур қурилмаларни олиб қўйилиши ҳамда уларнинг хотирасини текшириш ёки кўздан кечиришда алоҳида аҳамият қаратмоқ лозим бўлади.

Юқорида қайд этиб ўтилган тезкор-қидирав тадбирлари натижасида қайд этилиб, олиб қўйилган электрон маълумотлар, дастлабки тергов давомида жиноят иши бўйича рақамли далиллар деб топилиши учун уларга нисбатан тегишли экспертизалар тайинлаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Хусусан, телефон сўзлашувларининг фонограммалари ҳамда тезкор-кузатув тадбири натижасида олинган аудиоёзувлар бўйича фоноскопия экспертизаси, олинган видеоматериалларга нисбатан эса судга оид видео-техник ва фотопортрет экспертизаларининг тайинланишини бунга мисол қиласак бўлади. Тезкор-қидирав тадбирларнинг ўтказилиши давомида электрон маълумотларни қайд этилиши ҳамда уларни олиш ёки нусха кўчириш жараёнида тегишли мутахассиснинг иштирокини таъминлаш келгусида мазкур электрон далилнинг далиллар мақбуллиги талабларига зид келмаслигининг олдини олади.

Юқорида қайд этиб ўтилган тергов ҳаракатлари ҳамда тезкор-қидирав тадбирларидан ташқари, электрон маълумотларни тўплаш ваколатига эга бўлган жиноят процесси иштирокчиси томонидан электрон маълумотларни тақдим этиш тўғрисида корхона, ташкилот ва муассасага сўров юбориш орқали олиши мумкин. Далиллар мақбуллиги талабларига асосан тезкор ходимнинг қарорида қандай турдаги тезкор-қидирав тадбири кўрсатилган бўлса, худди шу номдаги тезкор-қидирав тадбирини ўтказиш тўғрисида баённома ҳамда фақатгина тезкор ходимнинг ўзи томонидан расмийлаштирилиши шарт ҳисобланади [4]. Тезкор-қидирав тадбирини ўтказиш тўғрисидаги қарорда ушбу қарор ижросини таъминлаш бошқа бир бўлинма зиммасига юкланиши бундан мустаснодир. Шу билан бир қаторда, Тезкор-қидирав фаолияти тўғрисидаги Конуннинг 16-моддасида кўрсатилган тезкор-қидирав тадбирларининг тегишли прокурор санкцияси асосида ўтказилишига алоҳида аҳамият қаратмоқ лозим.

Бундан ташқари, Конуннинг 14-моддасида тезкор-қидирав тадбирлари ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилган ҳолда, шу жумладан кибермаконда ва (ёки) унинг имкониятларидан фойдаланилган ҳолда ўтказилиши мумкинлиги қайд этилган бўлиб, террористик ташкилот аъзоларининг ижтимоий тармоқ ва мессенджерлардаги фаолияти, ташкилот таркиби, янги аъзоларнинг ёлланиши, гуруҳ фаолиятини молиялаштириш ҳолатлари маҳсус ваколатли давлат организининг кучлари ҳамда воситалари ёрдамида қайд этилиб борилиши имкониятини беради. Мазкур тезкор-тадбирлар давомида аниқланиб қайд этилган электрон маълумотлар террористик хуружларнинг ўз вақтида олдини олишга, айбдор шахсларни, жойлашган жойини, электрон манзилини ҳамда гуруҳ аъзоларининг ташкилотдаги ролини аниқлашга бевосита хизмат қилиб, жиноят иши доирасида тегишли тергов ҳаракатлари билан текширилиб, баҳолангандан сўнг, жиноят ишини юритишига



ваколатли шахс томонидан чиқарилган қарори асосида рақамли далил деб топилади [5].

Хусусан, тезкор-қидирав фаолиятини амалга оширувчи ваколатли шахс томонидан -очиқ манбалардан шахс ёки ташкилот тўғрисида маълумот тўплаш ва уни кейинчалик таҳлил қилиш имкониятига эга бўлган OSINT (Open Source Intelligence) [6];

-хисоблар, IP манзиллар, доменлар ва телефонлар ўртасидаги уланишларни визуализация қилиш учун Maltego;

-500 дан ортиқ хизматлардаги тахаллус (ник)ни текшириш имкониятига эга бўлган WhatsMyName;

-телефон рақамининг фойдаланувчисини аниқловчи-Truecaller, Sync.me;

-фотосурат асосида жойлашувни аниқлаш имкониятини берувчи GeoSpy, GeoFinder каби онлайн воситалардан фойдаланган ҳолда зарур электрон маълумотларни тўплаши мумкин.

Юқорида баён қилингандарни инобатга олиб, ахборот технологияларнинг жадал ривожланиб бораётган даврда терроризм билан боғлиқ жиноятлар бўйича рақамли далилларни асосини ташкил қилувчи электрон маълумотларни тезкор-қидирав тадбирлари давомида тўплаш ушбу турдаги оғир ва ўта оғир жиноятларни содир этилишининг ўз вақтида олдини олиши билан бирга, жиноят иши бўйича дастлабки терговнинг ҳар томонлама, тўлиқ ва холисона олиб борилиши ҳамда жиноят учун жазо муқаррарлиги принципини таъминлашга хизмат қиласи.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг 13.03.2024 йилдаги “Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун хужжатларига жиноятчиликка қарши курашиб бўйича фаолиятнинг хуқуқий асосларини такомиллаштиришга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-920-сонли Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процесдуал кодекси. 01.04.1995.
3. Ўзбекистон Республикасининг 25.12.2012 йилги “Тезкор-қидирав фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-344-сонли Қонуни.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.11.2017 йилдаги “Суд-тергов фаолиятида фуқароларнинг хуқуқ ва эркинликлари кафолатларини кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5268-сонли Фармони.
5. Олиндер Н.В. К вопросу о доказательствах, содержащих цифровую информацию // Юридический вестник Самарского университета. 2017. Т. 3, № 3. С. 107–110.
6. [www.osint.industries](http://www.osint.industries)



**МАЪМУРИЙ СУДЛАРДА ДАВЛАТ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИГА ОИД  
ФУҚАРОЛАРГА ИМТИЁЗЛИ ШАРТЛАРДА ЁШГА ДОИР ПЕНСИЯ  
ТАЙИНЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ НИЗОЛАРНИ КЎРИБ ЧИҚИЛИШИДА  
ЮЗАГА КЕЛАЁТГАН МУАММОЛАР**

**Мирзаев Фарходжон Тахирович**

Фуқарорлик ишлари бўйича

Избоскан туманлараро судининг судьяси

**АННОТАЦИЯ:** Ҳозирги кунда мамлакатимизда қатор ислоҳотлар амалга ошириб келинмоқда.

Шу жумладан давлат пенсия таъминоти билан боғлиқ норматив хукукий хужжатларга ҳам ўзгартиришлар киритилмоқда.

Фуқароларнинг давлат пенсиясига чиқиши учун уларга қулайликлар яратиш мақсадида бир қатор ўзгартиришлар олиб борилди.

Давлат пенсия таъминоти билан боғлиқ юзага келаётган суд амалиёти ҳозирги кунда айнан пенсия таъминотида жуда яхши шаклланган.

Хусусан, маъмурий судларда пенсия таъминоти билан боғлиқ ишлар деярли 30 фоизни ташкил этади ва аксарият ишлар фуқароларнинг меҳнат даврларини иш стажига қўшиб ҳисоблашдаги муносабалардан келиб чиқадиган низолар ҳисобланади.

Ҳаттоқи, бу борада Олий суднинг пленум қарорлари ҳам қабул қилинган.

Бироқ, амалиётда айрим тоифадаги фуқароларга имтиёзли шартларда ёшга доир пенсия тайинлашда ҳанузгача қийинчиликлар ва тушунмовчиликлар юзага келмоқда.

Мазкур мақола айнан имтиёзли шартларда ёшга доир пенсия масаласида судларда кўриб чиқилаётган маъмурий низоларни кўриб чиқишида турли ёндошувларга ечим топиб беради.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** ёшга доир пенсия, имтиёзли шартларда, давлат, айрим тоифалар, ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар ва лавозимлар, меҳнат шароитлари, умумий белгиланган ёш.

“Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ти Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 7-моддасига биноан эркаклар 60 ёшга тўлганда ва иш стажлари камида 25 йил бўлган тақдирда ҳамда аёллар 55 ёшга тўлганда ва иш стажлари камида 20 йил бўлган тақдирда умумий асосларда ёшга доир пенсия олиш хукуқига эга бўладилар.

Қонун 9-моддасининг биринчи қисмига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тасдиқлайдиган рўйхатларга мувофиқ фуқароларнинг айрим тоифалари имтиёзли шартларда пенсия олиш хукуқига эга бўладилар, чунончи:

Ёшидан қатъи назар пенсия олиш хукуқини берадиган ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар ва лавозимларнинг 1-сонли рўйхати;

Умумий белгиланган ёшни 10 йилга қисқартирилган ҳолда пенсия олиш хукуқини берадиган ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва



кўрсаткичларнинг 2-сонли рўйхати;

Умумий белгиланган ёшни 5 йилга қисқартирилган ҳолда пенсия олиш ҳукукини берадиган ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, вазифалар ва кўрсаткичларнинг 3-сонли рўйхати.

Қонуннинг 11-моддаси “а” бандига кўра, еости ишларида, меҳнат шароити ўта заарали ва ўта оғир ишларда тўлиқ иш куни давомида банд бўлган ходимлар (2-сонли рўйхат, I қисм): эркаклар иш стажи камида 20 йил бўлиб, бундан камида 10 йили кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда ҳамда аёллар иш стажи камида 15 йил бўлиб, бундан камида 7 йилу 6 ойи кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда охирги иш жойидан қатъи назар, ушбу Қонуннинг 7-моддасида белгиланган ёшни 10 йилга қисқартирилган ҳолда пенсия олиш ҳукуқига эга бўладилар.

Шунингдек, Қонуннинг 12-моддаси “б” банди мувофиқ **меҳнат шароити заарали ва оғир ишларда тўлиқ иш куни давомида банд бўлган ходимлар (3-сонли рўйхат, I қисм):** эркаклар иш стажи камида 25 йил бўлиб, бундан камида 12 йилу 6 ойи кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда ҳамда аёллар — иш стажи камида 20 йил бўлиб, бундан камида 10 йили кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда охирги иш жойидан қатъи назар, ушбу Қонуннинг 7-моддасида белгиланган ёшни 5 йилга қисқартирилган ҳолда пенсия олиш ҳукуқига эга бўладилар.

Юқоридагиларга кўра, айрим тоифадаги фуқароларга ёшидан 5 йил ва 10 йил илгари пенсияга чиқиш ҳукуқи берилган.

Имтиёзли шартларда ёшга доир пенсияга чиқиш ҳукукини берувчи касблар, лавозимлар ва вазифалар Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган рўйхатларда кўрсатиб ўтилган.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 12 майдаги 250-сонли қарори 2-бандида 2-рўйхатнинг 1-қисми ва 3-рўйхатнинг 1-қисми иш ўрнини меҳнат шароитлари бўйича аттестациядан ўтказишни ҳисобга олган ҳолда, Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳамда Соғлиқни сақлаш вазирлиги белгилаган тартибда татбиқ этилиши белгиланган.

Шунингдек, қарорнинг 3-бандида Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигига ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлигига ёши бўйича имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳукукини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичлар Рўйхатини татбиқ қилиш тартиби тўғрисида тушунтиришлар бериш, шунингдек, келишган ҳолда ушбу Рўйхатга қўшимчалар ва ўзгартиришлар киритиш ҳукуқи борлиги кўрсатилган.

Шунга кўра, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигидан 2013 йил 3 январда 2409-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 12 майдаги 250-сон қарори билан тасдиқланган умумий белгиланган ёшдан 10 ва 5 йил олдин пенсияга чиқиш ҳукукини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг 2 ва 3-рўйхатларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги ўзгартириш хужжатига кўра, айрим заарали касблар (газорезчик, слесарь, электрогазосварщик ва ҳоказо) 2013 йил 13 январдан бошлаб ушбу рўйхатлардан



чиқарилди.

Юқоридаги ҳолатларни таҳлил қиласиган бўлсак, амалдаги “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонун 12-моддаси “б” банди мувофиқ **мехнат шароити заарли ва оғир ишларда тўлиқ иш куни давомида банд бўлган ходимлар (3-сонли рўйхат, I қисм): эркаклар иш стажи камида 25 йил бўлиб, бундан камида 12 йилу 6 ойи кўрсатиб ўтилган ишларга тўғри келган тақдирда** охирги иш жойидан қатъи назар, ушбу Қонуннинг 7-моддасида белгиланган ёшни 5 йилга қисқартирилган ҳолда пенсия олиш хуқуқига эга бўладилар.

Мазкур норма ҳозирги кунда ҳам қонуний кучда ҳисобланади.

Гарчи, ҳозирги кунда Пенсия жамғармаси томонидан фуқароларга айрим касблар, лавозимлар ишлар ва вазифалар Вазирлар Маҳкамасининг 12.05.1994 йилдаги 250-сонли қарори билан тасдиқланган З-сонли Рўйхатларга 2013 йилнинг 13 январь кунидан рўйхатдан чиқиб кетганлиги сабабли имтиёзли шартларда ёшга доир пенсия тайинлашнинг имкони мавжуд эмас, деб ҳисобланаётган бўлсада, бироқ “Норматив-хуқуқий ҳужжатлар тўғрисида”ги Қонуннинг 41-моддаси талабларига асосан норматив-хуқуқий ҳужжатлар орқага қайтиш кучига эга эмас ва улар амалга киритилганидан кейин юзага келган ижтимоий муносабатларга нисбатан қўлланилади, бундан ушбу модданинг **иккинчи қисмида** назарда тутилган ҳоллар мустасно.

Ўзбекистон Республикаси қонунининг амал қилиши у амалга киритилгунига қадар юзага келган ижтимоий муносабатларга нисбатан қонунда тўғридан-тўғри назарда тутилган ҳоллардагина татбиқ этилади. Агар қонунда мазкур қонун қабул қилингунига қадар жавобгарликка сабаб бўлмаган ёки енгилроқ жавобгарликка сабаб бўлган хатти-харакатларни содир этганлик учун юридик ва жисмоний шахсларнинг жавобгарлигини жорий этиш ёхуд кучайтириш назарда тутилса, шунингдек агар қонуннинг қўлланилиши натижасида юридик ва жисмоний шахсларга моддий зарар етказиладиган бўлса, қонунга орқага қайтиш кучини беришга йўл қўйилмайди.

Кўриниб тарибдик, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигидан 03.01.2013 йилда 2409-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 12.05.1994 йилдаги 250-сонли қарори билан тасдиқланган умумий белгиланган ёшда 10 ва 5 йил олдин пенсияга чиқиш хукукини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг 2 ва 3-сон рўйхатларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги қарори 2013 йилдан олдинги муносабатларга тадбиқ этилмаслиги ва айнан ушбу қарорда илгариги муносабатларга тадбиқ этилиши кўрсатилмаганлигини эътироф этишимиз мумкин.

Демак, Пенсия жамғармаси бўлимлари томонидан амалдаги “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонун 12-моддасининг “б” банди талабларига риоя қилмай, қонунларни тўғри шарҳламаслик ва тўғри талқин қила олмаслиги натижасида айрим тоифадаги фуқароларга имтиёзли шартларда ёшга доир пенсия тайинлаш масаласида низоли ҳолатлар кўпайиб бормоқда.

Шу жумладан, юқорида мисолда кўрсатиб ўтилган ҳолатда ҳам.

Мен ушбу ҳолатлардан келиб чиқиб, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 12.05.1994 йилдаги 250-сонли қарорига, Ўзбекистон Республикаси



Адлия вазирлигидан 03.01.2013 йилда 2409-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Мехнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 27.12.2012 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 12.05.1994 йилдаги 250-сонли қарори билан тасдиқланган умумий белгиланган ёшда 10 ва 5 йил олдин пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг 2 ва 3-сон рўйхатларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ти қарори” 72-қ ва 83-сонли қўшма қарорига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигидан 12.03.2012 йилда 2337-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Мехнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 25.01.2012 йилдаги 2-қ ва 5-сонли қўшма қарори билан тасдиқланган “Имтиёзли шартларда пенсия олиш ҳуқуқини берадиган ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичлар рўйхатларини қўллаш тартиби тўғрисида”ги Йўриқномага “2013 йилга қадарли имтиёзли шартларда ёшига доир пенсияга чиқиши ҳуқуқи берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичлар бўйича етарли маҳсус иши стажига эга бўлган фуқароларга кейинчалик имтиёзли шартларда ёшига доир пенсияга чиқиши ҳуқуқи сақлаб қолинсин” деган қўшимча норма киритиш лозим деб ҳисоблайман.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги Қонуни, 1993 йил, ЎРҚ-938-II-сон, 7, 9 ва 12-модда “б” банди.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 592-сонли қарори билан тасдиқланган “Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида”ги Низом, 2022 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги 250-сон қарори, 12.05.1994 йил, 2 ва 3-бандлари.
4. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигидан 03.01.2013 йилда 2409-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Мехнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 27.12.2012 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 12.05.1994 йилдаги 250-сонли қарори билан тасдиқланган умумий белгиланган ёшда 10 ва 5 йил олдин пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг 2 ва 3-сон рўйхатларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ти қарори” 72-қ ва 83-сонли қўшма қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигидан 12.03.2012 йилда 2337-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган Ўзбекистон Республикаси Мехнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2-қ ва 5-сонли қўшма қарори билан тасдиқланган “Имтиёзли шартларда пенсия олиш ҳуқуқини берадиган ишлаб чиқаришлар, муассасалар,



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

ишлилар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичлар рўйхатларини қўллаш тартиби тўғрисида”ги Йўриқнома, 25.01.2012 йил.



## NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINING MOLIYAVIY EKSPERTIZASINING O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI İQTİSODİYOTI RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

**Bekchanov Alisher Ilxamboevich**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy iqtisodiyot normativ-huquqiy hujjatlar (NHH) va ularning moliyaviy oqibatlari o'rtasidagi uyg'unlikni talab etadi. O'zbekiston Respublikasida davom etayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida NHH loyihalarining moliyaviy ekspertizasi instituti budget mablag'larining asossiz sarflanishini oldini olish va barqaror rivojlanishni ta'minlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Moliyaviy ekspertiza-bu NHH loyihalarining amalga oshirilishi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy-iqtisodiy oqibatlarni baholash tizimidir. Ushbu ekspertiza budget xavflarini aniqlash, budget parametrlariga, soliqqa tortiladigan bazaga, davlat majburiyatlariga va umumiy iqtisodiy muhitga ta'sirini aniqlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar moliyaviy oqibatlarga ega bo'lgan qarorlarning puxta asoslangan bo'lishini talab qilmoqda. Biroq amaldagi qonunchilikda NHH loyihalari bo'yicha moliyaviy ekspertiza o'tkazish tartibi batafsil ishlab chiqilmagan va normativ jihatdan mustahkamlanmagan.

Baholash mezonlari, hisob-kitob metodikalari, javobgar subyektlar, muddatlar va ekspertiza natijalari shakli kabi jihatlar aniq belgilanmagan. Bu esa ekspertiza jarayonining tizimli emasligiga va ko'p hollarda faqat shakliy xususiyat kasb etishiga olib kelmoqda.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga moliyaviy ekspertiza tartibini mustaqil modda sifatida kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moliyaviy ekspertiza iqtisodiy jihatdan samarasiz qarorlarning oldini olish, davlat qarzining ortishini cheklash va fiskal xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar, yangi budget majburiyatları bilan bog'liq qonunlar qabul qilinayotgan sharoitda, sifatli moliyaviy tahlil qarorlarning iqtisodiy asoslanganligini ta'minlaydi.

### **Moliyaviy ekspertiza institutini takomillashtirish yo'llari**

Moliyaviy ekspertizaning roli va samaradorligini oshirish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Jarayonlarni raqamlashtirish-tahlil va prognozlash imkoniyatiga ega avtomatlashtirilgan platformalarni joriy etish, moliyaviy ekspertizaga sun'iy intellektni joriy qilish.
2. Kadrlar salohiyatini oshirish-xalqaro standartlar asosida davlat ekspertlarini doimiy o'qitish.
3. Ochiqlikni ta'minlash-ekspertiza xulosalarini ommaga e'lon qilish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.
4. Me'yoriy mustahkamlash-moliyaviy ekspertiza tartibini alohida modda tarzida "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlash. Xususan, quyidagi tahrirdagi moddani aks ettirish:



## “29<sup>1</sup>-modda. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining iqtisodiy- moliyaviy ekspertizasi

*Qabul qilinishi qo’shimcha moliyaviy xarajatlarni talab etadigan yoki O’zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan yo’qotishlarga olib keladigan yoxud O’zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan va davlat maqsadli jamg’armalari byudjetlaridan mablag’lar ajratilishini, shuningdek, davlat xaridlari amalga oshirilishini talab qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida majburiy moliyaviy ekspertizdan o’tkazilishi shart.*

*Davlat rivojlanish dasturlari va investitsiya dasturlarining loyihalari Vazirlik tomonidan majburiy iqtisodiy ekspertizdan o’tkazilishi lozim.*

*Qabul qilinishi qo’shimcha moliyaviy xarajatlarni talab etadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida moliyalashtirishning aniq manbalari belgilangan bo’lishi kerak. Ekspert normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini iqtisodiy va moliyaviy ekspertizdan o’tkazishda normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minalash uchun bo’lgan moliyaviy-iqtisodiy xarajatlar, ularni qoplash miqdorlari hamda manbalarini aniqlaydi. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini iqtisodiy va moliyaviy ekspertizdan o’tkazish yakunlari bo’yicha xulosa tuziladi. Ushbu xulosa normativ-huquqiy hujjat loyihasi yoki uning alohida qoidalari uchun rasmiylashtiriladi hamda unda normativ-huquqiy hujjat loyihasining O’zbekiston Respublikasining iqtisodiy, moliyaviy va byudjet qonunchiligi normalariga muvofiqligi yoxud nomuvofiqligi to‘g’risida xulosa qayd etiladi. Xulosa obyektiv, ishonchli va asoslangan bo’lishi lozim.*

### **Moliyaviy ekspertiza bo‘yicha xalqaro tajriba**

**Iqtisodiy va moliyaviy ekspertiza.** Bu borada **Moldova Respublikasining** tajribasi e’tiborga loyiq, ya’ni mazkur davlat qonunchiligi alohida ravishda iqtisodiy va moliyaviy ekspertizalardan o’tkaziladi. Xususan, Moldova Respublikasining Normativ hujjatlar to‘g’risidagi Qonuniga asosan (34-modda) *iqtisodiy ekspertiza* Moldova Iqtisodiyot va infratuzilma vazirligi tomonidan amalga oshirilib, iqtisodiy xarakterdagи normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari uchun majburiy hisoblanadi va quyidagilarga qaratilgan: loyiha qoidalaring bozor iqtisodiyoti tamoyillariga muvofiqligini ta’minalash; loyiha qoidalaring iqtisodiyot sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiqligini ta’minalash; loyihaning kuchli va zaif tomonlarini uning islohotlar bilan bog’liqligini aniqlash, iqtisodiy va boshqa afzalliklarini ochib berish; iqtisodiy kamchiliklar haqida ogohlantirish hamda salbiy iqtisodiy oqibatlarni bashorat qilish”.

“Moliyaviy ekspertiza Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi va davlat budgetiga ta’sir ko’rsatadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari uchun majburiy hisoblanadi hamda quyidagilarga qaratilgan: loyiha qoidalaring moliya qonunchiligiga muvofiqligini ta’minalash”; yangi qoidalarni amalga oshirish xarajatlari smetasi; moliyaviy kamchiliklar to‘g’risida hisobot berish va moliyaviy natijalarni bashorat qilish.

### **Xulosa**

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining moliyaviy ekspertizasi O’zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlik va budget mablag’laridan oqilona foydalanishni ta’minlovchi muhim vositadir. Ushbu institutni takomillashtirish iqtisodiy barqarorlik, davlat boshqaruvi samaradorligi va islohotlarga bo’lgan ishonchni oshirishda muhim ahamiyatga ega.



## Foydalanilgan manbalar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2023-yilgi tahrirda)
2. OECD (2021). Regulatory Impact Assessment: Best Practices and Guidelines.
3. IMF (2022). Fiscal Transparency and Budget Risk Analysis.
4. Mirzayev Sh.M. Davlat boshqaruvi tizimidagi moliyaviy ekspertiza//Iqtisodiyot va innovatsiyalar–2023–№4.
5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti—[www.mf.uz](http://www.mf.uz)



## ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### YOSHLARNI OILAVIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA TARBIYALASHNING IJTIMOIY PRINSIPLARI

**Mamadiyarova Malika**

Navoiy davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasи mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida an'anaviy oilaviy qadriyatlarga tahdidlar kuchayib borayotgani, bu qadriyatlarni asrab-avaylash va yoshlarga singdirish zaruriyati yoritiladi. Oilaviy qadriyatlar shaxs tarbiyasida muhim omil bo'lib, jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining poydevoridir. Tadqiqotda sotsiologik yondashuv asosida qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni, oilaning ijtimoiy institut sifatidagi funksiyalari va uning transformatsiyalari tahlil etiladi. Yoshlarni oilaviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, oilaviy munosabatlar madaniyatini yuksaltirish, davlat va ommaviy axborot vositalari ishtirokida bu qadriyatlarni targ'ib qilish muhim vazifa sifatida belgilab beriladi.

**Kalit so'zlar:** oila, qadriyat, ma'naviyat, jamiyat, taraqqiyot, texnologiya, tendensiya, axloq, globallashuv.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida an'anaviy oilaviy qadriyatlarga tahdidlar paydo bo'lmoqda. Shu sababli, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlarga singdirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Yoshlarni oilaviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularga oila mustahkamligi, oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan mehr-oqibati, sadoqati va burchi haqida tushuncha berish muhim ahamiyatga ega. Zero, mustahkam oila-bu sog'lom jamiyatning asosi. Oilaviy qadriyatlarga sodiqlik esa shaxsning ma'naviy yetukligi va jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

So'nggi o'n yilliklarda olimlarning ilmiy tadqiqotlarida qadriyat mavzusi yetakchi pozitsiyalardan birini band etib kelmoqda. Bu tendensiya qadriyatlarning har qanday ijtimoiy tuzilmadagi voqealarning fundamental mohiyatini tushunish, ularning latent mazmuni va faoliyat vektorlarini aniqlashga ko'maklashuvchi o'ziga xos optik vosita ekanligi bilan izohlanadi. "Qadriyat yo'nalishlari tizimiga tayanib, ijtimoiy aloqalarning evolyutsion tendensiyalarini, jamiyat taraqqiyotining kelajakdagi vektorlarini baholash imkoniyati mavjud. Qadriyatlar sotsiologiya, psixologiya, ijtimoiy psixologiya, axloqshunoslik kabi turli xil ilmiy yo'nalishlar tomonidan har tomonlama chuqur o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotda asosan sotsiologik aspektga urg'u beriladi. Sotsiologiya, birinchi navbatda, ijtimoiy o'zaro ta'sirlarni muvofiqlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynovchi qadriyat yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu doirada qadriyatlar madaniyatning ajralmas tarkibiy elementi, ijtimoiy birliklar va guruhlarning xatti-harakatlarini qadriyat-normativ asosda tartibga solishning muhim instrumenti sifatida tushuniladi" [1].

Shu nuqtai nazardan, yuqorida ta'kidlangan o'zgarishlar oila institutining bugungi holati, uning jamiyatdagi roli va ahamiyatiga qanday ta'sir ko'rsatgani, jamiyatning yangi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlari oila ichidagi munosabatlarga, oilaviy qadriyat



yo‘nalishlariga va ushbu ijtimoiy institutning mustahkamligiga qanchalik darajada ta’sir etgani muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada ro‘y berayotgan transformatsion jarayonlar muammosini tadqiq etish alohida dolzarblikka ega, chunki oila doimo jamiyatning fundamental asosi bo‘lib kelgan va uning holatiga qarab butun jamiyatning ahvolini baholash mumkin.

Inson hayoti davomida turli qadriyatlar bilan yo‘g‘riladi. Bu qadriyatlar uning dunyoqarashini, xulq-atvorini va hayotdagi maqsadlarini belgilaydi. Shaxsnинг shakllanishida esa oilaviy qadriyatlar muhim rol o‘ynaydi. Oila – bu inson ilk bor mehr-oqibat, sadoqat, hurmat va boshqa muhim qadriyatlar bilan tanishadigan muhitdir. Oilaviy qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib, millatning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiradi. Oilada o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, ishonch, bir-birini qo‘llab-quvvatlash kabi qadriyatlar hukm sursa, bu jamiyatning barqarorligi va rivojlanishiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq, bugungi kunda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, turli mafkuralarning ta’siri natijasida an’anaviy oilaviy qadriyatlarga jiddiy tahdidlar paydo bo‘lmoqda. G‘arb madaniyatining kirib kelishi, individualizmning kuchayishi, oilaning iqtisodiy ahvolining yomonlashuvi kabi omillar oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yoshlarga singdirish, oila institutini mustahkamlash bugungi kunda dolzarb vazifaga aylanib bormoqda [2].

Zamonaviy jamiyatda oilaviy qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu qadriyatlar nafaqat har bir oilaning mustahkamligini ta’minlaydi, balki jamiyat barqarorligining asosiy poydevori hisoblanadi. Shuning uchun oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Avvalo, yoshlarni oilaviy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash lozim. Farzandlar oila degan muqaddas tushunchaning mazmun-mohiyatini, undagi mehr-oqibat, sadoqat, mas’uliyat va burch kabi fazilatlarni bolalikdan anglab yetishlari kerak. Buning uchun maktabgacha ta’lim muassasalari, maktablar va oliy ta’lim dargohlarida maxsus darslar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilishi zarur [3].

Ikkinci muhim yo‘nalish–oilaviy munosabatlardan madaniyatini yuksaltirishdir. Ota-onalar o‘rtasidagi sog‘lom va hurmatli munosabatlardan farzandlarning to‘g‘ri tarbiyasida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Oila a’zolari o‘rtasida ishonch, mehr-muhabbat va sabr-toqat ustuvor bo‘lishi zarur.

Shuningdek, davlat darajasida ijtimoiy himoya choralarini kuchaytirish–ayniqsa yosh oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish, ularni uy-joy bilan ta’minalash, bolali oilalarga rag‘bat yaratish–oilaviy qadriyatlarning barqarorligiga katta hissa qo‘sadi.

Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari oilaviy qadriyatlarni targ‘ib etishda muhim rol o‘ynaydi. Televizion ko‘rsatuvarlar, filmlar, maqolalar va ijtimoiy tarmoqlardagi mazmunli chiqishlar orqali jamiyatda oilaning o‘rnini haqida keng tushuncha berish lozim.

Oxir-oqibat, milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish ham muhim sanaladi. O‘zbek xalqiga xos an’anaviy oilaviy qadriyatlarni, urf-odat va marosimlar orqali yosh avlodni o‘z milliy ildizlariga, o‘zligini anglashga undash lozim. Bu esa kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi [4].

Xulosa qilib aytganda, mustahkam oila–bu nafaqat har bir inson uchun baxt manbai, balki sog‘lom va barqaror jamiyatning asosi hamdir. Oilaviy qadriyatlarga



sodiqlik esa shaxsning ma’naviy yetukligi va jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Kelajak avlodlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, jamiyatimizni yanada rivojlantirish uchun oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylashimiz va ularni mustahkamlashimiz shart.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Раджапова Н. Б. Гендерная паритетность прав человека в социальной сфере узбекистана//Инновационное развитие: потенциал науки и современного образования–2020–С. 207-209.
2. Добренъков В.И., Кравченко А.И. Социология. В 3-х томах. М.: ИНФРА-М, 2000.
3. Халматова М. Оиласий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. Халматова М., Сафаева С. Аёллар масаласи: умумижтимоий ва миллий жиҳатлар.–Тошкент: Ўзбекистон, 2003. Б.162.
5. Хусеинова А.А. Фуқаролик жамияти ва аёллар.–Бухоро, 2009. Б.88.
6. Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане.–Тошкент: Ижтимоий фикр, 2012. - Б.164.
7. Turdiyev, B. S. (2019). The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 229-233.
8. Sobirovich, T. B., & Norman, Z. D. M. (2023). Harmony of National and Universal Values in Uzbekistan. Harmony, 7(1), 08-16.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАРMARKAZIY OSIYODA ILK DAVLATCHILIK ASOSLARI: DINIY-MA'NAVIY  
QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI

Ibragimova Rabiyajon Mansurbekovna  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** *Markaziy Osiyo mintaqasi sivilizatsiyaviy taraqqiyotning beshiklaridan bo‘lib, ushbu mintaqa rivojida diniy, milliy va madaniy qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etgan. Ilmiy maqolada ushbu omillar tahlil etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Markaziy Osiyo, diniy qadriyatlar, ma’naviy asoslar, tarixiy jarayonlar, evolyutsiya.*

1991 -yilning 31-avgustida xalqimiz milliy mustaqillikka erishdi. Milliy istiqlol o‘zbek davlatchiligi va uning ulkan ma’naviy me’rosi tarixini o‘zimizga qaytardi. Buning asnosida tarixiy xotira va tarixiy jarayonlarni obyektiv asosda o‘rganishga imkoniyatlar yaratildi. Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev: “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”[1] deya ta’kidlashi orqali ham chuqur anglab yetishimiz mumkin.

O‘zbekistonda shahar va davlatlarning shakllanishini, Jarqo‘ton O‘zbekiston hududidagi ilk shaharning yorqin misoli ekanligini, Sherobod vohasidagi shu davrga oid Jarqo‘ton majmuiga kiruvchi maskanlar guruhini esa, shahar-davlat yoki «nom» davlatlar bilan qiyosiy solishtirish mumkinligi tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilmoqda. Mil.avv. II ming yillikning so‘nggi choragida Shimoliy Baqtriya hududlarida yirik va mustahkamlangan markazlarga ega bo‘lgan «nom» yoki voha ko‘rinishidagi davlatlarning boshlang‘ich bosqichi bo‘lgan hududiy-siyosiy birlashmalar shakllana boshlagan, degan g‘oyani ilgari surmoqdalar[2].

Jarqo‘tonning eng baland joyi 6-tepalik bo‘lib, u yodgorlikning markaziy qismida joylashgan. A.Asqarov va uning shogirdlari tomonidan ushbu tepalikda ibodatxonaning ochib o‘rganilishi yurtimiz tarixini, xalq e’tiqodini o‘rganishda, shu jumladan shaharsozlik va davlatchilik tariximizni yoritishda ko‘plab yangiliklarni qo‘lga kiritish imkonini berdi.

Zardushtiylikning paydo bo‘lishi masalasi, uning O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan o‘zbek davlatchilik tarixi ildizlari bilan bog‘liqligini, arxeologik ashyolar tahlili ko‘rsatmoqda. Ularning tahlili, zardushtiylik diniy qarashlarining ilk kurtaklari mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bo‘la boshlaganligini tasdiqlamoqda. Zardushtiylikning shakllanishi bronza davri qadimgi dehqon jamoalarining ilk shaharlarida qad ko‘targani, bu din o‘zbek ilk davlatchiliginin mafkuraviy asosini tashkil etganligini ko‘rsatmoqda. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» da aks etgan jamiyatning ijtimoiy tarkibi va ramziy belgilari bronza davri ibodatxonalarida, aynan Jarqo‘ton ibodatxonasida va shu davr dafn marosimlari bilan bog‘liq udumlarda yaqqol aks etganligi bilan asoslanadi[3].

«Avesto»ning eng qadimgi qismi «Gatlar» deb atalib, unda payg‘ambar



Zaratushtraning beshlik qo'shiqlari, oliy xudo Axuramazda va uning ma'budalari haqidagi olqishli madhiyasi batafsil keltirilgan. Gatlarda ko'tarilgan g'oyalarda bronza davri jamiyatni ijtimoiy munosabatlarini Qadimgi Baqtriya va Marg'iyyonada davlat tuzilmalari shakllangunga qadar bo'lган davri yoritilgan. Chunki, Qadimgi Baqtriya va Marg'iyyona bronza davri aholisi zoolatrik diniy qarashlaridagi jonivorlar tasviri, gatlarda madh etilgan xudo va ma'budalarning moddiyilikka ko'chgan ko'rinishi bo'lib, «Avesto» jamiyatining ilk belgilari shakllana boshlaganligidan dalolat beradi.

«Avesto» jamiyatining ijtimoiy-tarkibiy tuzilishi haqida A.Asqarov, A.Sagdullayev, Sh.Shaydullayev'lar o'z ishlarida shunday izohlagan. Bunga ko'ra, «Avesto» jamiyatini to'rt qatlamga ajratib ko'rsatadilar. Bular – katta patriarchal oila – «nmana», urug' jamoasi – «vis», qabila – «zantu», viloyat, mamlakat – «daxyu» larga bo'linadi. Bu ijtimoiy tuzilishning birinchi, ikkinchi va uchinchisi Sopolli madaniyati topilmalarida bevosita kuzatiladi.

Arxeologik belgilarni kuzatar ekanmiz, Sopollitepa qal'a-qo'rg'oni 8 ta kvartaldan iborat bo'lsa, shu kvartallarning har biri, bittadan nmanani tashkil qiladi. Vis – bu nafaqat qishloq jamoasi, balki xususiy ishlab chiqaruvchilar uyushmasi, butun qishloq jamoasi ma'nosini anglatib, Sopollitepa qishlog'ini Visga qiyoslab ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Demak, Sopollitepa nmanalardan tashkil topgan Visning qarorgohidir[4]. Qishloq jamoasi tepasida nmanapatilar orasidan saylab qo'yilgan urug' oqsoqoli Vispati turgan bo'lib, butun sopolitepaliklar Vispati nazorati ostida bo'lgan. Davlatchiligmizning eng dastlabki bo'g'ini ana shu vislar, ya'ni qishloq jamoalaridan boshlangan.

«Avesto»ning qadimgi qismida aks etgan davlatchilikka tegishli atamalardan yana biri – zantu bo'lib, u qabilaviy uyushmani anglatadi. Qabila uyushmasi bir necha vislarni birlashtiruvchi, bir necha urug' jamoalari ustidan nazorat qilib turuvchi boshqaruvin organi hisoblangan. Jarqo'ton hududida joylashgan shahar ibodatxonasi ushbu ilk shahar-davlatning boshqaruvin organi bo'lib, boshqaruvin tizimida diniy rahnamolikning o'rni katta bo'lgan. Qishloq jamoalarini birlashtiruvchi zantuni boshqarishda diniy-mafkuraviy jihatdan Jarqo'ton shahar ibotadxonasi muhim rol o'ynagan. Har bir urug'ga yuqori obro'ga ega, yuksak ibrat sohibi, o'z ishining ustasi bo'lgan kishilar sarkardalik qilgan.

Jarqo'ton yodgorligi misolida o'zbek davlatchiligining ilk ildizlari kuzatilar ekan, ushbu yodgorlikdan topilgan topilmalarning tarixiy tahlili, Sopolli madaniyatida payg'ambar Zardusht islohatiga qadar olovga topinish, uni muqaddas bilib, e'tiqod darajasiga ko'targanlar.

So'nggi yillarda ibodatxona joylashgan tepalikda O'zbek-Olmon ekspeditsiyasi qazishma ishlarini olib borib, ibodatxona qurilishiga qadar ham bu tepalikda mahobatli inshoot bo'lganligini aniqladilar. 6 – tepalikning eng quyi qatlamida joylashgan ushbu bino so'nggi Jarqo'ton davrida qayta tiklangan va bizgacha u binoning bir qator g'isht balandligidagi holati saqlangan. O'rganilgan bino to'g'rito'rtburchak shaklda bo'lib, 0,90 metr qalinlikdagi devor bilan o'ralgan. Ushbu bino ichida tomonlari 7 metrdan iborat kvadrat shakldagi zal, atrofida esa, yo'laksimon xonalardan iborat bo'lgan majmua ochilgan. Majmua devorlari va pollari gips bilan suvalgan va bevosita bronza davri shoxona saroyi, ya'ni «oq saroy»ni eslatadi. Bu monumental binoni ishonch bilan saroy deb atash mumkin, degan ilmiy xulosaga keltingan.

Sh.Shaydullayev o'z tadqiqotlarida Jarqo'ton shahar-davlatining asosiy boshqaruvi «Jarqo'ton olov ibodatxonasi»dir, deb e'tirof etadi. Bizningcha ham 6 – tepalikda



joylashgan ushbu mahobatli inshoot ilk Jarqo‘ton bosqichida dastlab, «oqsaroy» mavqeidagi qal'a, so‘ng uning qayta qurilishidan keyin bosh otashkada joylashgan ibodatxona vazifasini o‘tagan. U inshootni arxeologlar izohlar ekan, unda 7x7 metrli shoxona saroy, uning atrofi yo‘laksimon xonalar bilan o‘rab olingani, ular oq gips bilan suvalishidan tashqari, saroy devorlari peshtoqiga ot tasviri ifodalangan terrakot haykalchalaryning yopishtirilishi saroylarga xos bezak usuli ekanligini ta’kidlaydilar. Bu belgilar esa, Jarqo‘ton ibodatxonasi o‘rnida ibodatxona qurilishidan avval, ya’ni Jarqo‘ton bosqichining so‘nggi fazasigacha jamiyat boshqaruv mahkamasiga o‘xshash maxsus markaz bo‘lganligini tasdiqlaydi.

### Adabiyotlar ro’yxati

1. “Халқ сўзи”: <https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev-mamlakatimizdagidek-boj-tarikh-bobolarimizdek-buyuk-allomalar>
2. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи. – Т., 2009. – Б. 35.
3. Каримова Д. Шимолий Бақтрия давлатчилик асосларининг шаклланишида Жарқўтон ибодатхонаси комплексининг тутган ўрни.... – Б. 204-208.
4. Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура ... – С. 119.

**“AVESTO”–MAMLAKATIMIZ TARIXINING BEBAHO DURDONASI****Ibragimova Rabiyajon Mansurbekovna**

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Avestoda Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati, qadriyatlar, tarixi va hayot-tarzi bo‘yicha qimmatli tarixiy ma’lumotlar berilgan. Ushbu asoslar ilmiy maqolada ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Avesto, diniy-madaniy qadriyatlar, jamoalar, tarixiy taraqqiyot, xalq xo‘jaligi.

Zardushtiylikning eng muqaddas timsoli olov – bronza davridan e’tiboran ilk shahar-davlatning diniy boshqaruvi kohinlar qo‘lida bo‘lganligini va ular ilk shahar-davlatning ma’naviy-ilohiy hukmdori ekanligini anglatgan. Ibodatxona insonlar uchun muqaddas maskanga aylangach, uning tasarrufida unumdar yerlar ko‘payib, ularni boshqarish ham kohinlarning nazorati ostida bo‘lgan.

Endi hukmdorlarga qisqa ta’rif berilsa, hukmdor ham ilk siyosiy uyushma – shahar-davlat tepasida turgan shaxs bo‘lib, bir vaqtning o‘zida diniy, dunyoviy hamda harbiy ishlarni o‘z qo‘lida birlashtirgan. Uning to‘liq hukmi ostida davlat ishlari amalga oshirilgan. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, Jarqo‘ton ibodatxonasi va uning xronologik qatlamlaridan topilgan ashyoviy dalillar uning saroy – ibodatxona vazifasini bajargan obyekt sifatida qarashlikni taqazo etadi.

Din nafaqat, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida, balki davlat boshqaruv tizimida ham katta rol o‘ynaydi. Davlat va jamiyatda diniy g‘oyalar asosan uning kuchli va mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.

Yirik daryolarning quyi havzalarida, sertarmoq o‘zanlari bo‘ylab tashkil topgan «vis»lar protoshahar yoki yirik shaharmonand qishloqlarni tashkil etsa, ularni siyosiy – ma’muriy va diniy boshqaruv jihatdan birlashtirgan bir necha mikrovohalarning bosh shahri shahar – davlat maqomida bo‘lgan. Jarqo‘ton yodgorligida olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida, bu yerda ilk shaharga xos xususiyatlar, ya’ni arki a’lo, uning hududiy doirasida hukmdor saroyi, mudofaa qurilishi, hunarmandchilik inshootlari, ibodatxona, aholi yashaydigan turar-joy maskanlari va shu yerlardan topilgan moddiy madaniyat namunalari Jarqo‘ton yodgorligini ilk shahar toifasiga kiritish imkonini beradi.

Akademik A.Asqarov ko‘p yillik izlanishlari natijasida Jarqo‘tonni ilk shahar ekanligi isbotini quyidagi dalillar bilan isbotlaydi:

Qadimgi shaharlarga xos bo‘lgan birinchi alomat – shahar maydonida arki a’lo va shahristoni tarkib topgan bo‘lishi zarur bo‘lsa, Jarqo‘tonda bu sodir bo‘lgan, ya’ni 100 hektarli Jarqo‘tonni 3 hektarli arki a’lo va qolgan qismi shahristonni tashkil etadi;

Ikkinchi alomat – o‘troq dehqonchilik madaniyati aholisi zinch joylashgan maskan mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan bo‘lishi Sopollitepa va Jarqo‘tonda o‘zining yorqin ifodasini topgan;

Uchinchi alomat – shahar arki qismida monumental mahobatli binoni, ya’ni umumshahar jamoalari boshlig‘ining qarorgohini tarkib topishi Jarqo‘tonda o‘z aksini topgan;

To‘rtinchi alomat – shahar maydonida barcha uchun barobar xizmat qiluvchi bosh sajdagoh – diniy mafkuraviy markazi shakllangan bo‘lishi. Jarqo‘tonda shunday bosh



sajdagoh – mahobatli monumental ibodatxona tarkib topgan.

Beshinchchi alomat – Qadimgi shaharda hunarmandchilikning turli tarmoqlarini professional darajada tarkib topgan bo‘lishi. Sopollitepa va Jarqo‘tonda bu yo‘nalish yuksak darajada rivojlangan. Ayniqsa, Jarqo‘tonda kulolchilik (bu soha Sopollitepada ham yuksak rivojlangan), metallurgiya, to‘qimachilik, amaliy san’at, uy-joy qurilishi sohalari bo‘yicha ixtisoslashish jarayoni professional darajada bo‘lganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi[1].

Professor T.Shirinov tadqiqotlari esa aynan Jarqo‘ton yodgorligini ilk shahar timsoli sifatida o‘rganish va uni moddiy madaniyat namunalari orqali ilmiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotchi ushbu yodgorlik misolida O‘rta Osiyo bronza davri shahar deb atalishi kerak bo‘lgan madaniyatning belgilarini quyidagicha izohlaydi:

1. Jamoa sardorlari yoki hukmdorlar istiqomat qiladigan saroylarning bo‘lishi;
2. Diniy markaz, mahobatli ibodatxonaning bo‘lishi;
3. Mudofaa devori bilan o‘ralgan ark hududida saroy aholisi yashaydigan uylarning joylashishi;
4. Keng hududda shahar aholisi yashaydigan imoratlarning bo‘lishi, umumjamoa uchun xizmat qiladigan inshootlarning joylashishi, o‘sha hududda ishlab chiqarish kuchlari – hunarmandchilik ustaxonalarining jamlanishi;
5. Yuqori darajada rivojlangan hunarmandchilik (kulolchilik, chilangarlik, to‘qimachilik, tosh va teriga ishlov berish) kvartallarning shakllanib borishi;
6. Muhr yoki qimmatbaho buyumlar uchraydigan «boy»larning qabrlari bo‘lishi;
7. Shahar aholisining iyerarxiyasini ko‘rsatuvchi aholi istiqomat qiladigan uylarning bir-biridan farqlanishi. Aholi istiqomat qiladigan uylardan farqli monumental inshoot saroy, ibodatxonaning mavjudligi;
8. Savdoning rivojlanishini ko‘rsatuvchi boshqa madaniyatlarga xos bo‘lgan ashyolarning topilishi, ya’ni ushbu madaniyatga xos bo‘lmagan, sopol buyumlar, suyakdan, toshdan, metaldan va qimmatbaho toshlardan ishlangan buyumlarning topilishi;
9. Gliptika, epigrafika va ibridoiy yozuv ko‘rinishlarining uchrashi.[2]

Yuqorida sanab o‘tilgan arxeologik belgilar Jarqo‘ton yodgorligida o‘zining to‘liq aksini topgan. Ushbu belgilarning to‘qqizinchisi, ya’ni yozuv ko‘rinishlarining mavjudligi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan shaharlarning asosiy belgilaridan biri sifatida tan olingan. A.Asqarov va T.Shirinovlar o‘z tadqiqotlarida yozuvni ilk shaharlarning ikkinchi darajali belgilari sifatida ko‘rsatadi.

Shahar va davlatlarni alohida o‘rganilishi tarixiy metodologik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lib, «ilk shahar davlatlarning markazi sifatida paydo bo‘ladi va ularning rivojlanib borishi ham o‘zaro bir-biriga bog‘liqdir»[3]. Shahar va davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi SH.Shaydullayev tomonidan quyidagicha izohланади:

- Dehqonchilik o‘lkalari doirasidagi «nom» tipidagi hokimliklar markazi (shahar-davlatlar). Bu davr shaharlari mil avv. II ming yillikda tashkil topgan;
- Hududiy davlat markazi rolini bajargan shaharlar. Bu davr shaharlari asosan mil.avv. I ming yilik boshlarida tashkil topgan;
- Markazlashgan davlatlar, imperiyalar davri shaharlari.

Demak, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha izohlanganda, tadqiq etilayotgan Jarqo‘ton yodgorligini birinchi tip shaharlarga kiritish mumkin. Qadimgi Baqtriya hududida o‘rganilgan Jarqo‘ton (Janubiy O‘zbekiston), Dashli I (Shimoliy Afg‘oniston) kabi



yodgorliklar mil.avv. II ming yillikda vujudga kelgan shahar-davlatlar bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlarini, bir-birlari bilan aloqadorligini, uzviyiliginı topilgan moddiy madaniyat namunalarida yaxshi kuzatiladi.

Ammo, o‘zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida dastlab, jamoaning boshqaruvi tizimida diniy – ilohiy qudrat katta nufuzga ega bo‘lganligi tufayli, mahkamachilik ishlari shahar bosh ibodatxonasi qoshida mujassamlashgan. Shuning uchun ham ilk shaharlarning bosh ibodatxonalari monumental xarakterga ega bo‘lib, shaharning Bosh otashgohi ibodatxona majmuini tashkil etgan. Shu bilan birga, jamiyatni boshqarish ham ibodatxona bilan bog‘liq bo‘lgan.

### Adabiyotlar ro’yxati

1. Аскаров А. Энг қадимги шаҳар. – Т., 2001. – Б. 21-22.
2. Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура ... – С. 20
3. Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши... – С. 61.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

ТИЛШУНОСЛИКДА ДИСКУРСГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР

Салойдинова Наргиза Шухратовна  
ТАҚУ, “Хорижий тиллар” каф, доценти  
[nargiza.shuhratovna@gmail.com](mailto:nargiza.shuhratovna@gmail.com)

**АННОТАЦИЯ:** Тилшуносликда долзарб масалалардан бири дискурсга оид лисоний тадқиқотларга бўлган эҳтиёж ортиб бормоқда. Мазкур мақола тилшуносликка оид илмий ва назарий манбаларда берилган олимларнинг дискурсга оид фикрларини изоҳлаб беради.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Дискурс, нутқ, матн, нутқий жанр, термин, тил ва нутқ, публицистик дискурс, сиёсий дискурс, илмий дискурс, бадиий дискурс, баҳоловчи дискурс.

Тилшуносликда дискурс терминига оид илк назарий ва лисоний қарашлар XX асрнинг ўрталарида шаклана бошлаган. Бу атама тилшунослик билан бир қаторда адабиётшунослик, социология, сиёсатшунослик, фалсафа, мантиқ, психология каби фан соҳаларида ҳам кенг қўлланилиб келинаётган бўлса-да, тилшуносликда унга оид маълум ва аниқ ягона талқин этилган тушунча мавжуд эмаслигини гувоҳи бўлишимиз мумкин. Дастреб “дискурс” га боғлаб “матн” терминини айни бир тушунча учун қўллашган. Бироқ, кейинроқ “матн” ёзма коммуникацияга нисбатан, “дискурс” эса оғзаки коммуникацияга нисбатан ишлатилган. Бу сўзниг маъноси французча *discours*—“нутқ”, “сўзлаш” демакдир.[1]

Мавжуд манбаларда дастреб муаммога бирдан ортиқ гаплардан ташкил топган ва “мураккаб синтактик моҳиятли бирлик” сифатида қарашган. Бу ҳодиса тилшуносликда мантиқий грамматика ҳамда сўзлашув нутқи алоқадорлиги сифатида баҳоланган. Шунингдек, ўтган асрда тилшуносликда дискурс ҳодисаси оғзаки нутққа алоқадор эканлиги, уларнинг нутқ жараёнида ундалма, кириш сўзи, кириш бирикмалар билан ҳам ифодаланиш ҳолатларининг мавжуд эканлиги, бу эса уларнинг “мураккаб синтактик қурилма” сифатида баҳоланишига асос бўла олиши ҳақидаги фикрлар ҳам илгари сурилган.

Хорижий тилшуносликда дискурс муаммоси ўтган асрда З.Харрис томонидан қўтарилиди. Ўрганилган тадқиқотларда дискурс сўзлашув нутқининг монопредикатив бирлиги сифатида талқин этилди. Бу вақтга келиб, илмий манбаларда матн тилшунослиги, матн тадқиқининг нутқ назарияси билан алоқадорлиги, амалий стилистика, мулоқот назарияси, тил ўрганиш, автоматик таржима каби атамалар қўллана бошланди. Ўтган асрнинг 70-йилларидағи энг катта ютуқлардан бири дискурснинг сўзлашув нутқидаги мавқеи тилшуносликнинг алоҳида бўлими ҳамда муаммонинг алоҳида тадқиқот манбай сифатида шаклланганлигидир. Баъзи манбаларда эса, дискурс атамасининг тилшуносликдаги мавқеи ва унинг қўлланилишига эътиrozлар ҳам билдирилган. Хатто, 1966 йилда тилшунос Р.Годельнинг дискурс атамасининг тилшуносликка оид тадқиқотларда қўлланилиши “тил ва нутқ ҳодисалари ҳақида аниқ хулоса чиқаришга шубҳа



туғдириши мумкинлиги” ҳақидаги эътирофини Н.А.Слюсарев ўз изланишларида қайд этди [2] ва Р.Годель эътиrozига қарши асосли, илмий жавоб берди.[3]

Дискурс тушунчаси асосан бадиий ва матн ўртасидаги алоқани ўрганишга қаратилган соҳа бўлиб, асосан 20 асрнинг 60-70-йилларида лингвистика, семиотика, психология, антропология ва социология каби соҳалардаги изланишлар натижасида юзага келди. Дискурс бадиий имкониятларнинг воқелангандан ҳолатини ҳамда хар хил матн ва оғзаки нутқ, яъни мулоқотдан тортиб, сухбатларгача бўлган ҳолатларни тадқиқ қиласди.

Дискурс-бу тилнинг воқеланиши фаолият жараёни эканлиги тилшунослик фанида Арасту давридан бошлаб ҳозирги кунгача ҳеч бир тилшунос томонидан инкор этилмайди, лекин яқин давргача, юқорида айтиб ўтганимиздек, тилшуносликнинг барча оқим ва йўналишлари фаолият маҳсулини, ҳатто, диалектологик тавсифларда ҳам тавсифи таҳлил этиш билан банд эдилар. Тўғри, психологлар, психолингвистлар нутқнинг пайдо бўлиши, унинг юзага чиқиш жараённида психик хусусиятларга кўп эътибор қаратган бўлсалар-да, улар нутқ шаклида воқеланиши психофизиологик жиҳатдан тадқиқ этиш билан чекландилар. Шундай қилиб, тилшунослар нутқи инсон онгининг маҳсули сифатида, психологлар бу маҳсулнинг руҳий физиологик томонлари билан шуғулланиб келганлар, барча тилшунослар яқдиллик билан тан олган нутқий фаолиятнинг ўзи четда қолиб келаверди.

Голланд тилшуноси Т. А. ван Дейк кенг маънода дискурсга комплексли коммуникатив воқеа, тор маънода эса коммуникатив ҳаракатнинг ёзма ёки нутқий вербал маҳсулоти сифатида қараш лозимлиги ҳақида фикр билдиради. Таъкидлаш керакки, Т.А. ван Дейк дискурс ва матн ўртасидаги фарқни шундай белгилайди: дискурс - актуал айтилган матн, яъни фаол нутқий ҳаракат, матн эса тил тизимиға ёки шаклий лисоний билимларга тегишли фикрларнинг мавхум грамматик тузилишидир.[4] Дискурс - аниқ сухбат, аниқлик эса дискурс тушунчаси қўлланадиган вазиятга, матнга ва обектга ҳам бирдай тааллуқлидир. Дискурс - сухбат тури. Дискурс жанр кабидир. Нутқий жанр-бадиий воситалардан фойдаланишнинг ўзига хослиги, маълум коммуникатив мақсад ва информативлик, императивлик, этикетлик каби жиҳатлари билан ажralиб турувчи нутқ тури хисобланади. Дискурснинг ижтимоий табиати янгиликли дискурс, публицистик дискурс, сиёсий дискурс, илмий дискурс, бадиий дискурс, баҳоловчи дискурс каби янги тушунчаларнинг юзага келишига имкон беради. Талқин ва изоҳларнинг хилма- хиллиги дискурс тушунчасининг кўп қиррали ва кенг қамровли эканлигини кўрсатади. Маълум бир индивидуал дискурснинг алоҳида тадқиқот обекти сифатида ўрганилиши нутқнинг лингвопрагматик табиати тўғрисида мулоҳаза юритишига имкон беради.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Слюсарева Н. А. Терминология лингвистики и метаязыковая функция языка. ВЯ, 1979, № 4.
2. Слюсарева Н. А. R. Godel. Les sources manuscrites du «Cours de linguistique générale» de F. de Saussure // Вопросы языкознания. 1960. – Номер 2 С. 126-130



- 
3. Кожемякин Е. А., Переверзев Е. В., Аматов А. М. Дискурс и власть: Репрезентация доминирования в языке и коммуникации / Пер. с англ.— М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», URSS, 2013.
  4. Гулыга О. А., Ромашко С. А., Дмитровская М. А., вступ. Карапулов Ю. Н Язык. Познание. Коммуникация / Пер. с англ.. — М.: ЛЕНАНД, 2015.

АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАРULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANIDA INSONIYLIK VA  
MA’NAVIY QADRIYATLAR

*Abdixalimova Elzara Nabijon qizi*  
Navoiy innovatsiyalar universiteti  
Boshlang‘ich ta’lim yo ‘nalishi talabasi  
[elzaraabdixalimova@gmail.com](mailto:elzaraabdixalimova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi bosh qahramon Po‘lat ota va insoniylik, milliy qadriyatlar haqida fikr yuritilgan. Asarda tarvirlangan obrazlar orqali inson ruhiyatining murakkabligi, ota mehri, sabr-matonat, vijdon va iymon kabi tushunchalarning badiiy talqini oolib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ulug‘bek Hamdam, insoniylik, badiiy tahlil, konflikt, ruhiyat, ma’naviy qadriyatlar, insonning ichki dunyosi,

Adabiyot har qanday jamiyatning ma’naviy ko‘zgusidir. Har bir ijodkor o‘z olamiga egadir. Har bir inson, bir olamdir aslida. Ijodkor bu olamga boshqacha nigoh bilan qaraydi. Ular qoradan oqni, oqdan qorani ajratib beradilar. Ayniqsa badiiy asarlar orqali inson qalbi, ichki dunyosi va jamiyatda tutgan o‘rni chuqur oolib beriladi. Bugungi zamonaviy o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik, milliy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyat masalalari yetakchi mavzulardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega ijodkorlardan biri Ulug‘bek Hamdam ijodi alohida ahamiyatga ega. Uning asarlari o‘zbek xalqining ruhiy olami, orzu-umidlari, ichki ziddiyatlarini chuqur yoritadi. Ulug‘bek Hamdam zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, u o‘z asarlari orqali insoniylik, axloq, ma’naviyat va milliy qadriyatlarni teran ifoda etadi. Yozuvchining “Ota” romani o‘zbek adabiyotida ilk otalarga bag‘ishlangan asardir. Adibning “Ota” romanini o‘qir ekanmiz, har bir qahramonning ruhiy ichki olami, oilaning muqaddasligi va umumiy axloqiy muammolar asarda atroflicha oolib berilgan. Asarda nafaqat bir oilaning yoki bir shaxsning hikoyasi, balki butun bir xalqning ruhiy dunyosi, o‘zligini anglash yo‘lidagi izlanishdir. Zero Bahodir Karim aytganidek, “Badiiy asarda inson vujudiga sig‘mayotgan ruhiy po‘rtanalar, toshqinlikni, ko‘nglida tug‘ilgan ezgu niyatlarni bayon etish uchun imkoniyat ko‘proq bo‘ladi”<sup>1</sup>.

“Ota” romani kitobxonlar tomonidan juda iliq qabul qilindi, hamda katta bahsmunozaralarga sabab bo‘ldi. Asarda syujet murakkab emas, markazda oddiy bir oila turadi. Asar voqealari zamonaviy o‘zbek adabiyotidan olingan bo‘lib, urush tasvirlari ham bor, unda bir otaning farzandiga, oilaviy hayotga, o‘z mas’uliyatiga munosabati orqali milliy qadriyatlar ko‘zgu sifatida aks ettirilgan. Asar bosh qahramoni Po‘lat ota. Yozuvchi bosh qahramonga aynan Po‘lat otini tanlashi bejiz emas, chunki po‘lat juda mustahkamdir. Asardagi bosh qahramon Po‘lat ota urushning zahrini, undan keyin asirlikni boshidan o‘tkazadi. O‘z yurtiga qaytganda xoinlikda ayblanganligi va uzoq yillar farzandsizlik bilan sinalishi kitobxonni ancha o‘yga toldiradi. O‘quvchi asarni o‘qirkani,



birgina insonga shuncha musibat og‘irlik qilmasmikin deb o‘ylanib qoladi. Lekin Po‘lat ota bu qiyinchiliklarni sabr va matonat bilan yengib o‘tadi. Ota o‘z hayotini halol mehnatga bag‘ishlagan, doim to‘g‘riso‘z bo‘lgan, o‘z e‘tiqodlariga sodiq qolgan inson sifatida gavdalanadi. Romanning asosiy qahramoni bo‘lgan ota obrazzi–Ulug‘bek Hamdam ijodida alohida o‘rin tutadi. Bu obraz orqali adib fidoyilik, sabr-toqat, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik kabi sifatlarni ilgari suradi. Po‘lat ota hayoti davomida boshidan ko‘p sinovlarni o‘tkazadi. Lekin hechqachon o‘z e‘tiqodlariga xiyonat qilmaydi. Otaning qalbidagi eng katta armon uning naslini davom etmayotganligi, qizi Sevinchning yolg‘iz qolayotganligi uni qiyndardi. Po‘lat ota Sevinchga nafaqat ota, bir umrlik hamroh do‘st ham bo‘la oldi. Bizning o‘zbek milliy qadriyatlarimizda otalar onalardan farqli o‘laroq, ko‘p ham mehrlarini ifoda etavermaydilar. Lekin chin dildan yaxshi ko‘radilar. Po‘lat ota ham qizi Sevinchni gulni asraganday asrab avayladi. Lekin so‘nggida Sevinchning qotiliga aylandi. Nega? O‘quvchida bevosita savol tug‘iladi. Sevinch an’analarni buzdimi? Milliy qadriyatlarimizga qarshi ish qildimi? Sevinch faqat otasining istagini amalga oshirdi. Uning naslini davom ettirishga harakat qildi. Va bu holatda otasi ishonib kelgan e‘tiqodlarni buzmadi. Faqtgina Sevinchning onasi Yog‘du xola eng asosiy so‘zni aytmadidi. Aytishga ulgurmadi, Hushidan ketdi. Eng muhim so‘zni aytolmadidi.

Romanda milliy urf-odatlar, qadimiy an’analar, xalqona qarashlar tabiiy va hayotiy konteksda tasvirlanadi. Masalan qiz bolani voyaga yetkazish, oilaviy tarbiya, jamoa oldidagi mas’uliyat kabi tushunchalar o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari sifatida ifodalanadi. Romanning har bir sahifasida o‘zbek xalqining qadimiy ma’naviy qadriyatlari aks etadi. Oila muqaddasligi, farzandsizlik ham oilaning buzilishiga sabab bo‘la olmasligi, uzoq yillik sabrdan keyin, chirolyi mukofotini olganligi ko‘rsatib berilgan. Qozoqboy Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “Istiqlol adabiyoti mavzu nuqtai nazaridan ham, badiiy tasvir tamoyillari jihatidan ham biror qolipga solinmagan, tabiiy ravishda taraqqiy qilayotgan estetik hodisadir. Bu adabiyot uchun hayot haqiqatini ko‘rsatish o‘z holicha fazilat deb qaralmaydi. Badiiy haqiqatni aks ettira bilish yuksak baholanadi.”<sup>2</sup>

Asarda ota-onaga hurmat, farzandga mehr, sabr-toqat, iymon -e‘tiqod kabi tushunchalar ota obrazida mujassam. Ayniqsa, asarda sabrnинг mukofoti bor degan g‘oya ko‘p bor takrorlanadi. Po‘lat ota qanchalik qiyinchilik ko‘rsada, o‘z e‘tiqodini yo‘qotmatdi. Asarda Po‘lat otaning hayotini musibatlarga to‘ldirgan, Yog‘duga bo‘lgan sevgisini deb, Sevinchning fojiali o‘limiga sabab bo‘lgan Erboy obrazidir. Erboy na o‘zi baxtli bo‘ldi, na Po‘lat otani baxtli bo‘lishiga yo‘l qo‘ydi. Umrining so‘nggida qilgan gunohlaridan ming afsus chekib, nadomatlar tortgan bo‘lsa ham Po‘lat ota uni kechirmadi. Alangada qolgan qizining yuzidagi chandiq, aslida Po‘lat otaning yuragidagi chandiq bo‘lib qoldi. Va bu chandiq bir umrga qoldi.

Asarda ota va qiz o‘rtasidagi dunyoqarash farqi ham ochiq ko‘rsatiladi. Ota qadriyatlар, an’analar va e‘tiqod bilan yashasa, qizi ham shu e‘tiqodlarni hurmat qilgan holda, ulg‘aydi. Lekin Sevinchda e‘tiqoddan ko‘ra, istak kuchlilik qiladi. Yozuvchi an’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi muvozanatni toppish zarurligini uqtiradi. U shuni ko‘rsatadiki, zamonaviylik–bu qadriyatlardan voz kechish emas, balki ularga zamon talablari bilan uyg‘un yo‘l topishdir.

**Июль | 2025, 1-қисм**

<sup>2</sup>Yo‘ldoshev Q. “Yoniq so‘z”, Toshkent. Yangi asr avlod. 2006 yil, 17-bet



Yozuvchi asar qahramonlari orqali ko‘p qatlamlı muammolarni masalalarni ko‘taradi: Ota-onaga munosabat, farzandlik burchi, zamonaviylik va ana’nalar o‘rtasidagi ziddiyat, obrazlarning xarakterlaridagi konflikt chiroylı tarzda ochib berilgan. Bu ziddiyatlar oila misolida tasvirlanadi, ammo bu muammolar butun jamiyat uchun dolzarbdir.

Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanı–bu hayot falsafasi, insoniylik saboqlari va ma’naviyat darsligidir. Asarda qahramonlarning hayoti orqali o‘quvchiga sabr, mehnat, e’tiqod va halollik kabi yuksak qadriyatlar singdiriladi. Bu roman har bir kitobxonni o‘z ota-onasini, o‘z ildizini, xalqining ruhiy merosini, milliy qadriyatlarini chuqurroq anglashga undaydi. Yozuvchi bu asari bilan nafaqat adabiyot maydonida, millat ma’naviyatini shakllantirishda katta hissa qo‘shgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Улугбек Ҳамдам Ота романи, Тошкент: Янги аср авлоди, 2020 й. 208 б.
2. Баҳодир Карим Рухият алифбоси. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи. 2018 й. 364 б.
3. Yo‘ldoshev Q. “Yoniq so‘z”, Toshkent. Yangi asr avlodi. 2006 yil, 540-bet



## CHINGIZ AYTMATOVNING “JAMILA” QISSASINING QORAQALPOQ TILIDAGI TARJIMASINING BADIY XUSUSIYATLARI

Berdiyeva Baǵdagul Turǵanbekovna  
Ózbekiston davlat san’at va madaniyat instituti  
Nukus filiyalı assistant óqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasining qoraqalpoq tilidagi tarjimasining badiiy xususiyatlari haqida sóz yuritiladi.

**Kalit sózlar:** Asar,tarjima,ekvivalent,stilistika,dialekt,nazariya

Har qanday badiiy asar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda o‘zining asl nusxadagi aslligini to‘laligicha saqlab qola olmaydi. Ba’zi hollarda yozuvchi uslubi tarjimon tomonidan individuallashtiriladi, ba’zi hollarda bir madaniy qatlamning xalqchil-falsafiy qarashlari bilan farqlanadi, ba’zan esa tilning lug‘at boyligi muhim omil sifatida asliyatdan farq qiladigan asarning yuzaga kelishida dominantlik qilishi mumkin. Albatta, tarjimaning jahon tarjima tarixida bundan boshqa bir qancha muhim masalalari E.Naida, I.Graam, R.Bell, P.Nyumark, S.Basnet, V.Kevin kabi olimlar tomonidan tadqiq etildi. Ular tarjimaning qonuniyatlari, ekvivalentlik va adekvatlik nazariyasi kabi tarjimaning muhim jihatlarini o‘z asarlarida keng yoritib bergenlar.

Rus olimlaridan V.V. Vinogradov, A.V. Fedorov, L.S. Barxudarov, V.N. Komissarov va boshqa olimlar tarjimaning umumiyligi leksikologik muammolari, tarjimada ekvivalentlik, tarjimadagi frazeologik birliklar va kontekst masalasi, emotsiyal-ekspressivlikni aks ettirish va tarjimada milliy-madaniy xususiyatlarga ega so‘zlarni tarjima qilish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha bir qator ilmiy ishlarini yozdi [5]. Tarjimada mos ekvivalent topish, "badiiy adabiyot tili kundalik muloqot vositasi bo‘lgan tilga qaraganda so‘z ustasi tomonidan qayta ishlangan til" - deb yozadi rus olimi A.Fedorov. Badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug‘at boyligi, shuningdek, sinonim va omonimlar, kasb-hunar nomlari, dialektal so‘zlar, eskirgan so‘zlar va vulgarizmlar, erkalash va kichraytirish, uchirma so‘zlar, maqol-matallar va so‘zlarning ta’sirchanligi, ko‘p ma’noliligi, umumiyligi stilistika haqida bilimga ega bo‘lish zarur. Badiiy adabiyotni ilmiy tasniflash shundan iborat: bunda so‘zni so‘z bilan emas, ma’no bilan, obrazni obraz bilan, yumorni humor bilan bog‘lash katta ahamiyatga ega. Badiiy tarjimaning boshqa turdagи tarjimalardan farqi - so‘z satri yoki butun bir asarni to‘g‘ri tahlil qilish yetarli [69]. Badiiy tarjimaning asosiy ahamiyati - tilning go‘zalligidan kelib chiqadi. Til-badiiy asarda estetik hodisa, badiiy faktga aylanadi. Adabiy asarning tili o‘ziga xos "badiiy voqeа" hisoblanadi. Tarjimada shu obrazli tasvirni, badiiy ma’noni boshqa tilni obrazli tasvirlash asosiga o‘tkazish, obrazni obraz bilan qayta tasvirlash jarayoni yuz beradi. Zamonaviy tarjima talablariga muvofiq - tarjimon asl nusxanining badiiy asar sifatida shakl va mazmun birligiga alohida ahamiyat qaratishi, milliy va



individual xususiyatlarini saqlab qolishi lozim [5].

Qirg‘iz xalqining atoqli adibi Chingiz Aytmatovning asarlari 1960-yillardan boshlab qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi. Yozuvchining "Jamila," "Birinchi muallim" qissalari M.Seytniyazov, S.Saliyevlar tomonidan 1970-yillarning oxirida iste'dodli qoraqalpoq yozuvchisi Uzoqboy Pirjanov tomonidan tarjima qilinib qoraqalpoq kitobxonlariga tuhfa etildi. Milliy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganishda, ularning tarixiy rivojlanish yo‘nalishida ko‘pchiligidagi xos umumiyy qonuniyatlar seziladi. Demak, jahon adabiyoti tarixida milliy adabiyotlarning tarixiy rivojlanish jarayonida bir-biriga yaqinlik, o‘xshashlik uchraydi. Bu yashash sharoitlari bir xil tarixiy bosqichlarni boshdan kechirish bilan birga badiiy tarjima orqali ham yuzaga keladi [8]. Shu nuqtai nazardan, bir-biriga har tomonlama yaqin.

Milliy adabiyotlarni qiyosiy o‘rganishda, ularning tarixiy rivojlanish yo‘nalishida ko‘pchiligidagi xos umumiyy qonuniyatlar seziladi. Demak, jahon adabiyoti tarixida milliy adabiyotlarning tarixiy rivojlanish jarayonida bir-biriga yaqinlik, o‘xshashlik uchraydi. Bu yashash sharoitlari bir xil tarixiy bosqichlarni boshdan kechirish bilan birga badiiy tarjima orqali ham yuzaga keladi [8]. Shu nuqtai nazardan, bir-biriga har tomonlama yaqinmadaniy-tarixiy qatlama yashab turgan qoraqalpoq, o‘zbek, qirg‘iz, rus tillaridagi Ch.Aytmatovning "Jamila" qissasini o‘zaro solishtirish orqali uning qoraqalpoq tilidagi tarjimasining badiiy xususiyatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Sh.Aytmatovo‘z asarlarini rus tilida yozgan va qirg‘iz xalqining milliy psixologiyasini, milliy koloritini, urf-odatlarini, milliy xarakterini rus tilida yozgan asarlarida mahorat bilan saqlaydi. Jahon adabiyoti tarixi ko‘pgina xalqlarning milliy badiiy so‘z taraqqiyotini o‘z ichiga oladi. Chingiz Aytmatov romanlarini rus tilidan mohir tarjimon Ibrohim G‘ofurov o‘zbek tiliga o‘girgan. Ch.Aytmatov asarlarida arxaizmlar juda ko‘p uchraydi. Bunday holatda "muvofig so‘zlarni qanday topasiz" degan savolga u shunday javob bergen edi: "-Har qanday mohirona yozilgan asar o‘ziga qadar bo‘lgan asarlardan so‘z boyligini oladi. Ch.Aytmatov asarlarining tili o‘ziga xos boy so‘z boyligiga ega. Biz ularning topilmas til va lug‘at qatlamlariga duch kelamiz. Mendan o‘quvchilar "tarjimalaringizda kam uchraydigan hatto qo‘llanishdan chiqib qolgan arxaizmlarni ko‘p qo‘llaysiz, ularning o‘rniga oddiyroq, tushunarliroq ekvivalentlarni qo‘llasangiz ham bo‘lar edi" - deb so‘raydi. Bunga qarshi fikr aytishim qiyin, albatta. Lekin, kontekstning yozilmagan qonuniyatları bor. So‘zlar, shuningdek, kontekst talabi, poetikasi, vazifasidan kelib chiqib qo‘llanilgandagina badiiy jihatdan o‘zini oqlaydi. Men qandaydir kam uchraydigan so‘z, so‘z qatorlarini, kam qo‘llanilgani uchun foydalanishdan yiroqman.. Matnda har bir so‘z uzukka qosh qo‘ygandek yarashib, eng zarur badiiy vazifani bajarib turishi, ya’ni, eng oliv darajadagi ma’nosiga xizmat qilishini istayman [37].

Chiroyli qilib qurilgan imoratning ko‘rki va qulayliklari bino tarhining qanchalik puxta va aniqligiga, bezak buyumlarining sifatiga, me’morning mahorati, quruvchining mehnatiga bevosita bog‘liq. Badiiy tarjimada esa asosiy "qurilish materiali" tarjimaning



birinchi va eng zarur elementi bo‘lgan so‘zning o‘rni taqqoslabbo‘lmaydigandarajadaahamiyatgaega. Bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning barcha muammolari: badiylik hosil qilish, uslub yaratish, milliy koloritni aks ettirish - bularning barchasi so‘z masalasi bilan uzviy bog‘liq. Shunday ekan, badiy tarjima sohasida yaratilgan katta yoki kichik hajmdagi har qanday nazariy ish birinchi navbatda so‘zni tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Misollar keltiramiz: "Jamila ham o‘zini hech narsa sodir bo‘l magandek ko‘rsatishga harakat qildi" [1:22]. Qirg‘iz tilida: "Jamila bo‘lsa, ol-da o‘z nomusini berma, o‘yinda rostakam sir bildirmay, kulimsirab, sirtidan jaydari." Qoraqalpoq tilida: "Jamila bo‘lsa, u ham o‘z nomusini qo‘ymaydi, o‘yida hech narsa yo‘q odamday sir oldirmaydi. Sir bermay erkin yur. Chunki uning ortida g‘azab, qayg‘u sezilib turibdi" [2:43]. Tarjimadagi "o‘z or-nomusini yo‘qotmaydi, sir boy bermaydi" so‘z birikmalari rus tilidagi nusxasida keltirilmagan. Qoraqalpoq tilidagi tarjimasida bular ekvivalent qatorlar bilan berilgan.

Albatta, badiy tarjimaning tili, uslubi va frazeologiyasini tahlil qilib ko‘rganimizda adabiyotshunoslikka tegishli obrazlilik, milliy o‘ziga xoslik va yana boshqa shunday masalalarga to‘xtalib o‘tmashlikning iloji y’oq.(52) «Жақынжуұықженгейлердин «әй, буныңзизиңегендеңдайкелин!

Есикпенентөрдикөргенинебиркүнболмайатырып, тилименен куүырыпбаратырғой!» – дегенлерине апам: – Мейли, – деп оны жақлайтуғынеди. – Келинимизусындайтик, өр... Адамның ашық болғанлығы жақсы. Сумлықтың бәри ишинен тынғанлардан шығады» [2:11]. Endi qozoqcha tarjimasini olib qaraylik.: «Маңайдағы жеңге-желпілердин «әй бул өзи дикендей беретін не деген келін! Есік, төрді көргеніне бір күн болмай жатып, тілімен жүртты куырып барады ғой!» – дегендеріне апам: «Мейлі! – деп, оны қорғаушы еді. «Келініміз осындағы тік, өткір... Адамның ашық болғаны жақсы. Сумдық қайта тымпыйып жүргендерден шығады». Aslnusx ada : «Соседи не раз приходили жаловаться: – Что это у вас невестка такая? Без году неделя, как переступила порог, а языком и молотит! Ни тебе уважения, ни тебе стыдливости! – Вот и хорошо, что она такая! – отвечала на это мать-Невестка у нас любит правду в глаза говорить. Это лучше, чем скрытничать наисподтишка жамить. Ваши тихонями прикладываются, а такие вот тихони-что протухшие яйца: снаружи чисто и гладкое, а в нутрии-нос заткни» [1].

«Жәмийла суңғақ бойлы, қыпша белли еди. Еки өцирине сыймай тәгилген қойыў шашын қолы менен тутамлап, ақ орамалды маңлайына қыйқашлаў етип байлап, қызыл шырайлыдан келген жүзине ақ орамал айрықша түс берип, жарасып туратуғын еди» [2:13]. «Солай болса да, мен жеңгемди қызғанып тийисип атырған «бузақыларға» қыр көрсетейин дегендей: Абайла, мен оның қәйниси боламан. Қорғайтуғын ҳеш кими жоқ екен деп, көп аса қыйсанлай берме – деўди билдиргим келип, олардың сөзин бөлип, ойын-күлки менен қулип, ең ақырында сүзеген текедей көзимди алартып, қабағымның асты менен қарайман» [2:13].



Qozoq tilidagi tarjimasida: «Жәмила өзі сұнғақ бойлы, қыпша белкеліншек еді. Екі өрімге сыймай төгілген қою қара шашын қолымен қысып турып, бир байлам ақ орамалды маңдайына қиғаштау етип шарт буып алса, қызыл шырайлы келген оның балғын жүзіне ақ орамал айрыкша өң беріп жараса кетер еді. Солай болса да, мен женгемді қызығаныш, тісіп жатқан «бұзақыларға» кыр көрсетейін дегендей: «Абайла, мен оның қайнысы боламын. Қорғайтын ешкімі жоқ еken ғой деп көп сұғанақтана берме дегенді білдіргім келіп, олардың сөзін боліп, қағыта күліп, ең ақыры сүзеген текедейін көзимді алартып, оларға қабағымның астынан қарайтынмын». Соныңтан, гейпара өр көкирек, қумарпаз жигитлер өзлерин **«жердин қиндиғи»** санап, хаялды жерде жатқан елеспесиз нәрседей көретуғын еди» [2:14].

Tarjima nazariyasining bir qancha muhim masalaları qatorida maqol-matallar, frazeologik so‘z birikmaları, uchirma so‘zlar, obrazli (tagma’noli) so‘zlarnı bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish muammosı katta o‘rin tutadi. Chunki, turli tillarda anglatadigan ma’nosı bir xil bo‘lgan so‘zlarning semantik ma’nosı va uslubining funksional vazifalari bir-biridan farq qilishi, turli tillarda bunday so‘z birikmalarining o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lganligi uchun tarjima amaliyotida katta qiyinchilik tug‘dirib, nazariy jihatdan ham katta qiziqish uyg‘otadi (169). Boshqa xalqning maqol-matalini so‘zma-so‘z tarjima qilishda katta mahorat va ehtiyyotkorlik talab etiladi, aksincha, holatda boshqa xalqning milliyligini ko‘rsatishda maqolni quruq gapga, maqolni esa safsataga aylantirib qo‘yish hech gap emas. Masalan ruslarda "Chto poseesh, to i pojnesh" degan maqol bor. Qoraqalpoq tilida ham "nima eksang, shuni o‘rasan" degan maqol bilan bir xil ma’noni anglatadi. Rus tilidagi "hadya etilgan otni tishiga qaramaydi" maqol-maqoli ko‘plab tillarda ham qo‘llaniladi. Deyarli bir xil ma’noni anglatuvchi ba’zi bir maqol-matallar frazeologik so‘z birikmalarining shakli jihatidan mos kelsa-da, so‘z birikmalarining asosini tashkil etuvchi so‘zlar boshqacha bo‘ladi. Tarjimonning so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, asar badiiy jihatdan shunchalik yuksak, puxta va yengil tarjima bo‘lishi tabiiy. Lekin, tarjima nazariyasining adabiyotshunoslik va tilshunoslik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan umumiy masalaları bilan birga grammatika, leksikologiya, nutq madaniyati, til tarixi, stilistika, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, folklor, tekstologiya va h.k. shaxsiy manfaatlari bor. Ularni aniqlab, tarjima nazariyasining ilmiy metodologik asosini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

### Adabiyotlar:

1. Aytmatov Chingiz. Jamila: [qissa]/ tarj. A.Dmitriyeva. Moskva: Goslitizdat, 1960.
2. Sh.Aytmatov. "Jamila" qissa.Nukus.,1962
3. Chingiz Aytmatov. "Jamila" (qissa). Qozoq tiliga tarjima qilgan Valjan Nurmaxanov. Taraz.aiman@mail.ru.
4. I.Ofurov. "Til va tarjima"



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

5. A.V.Fedorov. "Tarjima nazariyasi haqida kirish (Lingvistik muammolar)." Moskva.,1958.str.169



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР

STRATEGIC CATALYSTS: INFRASTRUCTURE AND REGULATORY  
REFORMS DRIVING INDIAN FDI IN UZBEKISTAN

**Dr. Abror Kucharov**

Professor, *Tashkent State University of Economics: Tashkent, Uzbekistan,*  
[abrork1967@gmail.com](mailto:abrork1967@gmail.com), <https://orcid.org/0000-0003-2314-2805>

**Dr. Jyoti Meshram**

Research Scholar, *Tashkent State University of Economics: Tashkent, Uzbekistan,*  
[meshramjyoti@gmail.com](mailto:meshramjyoti@gmail.com), <https://orcid.org/0009-0003-3756-0802>

**Abstract:** Uzbekistan's emergence as a strategic node linking Europe, South Asia, and East Asia hinges on its investment-friendly reforms and infrastructure overhaul. This thesis investigates how physical infrastructure and regulatory reforms have facilitated Indian Foreign Direct Investment (FDI) in Uzbekistan. Drawing on three interrelated dimensions—historical trade ties, institutional frameworks, and infrastructural development—this study combines empirical data, policy review, and case analysis. Results indicate that regulatory transparency, logistics connectivity, and sectoral incentives have boosted Indian FDI in textiles, pharmaceuticals, and renewables. However, challenges in legal enforcement, skills availability, and bureaucratic hurdles persist. A phased reform roadmap from 2025–2035 is proposed to strengthen bilateral economic synergy. The findings provide strategic guidance for investors and policymakers seeking long-term Indo-Uzbek economic collaboration.

**Keywords:** Indian Foreign Direct Investment (FDI), Uzbekistan economic reforms, infrastructure development, regulatory transparency, bilateral trade, India–Uzbekistan relations, investment incentives, textile sector Uzbekistan, pharmaceutical investments, renewable energy Uzbekistan, legal enforcement challenges, logistics connectivity Central Asia, institutional frameworks, South Asia–Central Asia economic corridor, strategic investment roadmap (2025–2035)

## 1. Introduction

India and Uzbekistan share deep-rooted economic and cultural ties dating back to the Silk Road era. Post-2016, Uzbekistan's sweeping reforms under President Shavkat Mirziyoyev have prioritized FDI as a driver of economic modernization [1]. With over \$500 million in Indian commitments, Uzbekistan represents a key focus in India's 'Connect Central Asia' strategy [2]. However, infrastructure limitations and regulatory complexity often constrain the full potential of this partnership.

## 2. Role of Infrastructure in Indian FDI

Infrastructure development—across transport, logistics, and energy—plays a critical role in catalyzing FDI. Empirical studies show that a 1% improvement in electricity generation correlates with a 0.34% rise in Indian FDI [3]. Indian investors in pharmaceuticals, textiles, and agro-processing prefer SEZ-linked zones with reliable logistics. Despite progress, challenges in multimodal integration and electricity reliability continue to hinder investment inflows [4].

## 3. Regulatory Frameworks Facilitating FDI



Uzbekistan's regulatory reforms—including the Law on Investments (2019), tax cuts, and digitized licensing—have significantly improved its investment climate [5]. Free Economic Zones now house Indian firms such as Cadila and ReNew Power. Incentives like tax holidays and customs waivers have made sectors such as renewable energy and pharmaceuticals more attractive [6].

### 4. Institutional and Policy Engagements

Bilateral mechanisms such as the India-Uzbekistan Business Council and the India-Central Asia Dialogue promote strategic collaboration. Sector-specific agreements and the Bilateral Investment Treaty (2022) offer additional investor protections [7]. However, regulatory predictability, judicial independence, and dispute resolution remain work-in-progress areas that need attention to boost investor confidence [1].

### 5. Strategic Recommendations

This thesis proposes a three-phase roadmap (2025–2035):

- (i) Upgrading SEZ infrastructure and multimodal hubs;
- (ii) Reinforcing legal and digital frameworks;
- (iii) Fostering skills development in pharma, IT, and logistics. Stakeholder collaboration and transparency in policy communication will be key to sustaining investment momentum.

### References

1. World Bank (2023). *Uzbekistan Economic Update*. World Bank Publications.
2. MEA (2024). *India-Central Asia Dialogue Brief*. Ministry of External Affairs, Government of India.
3. ADB (2022). *Infrastructure and FDI in Asia*. Asian Development Bank.
4. UNCTAD (2023). *World Investment Report 2023*. United Nations Conference on Trade and Development.
5. UNCTAD (2024). *Uzbekistan Investment Policy Review*. United Nations Conference on Trade and Development.
6. Navoi FEZ (2024). *Free Economic Zones Performance Report*. Government of Uzbekistan.
7. MEA (2022). *India-Uzbekistan Bilateral Investment Treaty*. Ministry of External Affairs, Government of India.



## КАЧЕСТВО ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ И КОРПОРАТИВНОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: ВЛИЯНИЕ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ И МЕЖДУНАРОДНУЮ ПРАКТИКУ

**Намозов Жасурбек Кувадович**

Начальник юридического управления

АО «Региональные электрические сети»

Ташкент, Узбекистана

**Аннотация.** Финансовая отчётность служит ключевым инструментом для анализа инвестиционной привлекательности компаний. В тезисе рассказывается о прозрачности и достоверности финансовой отчётности. От чего зависят не только инвестиционные потоки, но и доступ компаний к различным источникам финансирования, включая международные рынки капитала.

**Ключевые слова:** мошенничество, давление, корпоративное мошенничество, искажение.

Особенно остро проблема достоверности финансовой информации ощущается в контексте выхода компаний на зарубежные биржи. Национальные эмитенты, разместившие ценные бумаги за пределами страны, на практике убедились в том, что качество отчетности напрямую влияет на их конкурентоспособность на международной арене.

Волна корпоративных скандалов и актуализация проблемы Начало 2000-х годов ознаменовалось серией корпоративных скандалов, в основе которых лежали масштабные искажения финансовой отчётности. Эти события показали, насколько опасным может быть корпоративное мошенничество не только для отдельных компаний, но и для всей финансовой системы. Нарушения отчетности подрывают доверие инвесторов и дестабилизируют фондовые рынки. По данным Международной ассоциации сертифицированных экспертов по борьбе с мошенничеством (ACFE), ежегодные потери от корпоративного мошенничества могут составлять до 5–7% от выручки организаций, что эквивалентно триллионам долларов в глобальном масштабе.

**Корпоративное мошенничество: определение и причины возникновения**

**Определение понятия**

Термин "корпоративное мошенничество" в научной и практической литературе трактуется по-разному в зависимости от правовой системы. В уголовном законодательстве Республики Узбекистан, в частности в статье 168 УК РУз, мошенничество определяется как завладение чужим имуществом либо получение права на него посредством обмана или злоупотребления доверием. В то



же время ряд действий, характерных для корпоративного мошенничества — таких как подкуп, превышение должностных полномочий или искажение финансовой отчётности — квалифицируются по иным статьям либо вовсе не охватываются действующим законодательством в полной мере.

С учётом ограниченности национальной правовой дефиниции, в данной работе принимается за основу более широкое и универсальное определение, представленное в Международных стандартах аудита (МСА). Согласно МСА 240 "Мошенничество и ошибки", корпоративное мошенничество представляет собой преднамеренные действия одного или нескольких представителей управленческого персонала, сотрудников или внешних лиц, направленные на получение незаконной выгоды посредством обмана.

В международной практике корпоративное мошенничество подразделяется на три ключевые категории:

1. Умышленное искажение финансовой отчётности;
2. Незаконное присвоение активов компании;
3. Коррупционные действия в рамках хозяйственной деятельности.

Наиболее трудно поддающимся выявлению видом является фальсификация финансовой отчётности, поскольку она, как правило, осуществляется управленческим составом с использованием сложных схем. Это может приводить к значительным финансовым потерям, разрушению репутации и даже банкротству компаний. Иллюстративным примером подобных последствий является крах американской энергетической компании Enron, вызванный систематическим искажением отчётных данных.

Причины совершения корпоративного мошенничества подробно рассматриваются в рамках концепции «треугольника мошенничества» (Fraud Triangle), разработанной американским криминологом Дональдом Крэсси. Согласно этой модели, наличие трёх взаимосвязанных факторов существенно увеличивает вероятность совершения злоупотреблений:

### 1. Давление (Pressure)

Финансовые или профессиональные ожидания, оказываемые на руководство или сотрудников, могут стимулировать стремление к манипуляциям. Примерами являются:

- давление со стороны инвесторов, ориентированных на достижение определённых финансовых результатов;
- личная заинтересованность в получении бонусов, премий и других форм материального вознаграждения.

### 2. Возможность (Opportunity)

Недостаточность механизмов внутреннего контроля и слабость корпоративного управления создают благоприятные условия для совершения мошеннических действий. Руководство может:



- намеренно включать в отчетность недостоверные данные;
- обходить контрольные процедуры с использованием административных полномочий.

### 3. Оправдание (Rationalization)

Моральное самооправдание позволяет лицу преодолеть внутренние барьеры и убедить себя в допустимости своих действий. Типичными примерами являются суждения: «это никому не повредит», «все так делают», «результаты важнее методов». В условиях, когда экономические преступления не воспринимаются обществом как тяжкие, оправдание становится особенно доступным.

Корпоративное мошенничество представляет собой сложное социально-экономическое явление, обусловленное взаимодействием личных, организационных и внешнеэкономических факторов. Его профилактика требует комплексного подхода, включающего совершенствование систем внутреннего контроля, повышение прозрачности корпоративного управления и формирование этических стандартов деловой практики.



## СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИКИ-ЗЕЛЁННЫЙ АУДИТ

Сайдаменова Дилора Хасановна

[dilora.saydamenova@gmail.com](mailto:dilora.saydamenova@gmail.com)

ORCID 0009-0000-3400-4374

<sup>1</sup>Независимый соискатель Ташкенского Международного университета  
Кимё. Директор ООО INTERAUDIT, Ташкент. Узбекистан

**Аннотация.** Увеличение численности населения мира, рост экономической активности за последние десятилетия, стремительное развитие науки и технологий, а также глобализация приводят к существенным изменениям в экосистеме. В настоящее время мир сталкивается с тревожной ситуацией, обусловленной экологическим дисбалансом. Для обеспечения долгосрочного выживания планеты и её обитателей необходимы целенаправленные усилия, направленные на достижение устойчивого развития.

**Ключевые слова:** Конкурентные преимущества, экологическая система, устойчивое развитие

Увеличение численности населения планеты, активизация экономической деятельности, стремительное развитие научно-технического прогресса и глобализационные процессы последних десятилетий стали причинами масштабных изменений в функционировании экосистем.

Наряду с антропогенным воздействием, на природную среду существенно влияют и неконтролируемые природные процессы—такие как землетрясения, наводнения, цунами, извержения вулканов, лесные пожары, ураганы и другие стихийные бедствия, способные нанести значительный ущерб экологическому равновесию.

Как последствия человеческой деятельности, так и природные катаклизмы приводят к деградации физико-химических и биологических свойств окружающей среды—в частности, атмосферного воздуха, водных ресурсов и почвенного покрова. Эти нарушения негативно отражаются на здоровье людей, состоянии дикой природы и представляют угрозу для сохранности культурного и исторического наследия. Участие Индии в Конвенции о биологическом разнообразии и значение «зелёного аудита» Индия, присоединившаяся к Конвенции ООН о биологическом разнообразии (CBD), подписанной 5 июня 1992 года в Рио-де-Жанейро, в целях реализации положений данного международного соглашения приняла в 2002 году Закон о биологическом разнообразии (Biological Diversity Act, 2002). Указанный нормативный документ был ориентирован на достижение трёх ключевых задач, закреплённых в Конвенции: Сохранение разнообразия живых организмов; Справедливое распределение выгод, возникающих при использовании генетических ресурсов; Устойчивое и рациональное использование компонентов биоразнообразия.

Концептуальные основы экологического (зелёного) аудита Согласно пункту 2(о) данного закона, термин «устойчивое использование» означает такое потребление биологических ресурсов, которое осуществляется с учётом допустимых нагрузок на экосистему, не ведёт к истощению природных богатств и



обеспечивает возможность удовлетворения потребностей как текущего, так и будущих поколений. В основе этого подхода—стремление к экологическому равновесию через рациональное и контролируемое природопользование.

Эффективное устойчивое использование природных компонентов невозможно без систематического мониторинга и экологического аудита. Проведение подобного аудита предполагает предварительное измерение и фиксацию соответствующих параметров, поскольку любая система оценки базируется на регулярной проверке и анализе факторов, способствующих достижению целей в сфере охраны природы. **Понятие «зелёный» (green) в данном контексте ассоциируется с экологической безопасностью и отсутствием вредного воздействия на окружающую среду. В расширенной трактовке данный термин может расшифровываться как «Global Readiness in Ensuring Ecological Neutrality» (Глобальная готовность к обеспечению экологической нейтральности).**

Экологическая бухгалтерия (Green Accounting) представляет собой систематизированный процесс выявления, количественного выражения, учета, подготовки отчетности и анализа экологических факторов, представленных в финансовой или социально-экономической форме.

Экологический аудит, или «зелёный аудит» (Environmental Auditing), охватывает более широкую сферу и подразумевает структурированную проверку влияния деятельности предприятия на окружающую среду. Он охватывает следующие аспекты:

- выбросы загрязняющих веществ в атмосферу, сбросы в водные системы и загрязнение почв;
- соблюдение экологических и природоохранных норм;
- влияние хозяйственной деятельности на природные экосистемы, ландшафт и местное население;
- восприятие компании в глазах местного сообщества.

Следует отметить, что экологический аудит выходит за рамки формального соблюдения законодательства и не сводится к созданию позитивного имиджа компании («зеленому камуфляжу» или *greenwashing*). Согласно позиции Конфедерации британской промышленности (CBI, 1990), зелёный аудит представляет собой целостный и стратегически ориентированный инструмент, охватывающий все направления деятельности организации.

Иными словами, зелёный аудит—это целенаправленный анализ и верификация экологических данных, связанных с деятельностью компании, её объектами или территориями, направленный на определение уровня соответствия принятым экологическим стандартам—как национального, так и международного уровня.



## О ФОРМИРОВАНИИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ АНТИМОНОПОЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Бекзод Умматов<sup>1</sup>

Diplomat University, Ташкент, Узбекистан

<sup>1</sup>Генеральный директор Diplomat University,

Email: bekum82@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0009-3847-2330>

**Аннотация.** Эффективное осуществление антимонопольной политики во многом предопределется наличием целостного комплекса инструментов, применение которых способствует укреплению институционального потенциала как государственных, так и рыночных механизмов регулирования.

**Ключевые слова:** антимонопольная политика; рыночная власть; конкуренция; концентрация производства

На сегодняшний день в научной и правовой литературе существуют разноплановые подходы к вопросу о целесообразности проведения государством антимонопольной политики и её соотнесённости с принципами функционирования свободного рынка. С одной стороны, высказывается мнение, что антимонопольное регулирование, ограничивая свободу экономической деятельности субъектов предпринимательства, в том числе в части распоряжения собственностью, нарушает базовые рыночные принципы и ослабляет мотивацию к развитию. С другой стороны, альтернативная точка зрения предполагает, что государственное вмешательство через антимонопольные инструменты позволяет решать двойственную задачу—обеспечивать добросовестную конкуренцию между хозяйствующими субъектами и одновременно пресекать недобросовестные рыночные практики, основанные на доминирующем положении или злоупотреблении рыночной властью.

Исторически идея необходимости ограничения негативных последствий монопольного положения хозяйствующих субъектов не является новой. Истоки антимонопольного регулирования прослеживаются ещё в ранних правовых источниках. В частности, одним из первых нормативных актов, содержащих упоминание термина «монополия», считается указ императора Восточной Римской империи Зенона от 483 года н.э., в котором категорически запрещалось установление монопольного контроля над производством и реализацией определённых товаров, таких как одежда или рыба: «Мы повелеваем, чтобы ни одно лицо не осмелилось взять под контроль производство или продажу какого-либо предмета одежды, рыбы или иного продовольственного товара» [1, с. 4].

Механизм функционирования рыночной экономики строится на сочетании спонтанного (стихийного) и институционально направленного регулирования. Стихийное регулирование основывается на действии объективных экономических законов, наиболее ярко проявляющихся в условиях конкурентной борьбы. Так, конкуренция внутри отраслей способствует снижению издержек, росту



производительности труда и улучшению качества продукции, а межотраслевая конкуренция обеспечивает перераспределение ресурсов в наиболее перспективные сектора экономики за счёт перетока капиталов.

Однако исторический опыт показывает, что возможности саморегулируемого рыночного механизма не безграничны. Конкуренция, являясь важнейшей предпосылкой рационального распределения ресурсов, при определённых условиях может трансформироваться в свою противоположность—монополию, которая приводит к перераспределению доходов в пользу производителя, снижению объёмов производства и другим деструктивным явлениям. Более того, конкуренция как форма рыночных отношений может перерасти в агрессивные и недобросовестные методы ведения бизнеса, что требует системной правовой коррекции со стороны государства.

Следствием ограниченности рыночных механизмов саморегулирования становится ситуация, при которой рыночная система и заложенные в ней экономические законы оказываются неспособны обеспечить устойчивое повышение уровня общественного благосостояния. Это, в свою очередь, приводит к возникновению социально-экономических перекосов и негативных последствий в различных сферах общественной жизни. Возникает объективная необходимость вмешательства государства в экономические процессы с целью смягчения неблагоприятных эффектов, порождаемых стихийным развитием рыночной среды. Одним из ключевых инструментов такого вмешательства выступает антимонопольное регулирование как составная часть системы государственного управления экономикой.

При сочетании объективных рыночных условий и поведенческих особенностей отдельных участников формируются предпосылки для концентрации рыночной силы у отдельных субъектов, что позволяет им оказывать определяющее влияние на условия обращения товаров. Это воздействие может реализовываться как по отношению к другим участникам рынка—конкурентам, так и по отношению к потребителям. Законодательно закреплённые формы такого поведения, нарушающего принципы добросовестной конкуренции, отражены, в частности, в положениях закона «О защите конкуренции» [2].

С содержательной точки зрения такие действия рассматриваются как формы злоупотребления рыночной властью и превышения пределов допустимого осуществления гражданских прав, направленные на ограничение конкуренции либо ущемление интересов потребителей. Именно подобные действия становятся основанием для применения механизмов антимонопольного воздействия. При этом необходимо подчеркнуть, что размер или масштабы деятельности компании не являются единственным критерием для её включения в сферу антимонопольного регулирования. Применение соответствующих правовых мер обосновано не столько фактической долей на рынке, сколько характером поведения субъекта, если оно приводит к искажению конкурентной среды или основано на использовании недобросовестных практик.

Такие меры могут быть адресованы как доминирующему субъектам, так и участникам, не обладающим существенной рыночной властью, но прибегающим, например, к заключению антиконкурентных соглашений либо использующим методы недобросовестной конкуренции. В этой связи вызывает сомнение подход,



согласно которому содержание антимонопольной политики сводится исключительно к ограничению масштабов производства или сдерживанию экономической активности крупных компаний, обладающих значительной рыночной долей [2].

При анализе рыночной власти компаний принято опираться на два основных теоретико-методологических подхода. Первый из них—структураллистский—исходит из предположения, что высокая степень рыночной концентрации неизбежно ведёт к злоупотреблениям доминирующими положением. С этой точки зрения сама по себе концентрация экономической власти является деструктивной и требует государственного вмешательства. Последствием такого подхода становится необходимость демонополизации экономики путём дробления крупных корпоративных структур. Однако на практике подобные меры применяются крайне редко. Так, в Соединённых Штатах Америки за весь период с 1905 по 1970 год было реализовано лишь 32 случая принудительного разделения компаний, и в последние десятилетия этот механизм практически утратил своё значение вследствие значительных экономических и правовых издержек, связанных с его реализацией [4, с. 71].

В противоположность структурализму бихевиористский подход не отождествляет наличие высокой концентрации на рынке с обладанием рыночной властью. Основу этого подхода составляет концепция «разумного анализа» (rule of reason), согласно которой недопустимой считается не сама рыночная доля субъекта, а поведение, основанное на недобросовестном использовании монопольного положения. Соответственно, внимание антимонопольного органа сосредотачивается на фактических действиях участников рынка, а не на формальных показателях структуры отрасли.

Современная антимонопольная практика демонстрирует необходимость интеграции структурного и поведенческого подходов в целях повышения эффективности регулирования. Такой синтез предполагает дифференцированное регулирование отраслей экономики. Так, в секторах, обладающих высоким экспортным потенциалом и способных конкурировать на глобальном уровне, допускается временное ослабление ограничений на концентрацию, стимулируются научно-технические альянсы и экспортные соглашения. При этом государство жёстко контролирует деятельность таких объединений на внутреннем рынке, предотвращая злоупотребление положением и ограничение доступа для новых участников. В то же время в отраслях, защищённых от внешней конкуренции, продолжают действовать традиционные меры антимонопольного контроля, в том числе усиленный надзор за процессами слияний и поглощений [4, с. 74].

Указанные подходы позволяют критически осмыслить точку зрения, согласно которой свободный рынок и антимонопольное законодательство якобы исключают друг друга. На практике между ними прослеживается функциональная взаимосвязь: эффективное антимонопольное регулирование обеспечивает реализацию рыночных принципов и способствует формированию справедливых условий конкуренции [5, с. 33–48].

Антимонопольная политика современного государства представляет собой комплекс правовых, организационных и экономических мер, направленных на предупреждение и устранение проявлений недобросовестной конкуренции,



злоупотребления доминирующим положением и иных форм рыночной деструкции. Однако подобное определение отражает лишь узкий, инструментальный аспект антимонопольного регулирования и требует расширенного понимания в контексте социально-экономической миссии государства.

### Литература

1. Авдашева С., Шаститко А. Промышленная и конкурентная политика: проблемы взаимодействия и уроки для России // Вопросы экономики. 2003 № 9, С.18.
2. Закон Республики Узбекистан О конкуренции, от 03.07.2023 г. № ЗРУ-850.
3. Кизилов В.В., Новиков В.В. К вопросу о необходимости отмены антимонопольного законодательства // Закон. 2008. № 2.
4. Государственное регулирование экономики: мировой опыт и реформа в России / Отв. ред. Ю.Ф. Воробьев. М., 1996.
5. Новиков В. О праве собственности на внешние эффекты // Вопросы экономики. 2004. № 1.



## AUTSORSING XIZMATLARINI TURLARI HAMDA USHBU XIZMATNING AFZALLIKLARI

Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o‘g‘li  
mustaqil izlanuvchi.  
[mirxonovmirfoziljon@gmail.com](mailto:mirxonovmirfoziljon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xizmatlar sohasini rivojlantirishda autsorsingning xizmatlarinng turlari hamda ushbu xizmat turini rivojlantirishning mamlakat rivojiga ta’sirini takomillashtirishning nazariy va uslubiy asoslari chuqur o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** xizmat, milliy iqtisodiyot, modernizatsiya, diversifikatsiya, autsorsing xizmatlari, qaror qabul qilish.

**Аннотация:** В статье углубленно исследуются виды аутсорсинга услуг в развитии сферы услуг и теоретико-методологические основы повышения влияния развития данного вида услуг на развитие страны.

**Ключевые слова:** услуга, национальная экономика, модернизация, диверсификация, аутсорсинг услуг, принятие решений.

**Abstract:** The article provides an in-depth study of the types of outsourcing of services in the development of the service sector and the theoretical and methodological foundations for increasing the impact of the development of this type of service on the development of the country.

**Key words:** service, national economy, modernization, diversification, outsourcing of services, decision making.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi sifatida vujudga kelayotgan yangi iqtisodiy munosabatlar xizmat ko‘rsatish sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi. Milliy iqtisodiyotni jadal sur’atlar bilan rivojlantirayotgan, aholi turmush darajasi xamda sifatini yaxshilashda yuqori samara berayotgan ushbu soha ijtimoiy va xalqaro mehnat taqsimotining, iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yuqori sur’atlarda rivojlantirishni ta’minlamoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan isloh qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashga qaratilgan islohotlar natijasida milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Jumladan, xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish<sup>3</sup> ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifalardan kelib chiqib autsorsing xizmatlari ko‘rsatish sohasini isloh qilish, xodimlar malakasini oshirish hamda autsorsing xizmatlari ko‘rsatish sohasida erkin raqobat muhitini shakllantirishni talab qiladi.

Июль | 2025, 1-кисм

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi» – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)



Bugungi kunda butun dunyoda innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Mamlakatning innovatsion rivojlanishi zamonaviy jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi turmush darajasining ko'tarilishi, ishdan bo'sh vaqtining ortishi ham innovatsiyalarga bog'liq bo'lmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, xizmatlar sohasini rivojlantirishda autsorsing xizmatlarining o'mi juda muhim bo'lib, u sohaning samaradorligi, sifat ko'rsatkichlari va raqobatbardoshligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Autsorsing xizmatlari deganda tashkilotning o'z asosiy faoliyatiga tegishli bo'lмаган vazifalarni yoki biznes-jarayonlarni tashqi manbalarga, ya'ni boshqa kompaniyalarga topshirishi tushuniladi. Bu tashqi kompaniyalar ushbu vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslar, tajriba va texnologiyalarga ega bo'lismaydi.

### Autsorsing xizmatlarining asosiy turlari:

- Axborot texnologiyalari autsorsingi (IT autsorsing):** Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, texnik qo'llab-quvvatlash, ma'lumotlar markazlarini boshqarish, tarmoq xavfsizligini ta'minlash va boshqa IT-ga oid vazifalar.
- Biznes-jarayonlar autsorsingi (BPO):** Buxgalteriya hisobi, kadrlar boshqaruvi, mijozlarga xizmat ko'rsatish, marketing, logistika va boshqa biznes-jarayonlar.
- Ishlab chiqarish autsorsingi:** Mahsulotlarni ishlab chiqarish, yig'ish, qadoqlash va boshqa ishlab chiqarishga oid vazifalar.
- Bilimlar autsorsingi (KPO):** Tadqiqot va ishlanmalar, analitik xizmatlar, konsalting va boshqa bilimga asoslangan vazifalar.
- Infratuzilma autsorsingi:** Bino va inshootlarni texnik xizmat ko'rsatish, energiya ta'minoti, xavfsizlik va boshqa infratuzilmaga oid vazifalar.

### Autsorsingning afzallikkлari:

- Xarajatlarni kamaytirish:** Autsorsing ko'pincha ichki resurslarga qaraganda arzonroq bo'lishi mumkin, ayniqsa, mehnat xarajatlari past bo'lgan mamlakatlarda.
- Asosiy faoliyatga e'tiborni qaratish:** Autsorsing kompaniyaga o'z asosiy faoliyatiga e'tiborni qaratishga va resurslarni strategik muhim yo'nalishlarga yo'naltirishga imkon beradi.
- Tajriba va texnologiyalardan foydalanish:** Autsorsing kompaniyaga o'z sohasida yetakchi bo'lgan tashqi provayderlarning tajribasi va texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini beradi.
- Moslashuvchanlik:** Autsorsing kompaniyaga talab o'zgarishiga tez moslashishga va resurslarni kerak bo'lganda kengaytirish yoki qisqartirishga imkon beradi.
- Riskni kamaytirish:** Autsorsing tashqi provayderga ma'lum bir vazifani bajarish bilan bog'liq risklarni o'tkazishga imkon beradi.

Autsorsing xizmatlaridan foydalanish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin,



kompaniya barcha afzalliklari va kamchiliklarini diqqat bilan tahlil qilishi va o‘z ehtiyojlariga eng mos keladigan autsorsing strategiyasini ishlab chiqishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoev tamonidan qabul qilingan «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi».—www.lex.uz
2. E.S.Fayziyev. Servis tizimi faoliyati asoslari. Ma’ruzalar matni. Samarqand,2007. 11-bet.
3. Dal V.I. Tolkoviy slovar velikorusskogo yazka. 2-ye izd. M., 1882. T. IV. S.512.
4. Ojegov S.I. i. Dr. Gramaticheskiy slovar russkogo yazka.—M.: Russkiy yazk. 1991. -432str.
5. Kotler F. Osnov marketinga. M. Progress. 1992.-734s.
6. Makkonnell K.R., Bryu S.L., Ekonomiks-Prinsip, problem i politika. /V 2 –x tomax. Per.s ang.—Tallin. Rimol. 1993.T.: 1.-398s.
7. Rayzberg,B.A. (2007) Sovremenny ekonomicheskiy slovar. 5–yeizd., pererab. I dop./B.A.Rayzberg,L.Sh.Lozovskiy,Ye.B.Starodubseva.—M.:INFRA–M.,—495 s.
8. Ivlev, A. (2021) 10 klyuchevx voprosov autsorsinga / Ivlev A.—Rejimdostupa:[https://up-pro.ru/library/strategi/outsourcing/10\\_key\\_quest/](https://up-pro.ru/library/strategi/outsourcing/10_key_quest/) (data obraшyeniya: 30.11.2021 g.)



## SANOAT TARMOG'I IQTISODIY SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mirzaeva Intizor Ergashevna

InFinBank AJ Bosh ofisi Yakuniy nazorat inspektori  
(Xorazm viloyati filiali bo'yicha), Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch Davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligining ahamiyati, mavjud imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, asosiy ustuvorliklari va ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Sanoat, samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, omil, samara.

Sanoat tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini bo'lib hisoblanadi. Mazkur tarmoqning holati bilan makroiqtisodiy rivojlanishga baho beriladi. Bu borada mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishiga baho berishda sanoatlashgunga qadar, sanoatlashgan va sanoatlashgandan keyingi bosqich tarzida tavsiflash qo'llaniladi. Shunday ekan, sanoat tarmog'i holati, uni rivojlantirish istiqbollari har bir jamiyat uchun muhim masala bo'lib hisoblanadi. Sanoat tarmog'i boshqa sohalarga nisbatan ishlab chiqarish omillaridan maqbul va oqilona foydalanish bo'yicha ustunlikka ega bo'ladi. Bu esa sanoatni rivojlantirish va uning barqaror darajasini ta'minlashga e'tibor qaratishni talab qiladi. Shunday bo'lsa-da, sanoatni rivojlantirishda mintaqaning mavjud resurslar salohiyati ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, ushbu omillar sanoatni hududiy xususiyati va ustuvor yo'nalishini belgilashda asos bo'lib hisoblanadi. Shu bois, sanoatda resurslardan foydalanish darajasini, uning hududiy xususiyatlarini o'rghanish talab etiladi. Ya'ni, sanoat orqali butun mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishini ta'minlashda samaradorlik mezoniga alohida e'tibor qaratish zarur.

Samaradorlik masalasi, uning sanoat tarmog'idagi o'ziga xos jihatlari ko'plab tadqiqotlarda o'r ganilgan. Shunday bo'lsa-da, olimlar tomonidan mazkur tushunchalar uchun mukammal ta'rif berilmagan. Balki, olimlar tadqiqotlarida o'z yo'nalishi va mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqib mazkur tushunchaga ta'rif berishgan. Shu bois, ushbu tadqiqotlarni o'r ganib, mualliflik yondashuvni ishlab chiqish kerak. Jumladan, B.Baxtiyorov fikricha, "samara" lotincha "effectus" so'zidan olingan bo'lib, har qanday xatti-harakatning yakuniy natijasi bo'lib hisoblanadi. Samaradorlik esa iqtisodiy kategoriya sifatida ko'zlangan maqsadlarga erishishning nisbiy ko'rsatkichlarini tavsiflaydi [1]. Boshqa bir mualliflar fikricha, samaradorlik so'zi ko'p uchraydigan umumiyl tushunchalardan biri sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sohalarida keng ishlatiladi. Masalan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat samaradorligi, o'qish va o'qitish samaradorligi, davolash va davolanish samaradorligi, qabul qilingan qonun va qoidalar hamda yechimlarning samaradorligi va hokazolar. Samaradorlik foydalilik va natijalilikni ifoda etadi. Bu borada ma'lum bir natija olish uchun mehnat qilish, ishslash, mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish va ma'lum miqdorda xarajat qilish kerak. Samaradorlikni aniqlash uchun natijani ushbu natijaga erishishga sarflangan xarajatlar yoki resurslar bilan taqqoslash kerak. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natjalari bilan ularga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy va



moliyaviy resurslarning o‘zaro nisbatidir. Iqtisodiy samara esa ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdoorligini oshirish, milliy daromadni ko‘paytirish yoki boshlang‘ich va joriy xarajatlarni kamaytirishni anglatadi. Ijtimoiy samara aholi farovonligini oshirish, ta’lim darajasini o‘stirish, bo‘sh vaqtni ko‘paytirish va boshqalarda namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, boshqa bir tadqiqotlarda samaradorlik masalasiga umumnazarij jihatdan to‘xtalib o‘tilgan. Unda muallif asosiy e’tiborni samaradorlik jamiyat maqsadi ekanligini yoritib o‘tgan. Ya’ni, muallif fikricha, samaradorlik tadbirkorlik sub’ekti faoliyatining tabiiy, tashkiliy, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar o‘zaro ta’sirini aks ettiruvchi murakkab iqtisodiy kategoriyanı aks ettiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim faoliyatining umumiyligi maqsadga erishish darajasi bilan belgilanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirishning maqsadi milliy iqtisodiyot va uning alohida tarmoqlari, jumladan, qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligini oshirish orqali jamiyatning o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishni anglatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning umumiyligi maqsad ularning kengaytirilgan asosda takror ishlab chiqarishidir. Bu umumiyligi maqsad iqtisodiy manfaatlar tizimini aks ettiruvchi maqsadlar tizimida aniqlanadi va namoyon bo‘ladi [2].

Shuningdek, bir guruh tadqiqotchilar sanoat samaradorligi bilan bog‘liq izlanishlarni amalga oshirganlar. Jumladan, ba’zi tadqiqotlarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligi tarmoq resurslari va ularning ishlab chiqarish jarayonida aniq maqsadlarga erishish uchun zaruriy natijalarga aylanish qobiliyatiga bog‘liq [3]. Shuningdek, boshqa manbalarda iqtisodiy samaradorlik - o‘zgaruvchan va noaniqlik sharoitida raqobatbardosh va barqaror rivojlanishni ta’minlashda ishlatiladigan resurslarning mavjudligi va ulardan samarali foydalanish salohiyati bo‘lib hisoblanadi [4]. Boshqa bir manbada ta’kidlanishicha, iqtisodiy samaradorlikka erishish negizida mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarish samaradorligiga erishish yotadi [5]. Shuningdek, yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish asosida mavjud resurslardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarish samaradorligiga erishish yotadi. Jumladan, texnologik va iqtisodiy omillar ta’siri darajalarini tahlil qilish, ularning ta’sirini modellashtirish va sanoat korxonalari daromadini samarali boshqarish strategiyasini amalga oshirish hamda xarajatlarni qisqartirish orqali intensiv rivojlanishni ta’minlash lozim. Bu borada sanoat samaradorligi nisbatan keng tarzda tavsiflangan bo‘lsa-da, uning mezonlarini ifodalashda ba’zi bir muammolar mavjud. Chunki, samaradorlik zamirida olingan natijani sarflangan resursga nisbati bilan o‘lchanadigan indikatorlarni kiritish maqsadga muvofiq. Shunday bo‘lsa-da, ushbu tushuncha va uning sanoat tarmog‘iga xos xususiyatiga oid ta’rif atroflicha bayon qilingan.

Shuningdek, boshqa bir manbalarda mintaqqa va sanoat samaradorligi, ularni oshirish masalasi tadqiq qilingan. Jumladan, muallif fikricha har bir hududning jadal rivojlanishi milliy iqtisodiyot barqarorligining sharti va uning samaradorligini oshirish omili bo‘lib hisoblanadi. Hudud va uning tarmoqlari ijtimoiy-iqtisodiy holati, samaradorlik jihatlari hududiy mehnat taqsimoti, tabiiy va mehnat sharoitlari, ilmiy-texnik salohiyat kabi mintaqaviy xususiyatlar bilan belgilanadi [6]. Demak, hududlar va ularning sanoat samaradorligini oshirish birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va ularning natijadorligini monitoring qilishga bevosita bog‘liq. Bu usullar mintaqqa va uning sanoat samaradorligining natijasi unga bog‘liq omillar o‘zgarishini tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi.

Bir guruh olimlar tadqiqotlarida mintaqqa sanoatining samaradorligi ekotizim



asosida talqin etilgan. Ya’ni, ular tadqiqotlarida resursli tavsifga alohida e’tibor berilgan. Mualliflar fikricha, mintaqaviy sanoat ekotizim samaradorligi hududning raqobatbardosh ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va qo’llab-quvvatlash, sanoat faoliyati samaradorligini ta’minalash, infratuzilma va inson resurslarini rivojlantirish, resursslarni maqbul taqsimlash orqali innovatsiyalarni yaratish hamda mintaqada sanoat rivojlanishining yuqori natijalariga erishish uchun manfaatdor tomonlar o’zaro hamkorligini yaxshilash qobiliyatini tavsiflaydi.

Shu bilan birga, uzoq xorij tadqiqotlarida mintaqqa sanoatining samaradorligi ekologiya, institutsional jihatlar, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar va boshqarish jihatlariga muvofiq tavsiflangan. Jumladan, bir guruh olimlar mintaqqa sanoati samaradorligini ekotizim hisobiga shakllanuvchi mezon sifatida talqin qilib, ular asosiy e’tiborni resurs tejamkorlikka qaratishadi. Bu boradagi tadqiqotlarda sanoat samaradorligi to‘g’ridan to‘g’ri raqamli texnologiyalar asosida tavsiflangan. Ular tadqiqotlarida sanoat samaradorligi ekologiya, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqaruvin nuqtai nazaridan o’rganilgan. Shuningdek, boshqa tadqiqotlarda sanoat samaradorligi sifatida sun’iy intellekt asosida innovatsiyalarni tatbiq qilish orqali biznes modellari hisobiga global ishlab chiqarish ko’lamini rivojlantirish masalasi ilgari surilgan [7]. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar, xususan, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar bazasi bilan bog‘liq holdagi sanoat samaradorligini tavsifi boshqa tadqiqotlarda o‘z aksini topgan.

Fikrimizcha, ushbu ilgari surilayotgan sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalarning sanoatga tatbiqi asosan inson mehnati sarfini kamaytirish hisobiga samaradorlik ortishini ta’minalaydi. Ammo, ushbu yo‘nalishdagi ishlab chiqarish yirik kapital talab qilishi bilan investitsiya omili samaradorligiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Chunki, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt rivojlanishi jamiyatda boshqa sohalarga nisbatan tez o‘zgaruvchanligi hamda yuqori mablag‘ talab qilishi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, uzoq xorij olimlarining tadqiqotlarida mintaqqa sanoat samaradorligini institutsional jihatlar bilan bog‘liqligi asosida tavsiflagan ishlar ajralib turadi. Ushbu tadqiqotlarda asosiy e’tibor mintaqqa sanoatida institutsional jihatlarining rivojlanishi samaradorlik manbai sifatida talqin etilgan. Shu bilan birga, infratuzilma va intellektual salohiyat rivojlanishi hisobiga sanoat samaradorligining ijobiy o‘zgarishlari bog‘liqligini ochib bergen izlanishlar ham mavjud. Jumladan, mintaqqa sanoat samaradorligini oshirishda ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish muhim manba sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, bir guruh izlanishlarda sanoat samaradorligi boshqarish, resurslar o’zaro muvofiqligini ta’minalash, ilg‘or texnologiyalar, sanoat 4.0 modelini joriy qilish nuqtai nazaridan o’rganilgan. Boshqa bir manbalarda sanoat samaradorligini mehnat omili natijalari, ya’ni mehnat samaradorligi orqali tadqiq qilingan. Jumladan, barcha moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish asosida yuqori mehnat natijalariga erishish mehnat samaradorligini oshirishning bosh mezoni bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytsak, samaradorlik nisbiy tushuncha bo‘lsa-da, uning zamirida olingan natijani ushbu natija uchun qilingan xarajatga nisbati orqali tavsiflash yetarli emas. Balki, uning zamirida ijtimoiy natijalarni ham hisobga olish zarur. Ya’ni, sanoat ishlab chiqarishi samaradorligining iqtisodiy mezonlari ijobiy jihatdan o‘zgarsada, ular hisobiga atrof-muhitga chiqindilarni ko‘payishi salbiy tendensiya bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, samaradorlik o‘sishi bilan korxona ishchi-xodimlarining daromadi ortishi muhim masala bo‘lib sanaladi. Bir so‘z bilan aytganda, sanoat samaradorligi iqtisodiy mezonlar ijobiy o‘zgarishi hamda ijtimoiy va ekologik mezonlardagi ijobiy o‘zgarishlarni



ta'minlashi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Baxtiyorov B.B. Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari. // Iqtisod va moliya, 2021, 10(146). - 13-22 b.
2. Успаева М.Г. Показатели и критерии эффективности сельскохозяйственного производства. // Вестник университета, 2013, №4. - С. 236-242.
3. Бартова Е.В., Аферова Т.В. Анализ влияния производственного потенциала на эффективность деятельности промышленных предприятий. // Российское предпринимательство, №13, 2012. - 2 с.
4. Аристархов П.В. Разработка элементов механизма управления экономическим потенциалом промышленного предприятия в условиях модернизации. Дисс. экон. наук. канд.-Челябинск, 2012.- 87 с.
5. Kasimov A.A. Sanoat tarmog'ining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni yanada oshirish yo'nalishlari. // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali, 2024, 4(03). - 23-33 b.
6. Шелобаева И.С. Экономико-статистический анализ валового регионального продукта Тульской области. // Известия Тульского государственного университета, Экономические и юридические науки, 2018. - С. 28-35.
7. Burström T., Parida V., Lahti T., Wincent J. (2021). AI-Enabled Business-Model Innovation and Transformation in Industrial Ecosystems: A Framework, Model and Outline for Further Research. Journal of Business Research, 127. - p. 85-95.



## NARX STATISTIKASI MA'LUMOTLARI ASOSIDA MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Mingboev Asqar Qandaharovich

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish  
va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi,  
mustaqil tadqiqotchi (PhD)  
ORCID: 0009-0008-2655-8404

**ANNOTATSIYA:** Maqolada narx statistikasi ma'lumotlari asosida monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholash xususiyatlari o'r ganilgan. Monopoliya tarmoqlarida narxlar va tartibga solish samaradorligi tahlili amalga oshirilgan. Narx statistikasi ma'lumotlari asosida monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini oshirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalitli so'zlar:** narx statistikasi, monopoliya, davlat, mexanizm, institutlar, raqobat muhiti, innovatsiyalar, xalqaro reytinglar, iqtisodiy modellashtirish, ekonometrik usullar, texnik samaradorlik darajasi.

**Оценка эффективности антимонопольного регулирования на основе данных статистики цен**

**АННОТАЦИЯ:** В статье изучены особенности оценки эффективности антимонопольного регулирования на основе данных статистики цен. Проведен анализ цен и эффективности регулирования в монопольных отраслях. Разработаны выводы и предложения на основе данных статистики цен по повышению эффективности антимонопольного регулирования.

**Ключевые слова:** статистика цен, монополия, государство, механизм, институты, конкурентная среда, инновации, международные рейтинги, экономическое моделирование, эконометрические методы, уровень технической эффективности.

**Assessment of the effectiveness of antimonopoly regulation based on price statistics data**

**ABSTRACT:** The article examines the features of assessing the effectiveness of antimonopoly regulation based on price statistics data. An analysis of prices and the effectiveness of regulation in monopoly industries was conducted. Conclusions and proposals were developed based on price statistics data to improve the effectiveness of antimonopoly regulation.

**Keywords:** price statistics, monopoly, state, mechanism, institutions, competitive environment, innovation, international rankings, economic modeling, econometric methods, level of technical efficiency.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 67-moddasi to'rtinchi bandida "Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi" deb belgilab qo'yilgan.<sup>4</sup>

Konstitutsiyaga ushbu normalarning kiritilishi raqobatni rivojlantirishga, ishlab chiqarishga yangiliklarni tezkor joriy etish orqali samaradorligini ortishiga,

**Июль | 2025, 1-кисм**

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.



iste'molchilarning tanlash erkinligini kafolatli ta'minlashga, tovar va xizmatlar narxini asossiz oshmasligini hamda ularning yuqori sifatda bo'lishiga xizmat qiladi.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini baholash zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotda murakkab va ko'p qirrali masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida monopoliya tarmoqlarini tartibga solish tizimining shakllanishi va rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Narx statistikasi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladigan baholash monopoliyaga qarshi siyosatning real natijalarini aniqlash, mavjud kamchiliklar va muammolarni belgilash hamda kelajakdagi islohotlar yo'nalishlarini ishlab chiqish uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Monopoliyaga qarshi tartibga solishning samaradorligini baholashda turli xil metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Klassik iqtisodiy nazariyaga ko'ra, monopoliya holatida bozor muvozanati optimal emas, chunki monopolist narxni marjinal xarajatlardan yuqori darajada belgilaydi va ishlab chiqarish hajmini optimal darajadan past tutadi. Shu sababli, davlat tomonidan amalga oshiriladigan tartibga solish choralarining asosiy maqsadi bozor samaradorligini oshirish va iste'molchilar farovonligini himoya qilishdir.

O'zbekistonda monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimining rivojlanishi bir necha bosqichlardan o'tdi. Dastlabki bosqichda (1991-2000-yillar) asosan administrativ nazorat usullari qo'llanilgan. Ikkinci bosqichda (2001-2016-yillar) bozor mexanizmlarini hisobga olgan tartibga solish usullari bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi. Uchinchi bosqichda (2017-hozirgi vaqt) keng ko'lamli liberalizatsiya va zamonaviy tartibga solish mexanizmlarini joriy etish amalga oshirilmoqda.<sup>5</sup>

Narx statistikasi ma'lumotlari asosida monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholashda bir necha asosiy ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Birinchidan, narxlar dinamikasining tahlili orqali tartibga solish choralarining narx darajasiga ta'siri o'rganiladi. Ikkinchidan, tarmoqlar o'rtaidagi narx farqlarining tahlili monopoliya darajasini baholash imkonini beradi. Uchinchidan, narxlar va xarajatlar o'rtaidagi nisbatni tahlil qilish orqali monopoliya rentasining darajasi aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, monopoliya tarmoqlarida narxlarning o'zgarishi va ularni tartibga solish choralarining samaradorligi o'rtaida bevosita bog'liqlik mavjud. Elektr energiyasi sohasida 2017-yildan boshlab amalga oshirilgan tarif islohotlari natijasida narxlar bosqichma-bosqich oshirildi, ammo bu o'sish sur'ati inflyatsiya darajasidan sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Bu holat tartibga solish mexanizmlarining to'liq samaradorligini ta'minlay olmayotganligidan dalolat beradi.<sup>6</sup>

Elektr energiyasi sohasida monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholash uchun Lerner indeksi, Herfindahl-Hirschman indeksi va boshqa raqobat darajasini o'lchash ko'rsatkichlaridan foydalilanadi. 2020-2024-yillar davomida elektr energiyasi sohasida Lerner indeksi 0.65-0.75 oralig'ida bo'lган, bu monopoliya holatining yuqori darjasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tartibga solish choralarining joriy etilishi natijasida bu ko'rsatkich sekin-asta kamayish tendensiyasini namoyon etmoqda.

### Июль | 2025, 1-кисм

<sup>5</sup> Каримов, А.Б. (2023). Эффективность антимонопольного регулирования в Узбекистане: статистический анализ. Экономический анализ и прогнозирование, 18(4), 67-84.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. (2024). Elektr energiyasi sohasida tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi. Toshkent.



Tabiiy gaz sohasida monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligi ham narx statistikasi ma'lumotlari orqali baholanishi mumkin. "O'zbekneftegaz" milliy holding kompaniyasining faoliyati davlat tomonidan to'liq tartibga solinadi va gaz narxlari asosan ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda belgilanadi. 2020-2024-yillar davomida tabiiy gaz narxlarning o'sish sur'ati yillik 8-12% ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich iqtisodiy asoslangan darajadan past hisoblanadi.<sup>7</sup>

Transport sohasida monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholash yanada murakkab masala hisoblanadi. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ monopolist vaziyatga ega bo'lib, uning tariflari davlat tomonidan belgilanadi. Biroq, temir yo'l transporti bilan avtomobil va havo transporti o'rtaisdagi raqobat mavjudligi tartibga solish samaradorligini oshirishga yordam beradi. 2020-2024 yillar davomida temir yo'l transporti tariflarining o'sish sur'ati yillik 5-8% ni tashkil etdi.

### 1-jadval.

#### **Monopoliya tarmoqlarida narxlari va tartibga solish samaradorligi ko'rsatkichlari (2020-2024-yillar)<sup>8</sup>**

Tarmoq	Yillik o'rtacha narx o'sishi (%)	Lerner indeksi	Rentabellik darajasi (%)	Samaradorlik bahosi
Elektr energiyasi	12.5	0.68	15.2	O'rtacha
Tabiiy gaz	10.3	0.72	12.8	Past
Temir yo'l transporti	6.8	0.45	8.5	Yaxshi
Suv ta'minoti	18.2	0.78	22.3	Past
Telekommunikatsiya	2.1	0.35	18.7	Yaxshi

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, suv ta'minoti sohasida monopoliyaga qarshi tartibga solish eng kam samarali bo'lib, telekommunikatsiya va temir yo'l transporti sohalarida esa nisbatan yaxshi natijalar kuzatilmoqda.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholashda iste'molchilar farovonligining o'zgarishi ham muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Iste'molchilar hajmi (Consumer Surplus) va umumiyl iqtisodiy farovonlik (Total Welfare) ko'rsatkichlarining dinamikasi tartibga solish choralarining samaradorligini baholashda qo'llaniladi. O'zbekistonda monopoliya tarmoqlarida iste'molchilar farovonligining o'zgarishini hisoblash uchun kompensatsion va ekvivalent variatsiya usullari qo'llaniladi.<sup>9</sup>

2020-2024-yillar davomida elektr energiyasi sohasida iste'molchilar farovonligi yillik 3-5% ga kamaygan, bu asosan narxlarning sezilarli o'sishi bilan bog'liq. Tabiiy gaz sohasida iste'molchilar farovonligining kamayishi yanada katta bo'lib, yillik 6-8% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya sohasida raqobat muhitining rivojlanishi natijasida iste'molchilar farovonligi yillik 2-4% ga oshgan.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholashda ishlab chiqarish

#### Июль | 2025, 1-қисм

<sup>7</sup> "O'zbekneftegaz" MXK. (2024). Tabiiy gaz narxlari va tartibga solish siyosati hisoboti. Toshkent.


<sup>8</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi tegishli vazirlik va idoralarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

<sup>9</sup> Abdullayev, R.K. (2023). Consumer welfare analysis in regulated industries: Evidence from Uzbekistan. Central Asian Economic Studies, 12(3), 45-62.



samaradorligi ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. X-samaradorlik (X-efficiency) kontseptsiyasi asosida monopoliya korxonalarining ichki samaradorligi baholanadi. O'zbekistondagi monopoliya korxonalarida X-samaradorlik darajasi odatda raqobatbardosh sohalardagi korxonalarlardan 15-25% ga past ekanligi aniqlangan.

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadi, monopoliya tarmoqlarida samaradorlik ko'rsatkichlari va iste'molchilar farovonligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud bo'lib, eng past samaradorlik darajasi suv ta'minoti sohasida (texnik samaradorlik 59.8%, allokativ samaradorlik 32.1%) qayd etilmoqda, bu esa iste'molchilar hajmining 8.7% ga kamayishiga olib kelgan. Aksincha, telekommunikatsiya sohasida yuqori texnik (88.9%) va allokativ (85.4%) samaradorlik ko'rsatkichlari raqobat muhitining shakllanishi natijasida iste'molchilar farovonligining 3.2% ga oshishini ta'minlagan, bu esa monopoliyaga qarshi tartibga solish siyosatining muvaffaqiyatli amalga oshirilganligidan dalolat beradi.



**1-rasm. Monopoliya tarmoqlarida samaradorlik ko'rsatkichlari va iste'molchilar farovonligi tahlili (2020-2024-yillar)<sup>10</sup>**

Narxlarni belgilash mexanizmlarining samaradorligi ham alohida tahlilni talab qiladi. O'zbekistonda asosan "xarajatlar plus foyda" (Cost-plus) usuli qo'llaniladi, bu usul monopolist korxonalarga xarajatlarni kamaytirish uchun stimul bermaydi. Rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladigan "narx tavan" (Price Cap) va "daromadlarni tartibga solish" (Revenue Regulation) kabi zamonaviy usullar O'zbekistonda hali to'liq joriy etilmagan.<sup>11</sup>

Raqobat darajasini oshirish monopoliyaga qarshi tartibga solishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Telekommunikatsiya sohasida amalga oshirilgan liberalizatsiya choralari natijasida raqobat darajasi sezilarli oshdi. 2020-yilda ushbu sohada 3 ta yirik Июль | 2025, 1-кисм

<sup>10</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi tegishli vazirlig va idoralarining ma'lumotlari hamda muallif tomonidan amalga oshirilgan ekonometrik hisob-kitoblar asosida tuzilgan

<sup>11</sup> Петров, В.И., Иванов, С.А. (2024). Современные методы ценового регулирования естественных монополий.



## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

operator faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 7 ta operator bozorda raqobat qilmoqda. Bu holat narxlarning kamayishi va xizmat sifatining yaxshilanishiga olib keldi.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholashda xalqaro standartlar va ko'rsatkichlar bilan taqqoslash ham muhim. Juhon banki, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar O'zbekiston sharoitlariga moslashtirib qo'llanilmoqda. Regulatory Quality Index, Competition Policy Index va boshqa xalqaro reytinglar bo'yicha O'zbekiston 180 mamlakat ichida 85-95 o'rinnarni egallaydi.<sup>12</sup>

### 2-jadval.

#### Monopoliya tarmoqlarida tartibga solish usullari va ularning samaradorligi<sup>13</sup>

Tartibga solish usuli	Qo'llaniladigan sohalar	Samaradorlik darajasi (%)	Afzalliklari	Kamchiliklari
Xarajatlar plus foyda	Elektr, gaz, suv	45-55	Sodda qo'llash	Kam stimul
Narx tavan	Telekommunikatsiya	65-75	Yuqori stimul	Murakkablik
Daromadni tartibga solish	Transport	55-65	Moslashuvchanlik	Ma'lumot talabi
Benchmark raqobat	Elektr (qisman)	60-70	Raqobat taqlidi	Solishtirish qiyinligi
Ijtimoiy tartibga solish	Gaz (qisman)	35-45	Ijtimoiy himoya	Iqtisodiy nosamaradorlik

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, "narx tavan" usuli eng yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda, "ijtimoiy tartibga solish" esa eng kam samarali hisoblanadi. Monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholashda dinamik samaradorlik (Dynamic Efficiency) ham muhim o'rinn tutadi. Bu ko'rsatkich innovatsiyalar va investitsiyalarni rag'batlantirish darajasini aks ettiradi. O'zbekistondagi monopoliya korxonalarida tadqiqot va ishlanmalar (T&I) xarajatlari yalpi daromadning 0.5-1.5% ini tashkil etadi, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi 3-5% dan sezilarli darajada past.<sup>14</sup>

Investitsiyalar samaradorligi ham monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. 2020-2024-yillar davomida monopoliya tarmoqlarida investitsiyalar hajmi yillik 15-20% ga oshgan, ammo investitsiyalar samaradorligi past darajada qolmoqda. Investitsiya loyihalarining amalga oshirilish muddatlari

**Июль | 2025, 1-қисм**

<sup>12</sup> World Bank. (2024). Regulatory Quality and Competition Policy: Uzbekistan Country Report. Washington DC: World Bank Publications.

<sup>13</sup> Manba: O'zbekiston Respublikasi tegishli idoralarining ma'lumotlari va xalqaro tajriba asosida muallif tomonidan tuzilgan

<sup>14</sup> OECD. (2023). Competition Policy and Economic Development in Transition Economies. Paris: OECD Publishing.



rejalashtirilgan darajadan 30-40% ga oshiq, bu esa tartibga solish tizimidagi kamchiliklardan dalolat beradi.

Xizmat sifatining o'zgarishi monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. O'zbekistonda monopoliya tarmoqlarida xizmat sifatini baholash uchun turli xil indikatorlar qo'llaniladi. Elektr energiyasi sohasida SAIDI (System Average Interruption Duration Index) va SAIFI (System Average Interruption Frequency Index) ko'rsatkichlari qo'llaniladi. 2020-2024-yillar davomida bu ko'rsatkichlar sekin yaxshilanish tendensiyasini ko'rsatdi.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholashda iqtisodiy modellashtirishdan ham keng foydalaniladi. Cobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi, CES (Constant Elasticity of Substitution) modeli va boshqa ekonometrik usullar yordamida monopoliya tarmoqlarining samaradorligi baholanadi. Stoxastik chegara tahlili (Stochastic Frontier Analysis) usuli yordamida texnik samaradorlik darajasi aniqlanadi.<sup>15</sup>

2020-2024 yillar davomida O'zbekistondagi monopoliya korxonalarining o'rtacha texnik samaradorligi 68-72% ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi 85-90% dan sezilarli darajada past. Bu holat monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimini takomillashtirish zarurligi haqida guvohlik beradi.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini baholashda makroiqtisodiy ta'sirlar ham hisobga olinadi. Monopoliya tarmoqlarida narxlarning o'sishi umumiyligi inflyatsiya darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 2020-2024-yillar davomida monopoliya tarmoqlaridagi narx o'sishi umumiyligi inflyatsiyaning 35-40% ini tashkil etdi. Bu holat makroiqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Monopoliyaga qarshi tartibga solish samaradorligini oshirish uchun bir qator takliflar ishlab chiqilgan. Birinchidan, narxlarni belgilash mexanizmlarini zamonalaشتirish va "narx tavan" usuliga o'tish. Ikkinchidan, raqobat muhitini rivojlantirish va yangi ishtirokchilarning bozorga kirishiga yordam berish. Uchinchidan, tartibga soluvchi organlarning mustaqilligini oshirish va ularning malakali kadrlar bilan ta'minlash.<sup>16</sup>

Xulosa qilib aytganda, narx statistikasi ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan tahlil O'zbekistonda monopoliyaga qarshi tartibga solish tizimining qisman samaradorligini ko'rsatadi. Telekommunikatsiya va transport sohalarida ma'lum yutuqlar kuzatilgan bo'lsa, elektr energiyasi, gaz va suv ta'minoti sohalarida jiddiy muammolar mavjud. Tartibga solish mexanizmlarini zamonalaشتirish, raqobat muhitini rivojlantirish va xalqaro tajribani o'rganish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, <https://lex.uz/docs/-6445145>

### Июль | 2025, 1-қисм

<sup>15</sup> Nazarov, F.S. (2024). Technical efficiency analysis of monopolistic sectors using stochastic frontier approach. Economic Research Journal, 9(2), 112-128.

<sup>16</sup> Рахманов, М.Т. (2023). Совершенствование антимонопольного регулирования в Узбекистане: международный опыт и национальные особенности. Журнал экономических реформ, 11(4), 56-71.



- 
2. OECD. (2023). Competition Policy and Economic Development in Transition Economies. Paris: OECD Publishing.
  3. Nazarov, F.S. (2024). Technical efficiency analysis of monopolistic sectors using stochastic frontier approach. Economic Research Journal, 9(2), 112-128.
  4. Петров, В.И., Иванов, С.А. (2024). Современные методы ценового регулирования естественных монополий. Вопросы регулирования экономики, 15(2), 23-39.

DESTRUKTIV DINIY AXBOROTGA QARSHI PSIXOLOGIK HIMOYA  
MEXANIZMLARI

Javliyev Bekzod Xudoyberdiyevich  
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi  
E-mail:javliyev.bekzod@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda destruktiv diniy axborotning o'smirlar va yoshlar psixologiyasiga salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Destruktiv diniy ta'sirlarning ong va qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta'siri mavjud bo'lib, bu holat psixologik barqarorlikni izdan chiqaradi. Shuning uchun diniy manipulyatsiyalarga qarshi psixologik himoya mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Mazkur ishda himoya mexanizmlari sifatida kognitiv immunitet, tanqidiy tafakkur, shaxsiy identifikatsiyani mustahkamlash, emotsional barqarorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlarining roli yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Destruktiv axborot, diniy manipulyatsiya, psixologik himoya, kognitiv immunitet, tanqidiy fikrlash, emotsional barqarorlik.

**Аннотация:** В данной работе рассматривается психологическое влияние деструктивной религиозной информации на подростков и молодежь. Отмечено, что такие влияния негативно воздействуют на процессы мышления, самоидентификацию и принятие решений. В связи с этим актуальным является разработка эффективных психологических защитных механизмов против религиозной манипуляции. В исследовании акцент сделан на когнитивный иммунитет, развитие критического мышления, укрепление личностной идентичности, эмоциональную устойчивость и систему социальной поддержки.

**Ключевые слова:** Деструктивная информация, религиозная манипуляция, психологическая защита, когнитивный иммунитет, критическое мышление, эмоциональная устойчивость.

**Abstract:** This thesis explores the psychological impact of destructive religious information on adolescents and youth. Such influences can disrupt cognitive processes, decision-making, and personal identity development. Therefore, building effective psychological defense mechanisms against religious manipulation is essential. The study highlights key protective strategies such as cognitive immunity, critical thinking skills, reinforcement of personal identity, emotional resilience, and strong social support systems.

**Keywords:** Destructive information, religious manipulation, psychological defense, cognitive immunity, critical thinking, emotional resilience.

Bugungi raqamli axborot makonida inson ongiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tobora ko'payib bormoqda. Ayniqsa diniy mazmundagi destruktiv axborotlar yoshlar ongini egallash orqali ularning tafakkuri, emotsional holati va ijtimoiy xulq-atvorini o'zgartirishga urinadi. Destruktiv diniy axborotlar deganda, inson ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi, diniy aqidalarni noto'g'ri talqin qiluvchi, ekstremistik va radikal g'oyalarni singdiruvchi ma'lumotlar tushuniladi. Bu axborotlar ko'pincha manipulyativ usullar



оргали targ‘ib qilinadi va shaxsda ijtimoiy ajralish, negativ e’tiqod shakllanishi, hatto tajovuzkor xatti-harakatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Psixologiya fanida bunday axborotlarga qarshi tabiiy va ixtiyoriy himoya vositalari mavjud. Bu himoya mexanizmlari insonning ichki barqarorlik holatini saqlash, uning e’tiqodi, qarashlari va shaxsiy chegaralarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada eng asosiy jihatlardan biri—bu kognitiv immunitet hisoblanadi.

Kognitiv immunitet shaxsning axborotni tanqidiy qabul qilishi, uni tahlil qilishi, yolg‘on va manipulyativ ma’lumotlarni aniqlab, rad etish qobiliyatidir. Insonning axborotni filtrlash ko‘nikmalari kuchli bo‘lsa, u destruktiv diniy ta’sirlardan kamroq zarar ko‘radi. Bu immunitet ijtimoiy tajriba, bilim darajasi, fikrlash madaniyati orgali shakllanadi.

Yana bir muhim himoya mexanizmi—bu tanqidiy fikrlashdir. Tanqidiy fikrlash shaxsning axborotga biryoqlama qarab emas, balki tahliliy yondashuvi, sabab-oqibat bog‘liqlarini aniqlay olishi va har qanday ma’lumotni ishonchli manbalar orqali solishtira bilishidir. Yoshlar tanqidiy fikrlashga ega bo‘lsa, ular turli ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan noto‘g‘ri diniy targ‘ibotga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan yondashadilar.

Shaxsiy identifikatsiya ham axborotga qarshi psixologik barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. O‘zini anglagan, o‘z e’tiqodiga, maqsadlariga ega bo‘lgan shaxs begona, radikal g‘oyalarga nisbatan mustahkam turadi. Ayniqsa o‘smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya hali shakllanib borayotgan davr bo‘lib, bu bosqichda salbiy axborotga berilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shu sababli o‘smirlar orasida sog‘lom shaxsiy dunyoqarashni shakllantirish juda muhimdir. Ular o‘z diniy e’tiqodini bilim asosida anglab yetishi va unga hurmat bilan qarashi zarur.

Emotsional barqarorlik ham salbiy axborotlarning ta’sirini kamaytiruvchi psixologik himoya vositasidir. Diniy ekstremistik axborotlar ko‘pincha qo‘rquv, tahdid, hayajon, gunoh hissi kabi emotsiyalarni boshqara olsa, stressga bardoshli bo‘lsa, u bunday bosimlarga taslim bo‘lmaydi. Shuning uchun maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda emotsiyalarni anglash va nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim sanaladi.

Destruktiv diniy axborotga qarshi psixologik himoyani mustahkamlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning roli ham beqiyosdir. Inson o‘zini yolg‘iz his qilsa, ijtimoiy munosabatlardan uzilsa, uni har qanday radikal guruh o‘ziga jalb qilishi oson kechadi. Biroq oila, do‘srlar, muktab, jamoa kabi ijtimoiy tuzilmalar tomonidan ko‘rsatiladigan doimiy e’tibor, mehr va tushunish insonda ishonch va barqarorlik hissini kuchaytiradi. Bu esa destruktiv diniy ta’sirga qarshi tabiiy psixologik qalqon hosil qiladi.

Shaxsiy kuzatuvlarim asosida aytish mumkinki, diniy bilimlarning noto‘g‘ri, yuzaki yoki biryoqlama berilishi ko‘pincha yoshlar orasida tushunmovchilik, shubha va radikal g‘oyalarga moyillikni oshiradi. Agar ta’lim tizimida diniy va dunyoviy bilimlar muvozanatli va tushunarli tarzda o‘rgatilsa, yosh avlod diniy masalalarga nisbatan ongli va tanqidiy yondasha oladi. Bundan tashqari, bolalarda ertadan boshlab axborot savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlashni o‘rgatish, jamiyatdagi ijtimoiy institutlar—oila, muktab, mahalla tomonidan emotsiyalarni va axboriy himoyani ta’minalash destruktiv diniy g‘oyalalar tarqalishining oldini oladi.

Yoshlar orasida radikal diniy g‘oyalarning tarqalishi zamonaviy jamiyatda dolzarb psixologik muammolardan biridir. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, diniy ekstremistik axborotlarning asosiy auditoriyasi 18–30 yosh orasidagi shaxslardan iborat bo‘lib,



ularning katta qismi diniy bilimga ega emas, axborot savodxonligi past va mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini yetarli darajada shakllanmagan. Jumladan, 2022-yil yakunlariga ko'ra, diniy ekstremistik kontentga aloqador yoshlarning 64 foizi bu axborotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali olgani aniqlangan. Bu ko'rsatkich yoshlar axborot oqimida mutlaqo himoyasiz qolayotganini anglatadi.

Radikal diniy g'oyalari asosan emotsiyal holatga ta'sir etish, diniy sabablarga suyanib manipulyatsiya qilish, yoki ijtimoiyadolat, muqaddaslik, ezgulik niqobi ostida targ'ib qilinadi. Ayniqsa o'zini jamiyatda yolg'iz, keraksiz yoki tushunarsiz his qilayotgan shaxslar ushbu axborotlarga nisbatan sezuvchan bo'ladi. Shunday holatlarning oldini olishda davlat va fuqarolik jamiyatini institutlarining roli beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasida bu borada bir nechta muhim tashabbuslar yo'lga qo'yilgan: "Yoshlar daftari", "Ma'rifat va ma'naviyat markazi", "Imom xatiblar ishtirokidagi targ'ibot guruhi", "Huquqiy bilimlar haftaligi" kabi loyiha va tashabbuslar yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlardan himoya qilishga qaratilgan.

Shaxs psixikasida destruktiv axborotdan himoyalanish tabiiy mexanizmlar bilan bir qatorda psixologik yondashuvlar orqali mustahkamlanadi. Bunda Z. Freydning "psixik himoya mexanizmlari" nazariyasi, A. Banduraning "ijtimoiy o'r ganish nazariyasi", E. Eriksonning "shaxsiy identifikatsiya" bosqichlari ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Bandura nazariyasida yoshlar atrof muhitdan, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar, do'stlar, guruhrar orqali ijtimoiy xulq-atvorni o'r ganadi, shuningdek, destruktiv diniy g'oyalari ham ular uchun namuna sifatida qabul qilinishi mumkin.

Yoshlarning diniy ekstremistik axborotlarga qarshi psixologik barqarorligini ta'minlashda ularning axborot savodxonligini oshirish, diniy e'tiqodga sog'lom yondashuvni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni mustahkamlash zarur. Bu borada matab va oliy ta'lim muassasalarida maxsus treninglar, media-savodxonlik kurslari, psixologik seminarlar tashkil etilishi ijobjiy natijalar beradi.

Shaxsiy kuzatuvlarga tayanib aytish mumkinki, diniy mazmundagi noto'g'ri axborotlarni yoshlar orasida ko'proq ongli ravishda qabul qilayotganlar axborotni filrlay olmaydigan, saviyasiz auditoriyadir. Aksincha, sog'lom, barqaror, ma'naviy jihatdan boy shaxsiyati shakllangan o'spirinlar bunday axborotlarni tanqidiy tahlil qilishga intiladi. Shu boisdan, shaxsni mustahkamlashga qaratilgan psixologik tarbiya, milliy qadriyatlar asosida diniy tushunchalarni berish va yoshlar orasida psixologik profilaktika ishlarini olib borish destruktiv diniy g'oyalarning tarqalishini oldini oladi.

Destruktiv diniy axborotlar ko'pincha "yagona haqiqat", "najat yo'li", "sadoqatning isboti" kabi kuchli emotsiyal va diniy ifodalar orqali beriladi. Bunday axborotlar odatda inson ongiga "haq va botil", "do'st va dushman" kabi keskin ikkiliklar orqali kirib boradi. Natijada yosh ongida murakkab axborotlarni tahlil qilish o'rniga oddiy, yuzaki va xavfli yondashuv shakllanadi. Bu — diniy radikallashuvning eng xavfli jihatlaridan biridir. Shunday ekstremistik axborotlar ongga singib ketmasligi uchun shaxsda muqobil axborotlarni tanib olish, emotsiyalarni boshqarish va axborotga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllanishi zarur.

Shuningdek, destruktiv diniy g'oyalarning tarqalishida internet va axborot texnologiyalari vositasida faol ishlayotgan yashirin guruhlarning psixologik ta'sir mexanizmlari ham muhim rol o'ynaydi. Bu guruhrar ko'pincha yoshlar e'tiborini tortish uchun vizual (grafika, videolar, iqtiboslar), audial (emotsional ohangdagisi nutqlar), va



interaktiv (forumlar, anonim suhbatlar) usullardan foydalanadi. Shu boisdan ham media-psixologiya sohasi bu muammoga alohida e'tibor qaratmoqda. Bugungi kunda "raqamli psixogigiyena" tushunchasi asosida yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlarda o'zini himoya qilish madaniyatini shakllantirish zarurati ortmoqda.

Destruktiv diniy ta'sirga qarshi psixologik himoyaning muhim tarkibiy qismiga oilaviy muhit ham kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilada doimiy psixologik qo'llab-quvvatlash, ishonchli munosabat, sog'lom muloqot mavjud bo'lsa, yoshlarning turli diniy ekstremistik oqimlarga qo'shilish ehtimoli ancha kamayadi. Aksincha, e'tibordan chetda qolgan, mehr-muhabbat yetishmaydigan muhitda voyaga yetgan o'smirlar radikal g'oyalarni ko'proq qabul qiladi, chunki bu g'oyalalar ularga "maqsad", "jamiyatda o'rinni", "e'tirof" taklif qiladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'qituvchilar, psixologlar va ijtimoiy mutaxassislar ishtirokida maktablarda va OTMlarda muntazam psixologik monitoring o'tkazilishi ham zarur. Bu monitoring orqali yoshlarning emotsiyal holati, diniy ong darajasi, hayotiy qadriyatlari aniqlanib, individual yondashuv asosida maslahatlar berilishi mumkin. Psixoprofilaktika, ya'ni muammoni oldindan anglash va yo'naltirish, destruktiv g'oyalarga qarshi eng samarali usullardan biridir.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda blogerlar, diniy mutaxassislar va psixologlar hamkorligida tayyorlangan video, maqola, intervylular orqali sog'lom diniy tushuncha, tolerantlik, insonparvarlik va milliy qadriyatlar targ'ib qilinishi zarur. Aynan sog'lom axborot muhitini yaratish orqali destruktiv axborot oqimini kamaytirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv va axborot bosimi kuchaygan sharoitda yosh avlodni destruktiv diniy ta'sirlardan himoya qilishda psixologik yondashuvlar—tanqidiy tafakkurni shakllantirish, axborot savodxonligini oshirish, shaxsiy barqarorlikni rivojlantirish asosiy rol o'ynaydi. Psixologik jihatdan qudratli jamiyat destruktiv g'oyalarga qarshi tabiiy immunitet bilan bardavom bo'ladi. Destruktiv diniy axborotga qarshi kurash faqat diniy yoki huquqiy chora-tadbirlar bilan emas, balki chuqur psixologik yondashuv bilan olib borilishi zarur. Har bir yoshda sog'lom fikrlash, shaxsiy pozitsiya, emotsiyal barqarorlik va axborotni tahlil qilish qobiliyatları rivojlantirilsa, jamiyatning ichki barqarorligi va ruhiy sog'lomligi mustahkamlanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. (2015). *Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch*.–T.: Ma'naviyat.
2. Mahkamova G., Ergashxodjaeva N. (2021). *Yoshlar psixologiyasi*.–T.: Yangi asr avlod.
3. Axmedova N.A. (2020). *Ekstremizm va terrorizm psixologiyasi*.–T.: Iqtisodiyot.
4. Bandura A. (1977). *Social Learning Theory*.–Prentice-Hall.
5. Freud S. (1936). *The Ego and the Mechanisms of Defence*.–Hogarth Press.
6. Qurbonova M.A. (2019). *Psixologik himoya mexanizmlari va ularning shaxs rivojlanishidagi roli*. // Psixologiya va hayot – №2.
7. UNESCO (2022). *Preventing Violent Extremism through Education: A Guide for Policy-makers*.



8. Saydaliyev O. (2021). *Internet orqali radikal g'oyalarni tarqatish va yoshlar ongiga ta'siri.* // “Milliy xavfsizlik” to‘plami.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-fevraldagи PQ-2758-sonli qarori—*Diniy-ma'rifiy sohada islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari*.
10. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)—O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari portalı.



**O'QUV MOTIVATSIYASIGA SALBIY TA'SIR QILUVCHI IJTIMOIY  
TARMOQDAGI KONTENTLAR VA ULARNI NAZORAT QILISH  
IMKONIYATLARI**

**Qurbanboyev Miraziz Zulhaydar o'g'li**

O'MUNing Jizzax filiali

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat

bo'lim boshlig'i

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda o'quvchilarning o'quv motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy tarmoqdagi kontentlar psixologik tahlil qilinadi. O'smirlarning kognitiv va emotsiyal faoliyatiga ushbu kontentlarning qanday ta'sir ko'rsatayotgani aniqlanib, ta'lif motivatsiyasining pasayishiga olib keluvchi mexanizmlar yoritiladi. Shuningdek, ota-onalar, pedagoglar va texnologik platformalar tomonidan ushbu zararli kontentlarni nazorat qilishning psixologik va axborot-huquqiy imkoniyatlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** o'quv motivatsiyasi, salbiy kontent, psixologik ta'sir, ijtimoiy tarmoq, monitoring, nazorat.

**Аннотация:** В данной тезисной работе рассматривается психологическое воздействие деструктивного и развлекательного контента в социальных сетях на учебную мотивацию подростков. Анализируются когнитивные и эмоциональные изменения, вызываемые этими материалами, а также механизмы снижения мотивации к обучению. Также рассматриваются возможности контроля нежелательного контента со стороны родителей, педагогов и цифровых платформ.

**Ключевые слова:** учебная мотивация, негативный контент, психологическое влияние, социальные сети, мониторинг, контроль.

**Annotation:** This thesis explores the psychological impact of distracting and entertainment-focused content on adolescents' academic motivation. It analyzes the cognitive and emotional consequences of exposure to such content and reveals mechanisms leading to decreased motivation. It also discusses the psychological and regulatory possibilities for controlling such content through parental, pedagogical, and platform-based monitoring.

**Keywords:** academic motivation, negative content, psychological influence, social networks, control, digital regulation.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi o'quvchilar hayot tarzining ajralmas qismiga aylangan ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishiga sabab bo'ldi. O'zbekistonda ham o'smir yoshdagilar orasida TikTok, Instagram, Telegram kabi tarmoqlardan faol foydalanish holatlari kuzatilmogda. Ijtimoiy tarmoqdagi kontentlar nafaqat axborot uzatuvchi, balki psixikaga ta'sir qiluvchi kuchli vositaga aylangan.

O'quv motivatsiyasi-bu o'quvchini bilim olishga undovchi ichki kuchlar majmuasidir. Biroq, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan qisqa, jozibador, lekin ilmiy va ijtimoiy foyda bermaydigan kontentlar, o'quvchilarda chalg'ish, diqqatni jamlay olmaslik, fikr yuritishning yuzaki bo'lishi kabi muammolarga sabab bo'imoda. Natijada, ularning o'quv jarayoniga nisbatan e'tibori pasayadi, darslarga bo'lgan motivatsiyasi zaiflashadi.



Ushbu tezisning dolzarbli shundaki, hozirgi zamonda yoshlar orasida tarqalgan “raqamlar chalg‘ituvchilar” o‘zining salbiy oqibatlarini ko‘rsatmoqda, ammo ular ustidan nazorat va monitoring mexanizmlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Shu bois, ushbu tadqiqot orqali zararli kontentlar ta’sirining psixologik jihatlari ochib beriladi va nazorat imkoniyatlariga ilmiy asosdagi yondashuvlar taklif etiladi.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, o‘quv motivatsiyasi individning ongli harakatini faollashtiruvchi, natijaga qaratilgan ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. A. Bandura, V. Frankl, va S. Rubinshteyn singari olimlarning motivatsiya nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi muhitdan keladigan stimullar o‘quvchining ichki motiviga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan kontentlar, ayniqsa, ko‘ngilochar va tendensiyali videolar (masalan, lottolar, qisqa raqs videolari, pranklar) qisqa vaqt ichida miyada “dopamin chaqnashini” keltirib chiqaradi. Bu esa o‘quvchilarda uzoq muddatli fikrlashni pasaytiradi, kognitiv yuklama kamayadi va ilmiy bilimlarga qiziqish yo‘qoladi (Carr, 2010).

Zamonaviy psixologlar (J. Twenge, 2017; G. Small, 2018) bunday kontentlar o‘smirlarning o‘zini baholash darajasiga, ularning real hayotdagi ijtimoiy roli va ijtimoiy taqqoslash odatlariga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, o‘zini ijobiy tomondan ko‘rsatishga majburlovchi "ideal hayot" kontentlari – o‘quvchilarda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi va bilim olishga emas, balki ommalashishga yo‘naltiradi.

Oxirgi yillardagi **tadqiqotlar** shuni ko‘rsatadiki, **ijtimoiy tarmoqdan foydalanish darajasi oshgani sari o‘quv motivatsiyasi pasayish tendensiyasi** ham kuchaymoqda. **2023-yilda AQShda o‘tkazilgan bir so‘rov** natijasiga ko‘ra, **o‘smirlarning 62% i har kuni 4 soatdan ortiq vaqtini TikTok yoki Instagram’da o‘tkazadi**, ularning **45% i esa dars qilish vaqtida ham ijtimoiy tarmoqqa chalg‘ishini tan olgan**. Bu raqamlar o‘quv faoliyatiga bo‘lgan e’tiborning qanday pasayib borayotganini yaqqol ko‘rsatadi.

**O‘zbekistonda 2022-yilda Toshkent shahridagi 9-11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda**, respondentlarning 74 foizi ijtimoiy tarmoqlarda ko‘proq ko‘ngilochar va chalg‘ituvchi kontentni tomosha qilishini bildirgan, faqat 13 foizi esa ta’limga oid videolar yoki maqolalarni doimiy ko‘rib borishini aytgan. Bu esa ijtimoiy tarmoqdagi kontentlar sifati o‘quvchilarning psixikasiga qanday ta’sir qilayotganini ko‘rsatadi.

Psixologlar ta’kidlaganidek, “**dopamin tuzog‘i**” deb ataladigan holat raqamli muhitda juda keng tarqalgan. **Dopamin–bu miyadagi lazzat va mukofot bilan bog‘liq neyromediator bo‘lib, har safar yoqimli video, like, izoh ko‘rilganda ajralib chiqadi**. Bu esa **odamni shu jarayonga qaram qilib qo‘yadi**, natijada o‘quv faoliyati zerikarli va foydasizdek tuyula boshlaydi.

**Twenge (2017) o‘z asarida shuni qayd etadiki, ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanuvchi o‘smirlarning o‘quv motivatsiyasi 20-30% ga pasayadi**. Bu faqat shunchaki vaqt yo‘qotish emas, balki kognitiv faoliyatning pasayishi, fikrni jamlay olmaslik, va shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan qiziqishning susayishi bilan kechadi.

Shuningdek, **2021-yilda Xalqaro Ta’lim Rivojlantirish Markazi (IECD)** tomonidan 12 mamlakat o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotda aniqlanishicha, **o‘smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish o‘quvdagi muvaffaqiyat darajasining 23% ga pasayishiga olib kelgan**. Bu degani, ijtimoiy tarmoqdagi kontentlar nafaqat chalg‘itadi, balki natijaviylikni ham sezilarli kamaytiradi.



Psixologik yondashuvlarga ko‘ra, **media-ta’sir modeliga (Media Impact Model)** binoan, **ko‘p miqdorda iste’mol qilinadigan salbiy kontent ong osti darajasida xulqatvorni shakllantiradi**, bu esa **motivatsiyaning bevosita ichki manbalariga zarar yetkazadi**.

Bundan tashqari, **motivatsiyani pasaytiruvchi kontentlar orasida quyidagilar yetakchilik qiladi**:

- Yengil kulgili videolar (shorts, reels)
- Internet mashhurligini targ‘ib qiluvchi bloglar
- Yoshi katta blogerlarning hayot tarzini ideal holatda ko‘rsatishlari
- O‘zaro taqqoslashga undovchi vizual materiallar (go‘zallik, boylik, mashhurlik)
- Agitatsion yoki manipulyativ xabarlar (reklamalar, klikbejt)

**Nazorat mexanizmlari mavjud bo‘lsa-da, ko‘pchilik ota-onalar bu texnologik imkoniyatlardan xabardor emas.** So‘rov natijalariga ko‘ra, **ota-onalarning faqat 22% i farzandining internetdagi faoliyatini muntazam kuzatadi**, 68% i esa bunga vaqt yo‘qligini yoki kerak deb bilmasligini bildirgan.

Ijtimoiy tarmoqdagagi salbiy kontentlarning o‘quv motivatsiyasiga ko‘rsatayotgan ta’siri-zamonaviy raqamli davrning eng jiddiy psixologik muammolaridan biridir. Unga qarshi chora sifatida **psixologik savodxonlikni oshirish, media madaniyatni singdirish, va ota-ona hamkorligini kuchaytirish zarur**. Bunga qarshi chora sifatida pedagogik monitoring, ota-onalarning raqamli nazorati (masalan, “parental control” ilovalari), ijtimoiy tarmoqlar algoritmlarini tartibga solish, kontentni yoshi bo‘yicha filtrlash tizimlari taklif qilinmoqda. Psixologik yondashuvda esa, bolalarga raqamli madaniyatni singdirish, axborotni tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish va ijobiy kontentni targ‘ib qilish tavsiya etiladi.

Ta’lim muassasalarida mediamadaniyatni targ‘ib qilish bugungi kunda o‘quvchilarning raqamli axborot muhitidagi ishtirokini ongli boshqarish, axborotni tanlash va baholash madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mediamadaniyat nafaqat texnologiyadan foydalanish ko‘nikmasi, balki ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni tanqidiy tahlil qilish, emotSIONAL barqarorlikni saqlab qolish va zararli axborotga nisbatan immunitet hosil qilish deganidir. Ayniqsa o‘smirlilik davrida axborotni tanlash va unga nisbatan fikr bildirish malakasi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lishi sababli, ular manipulyativ va emotSIONAL kontentlarga nisbatan ko‘proq ta’sirchan bo‘lishadi. Shu sababli, maktab va litsey kabi ta’lim muassasalari nafaqat fanlarni o‘qitish, balki o‘quvchilarda media axborotdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish markaziga aylanishi lozim.

Mediamadaniyatni shakllantirish jarayonida birinchi navbatda o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni o‘rgatish muhim. Bu ularni har qanday ko‘rilgan yoki o‘qilgan axborotni avtomatik ravishda qabul qilmasdan, uni baholash, manbasini aniqlash va undan qanday maqsadda foydalanishni tushunishga yo‘naltiradi. Misol uchun, biror blogerning hayoti haqida ko‘rilgan videooni tomosha qilgach, o‘quvchi undagi real va ixtiyoriy bezaklangan jihatlarni ajrata olishi, bu kontent uni qanday ruhiy holatga olib kelganini anglay olishi kerak. Shu maqsadda dars jarayonlariga ijtimoiy tarmoqlardagi namunaviy kontentlarni kiritib, ularni guruhda tahlil qilish, munozara qilish va xulosa chiqarishga o‘rgatish foydalidir.



Ikkinchi muhim yo‘nalish—o‘quvchilarning mediafaolligini to‘g‘ri yo‘naltirishdir. Ular zamonaviy texnologiyalardan to‘g‘ri foydalansa, internetda o‘z fikrini bildirsa, foydali bilimlar almashsa, bu nafaqat motivatsiyani oshiradi, balki shaxs sifatida shakllanishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, o‘quvchilarning blog yuritishi, ilmiy loyihalarni raqamli shaklda taqdim etishi, ijtimoiy foydali videolar tayyorlashini qo‘llab-quvvatlash kerak.

Mediamadaniyatni targ‘ib qilishda muassasa ichidagi psixolog va pedagoglar ham muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarda raqamli stress, noto‘g‘ri kontentga aldanish, virtual tahqirlarga uchrash holatlarini oldindan aniqlashi va ularning oldini olish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borishi lozim. Buning uchun esa har bir ta’lim muassasasida axborot va raqamli xavfsizlik bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar o‘tkazilishi, ota-onalar ishtirokida seminar va treninglar tashkil etilishi zarur.

Shunday qilib, mediamadaniyatni shakllantirish nafaqat ijtimoiy tarmoqdagi salbiy ta’sirlardan himoyalanish, balki o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi, axborotdan ongli foydalana oladigan, o‘z motivatsiyasini yo‘qotmasdan rivojvana oladigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida, o‘smirlarning o‘quv motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy tarmoq kontentlari bilan bog‘liq muammo dolzarb psixologik muammolardan biridir. Bunday kontentlar diqqatni pasaytiradi, bilimga emas, ko‘ngilocharga yo‘naltiradi, raqamli “tan olinishga” intilish sababli o‘quv jarayonining qadriyat sifatida shakllanishiga to‘sinqilik qiladi.

Shu bilan birga, bu muammo nafaqat psixologik, balki pedagogik, axborot va texnologik yondashuvlarni talab etadi. Nazorat mexanizmlari faqat taqiqlash yoki cheklashdan iborat bo‘lmasligi kerak. Aksincha, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy va ilmiy kontentni ko‘paytirish, o‘quvchilarning media savodxonligini oshirish, ularni virtual muhitda ongli tanlovgaga o‘rgatish muhim hisoblanadi.

Ota-onalarning hamda pedagoglarning raqamli dunyodagi faolligi, bolaning faoliyatini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashi o‘quv motivatsiyasini tiklashda muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning o‘z algoritmlarida zararli kontentni kamaytirish mexanizmlari joriy qilinishi, ta’limga xizmat qiluvchi platformalarni ilgari surish zarur.

Kelajakda bu boradagi tadqiqotlar kontentning turli psixotiplarga ko‘rsatadigan ta’sirini ham o‘rganib, shaxsiylashtirilgan psixologik yondashuvlarni taklif qilishi lozim. Zero, ta’lim motivatsiyasi—nafaqat bilim olishga, balki hayotga ijobiy qarashga olib keluvchi kuchdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*.
2. Carr N. (2010). *The Shallows: What the Internet is Doing to Our Brains*.
3. Twenge J. (2017). *iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious*.
4. Small G., Vorgan G. (2018). *iBrain: Surviving the Technological Alteration of the Modern Mind*.



5. Rubinshteyn S.L. (1973). *O soznanii i deyatelnosti.*
6. Мухитдинов А. (2020). *O 'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning psixologik asoslari.*
7. Шарипова Д. (2022). *Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar psixologiyasi: tahlil va yechimlar.*



## GLOBALASHUV SHAROITIDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA TARIXIY TA'LIMNING MAQSADI SIFATIDA

Rajabov Muhiddin Qo‘chqorovich,  
Toshkent viloyati, Zangiota tumani, 14-maktab o‘qituvchisi  
e-mail: m.rajabov@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqola madaniyatlararo kompetensiyani zamonaviy tarixiy ta’limning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Globalashuv va madaniy xilma-xillikning kuchayishi sharoitida o‘quvchilarda boshqa madaniyat vakillari bilan o‘zaro hurmat va samarali munosabatda bo‘lish qobiliyatini shakllantirish ta’lim jarayonining muhim elementiga aylanmoqda.

**Kalit so‘zlar:** madaniyatlararo kompetensiya, tarixiy ta’lim, globalashuv, madaniy xilma-xillik, madaniyatlararo muloqot.

Zamonaviy jamiyat tobora globalashgan, ko‘p madaniyatli va ko‘p tilli jamiyat sifatida tavsiflanmoqda. Bunday sharoitda ta’lim tizimi o‘quvchilarni madaniy xilma-xillik sharoitida samarali hayot kechirishga tayyorlash zarurati bilan to‘qnashadi. An’anaviy ravishda fuqarolik o‘zligini anglash va vatanparvarlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan tarixiy ta’lim bugungi kunda madaniyatlararo tarbiya vositasi sifatida tobora ko‘proq qabul qilinmoqda. Zamonaviy maktabning eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini - farqlarning tarixiy shartlanganligini hurmat qilish, tushunish va anglash asosida boshqa madaniyat vakillari bilan samarali o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatini shakllantirishdir [1].

Madaniyatlararo kompetensiya tushunchasi bir nechta tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: kognitiv (boshqa madaniyatlar va sivilizatsiyalar haqidagi bilimlar), affektiv (ochiqlik, bag‘rikenglik, empatiya) va xulq-atvor (muloqot va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari) [2]. Ta’lim sharoitida madaniyatlararo kompetentlik ta’lim oluvchining boshqa madaniy modellarni, shuningdek, ularning tarixiy ildizlarini idrok etish, tahlil qilish va hurmat qilish qobiliyati sifatida qaraladi.

YUNESKO ta’kidlashicha, madaniyatlararo kompetensiya "tinch-totuv yashash, ijtimoiy birdamlik va global fuqarolik" uchun asos yaratadi [3]. Bu uni XXI asr ta’limining, shu jumladan tarix o‘qitish sohasining asosiy maqsadlaridan biriga aylantiradi.

Globalashuv jarayonlari tarixiy tafakkurning an’anaviy shakllarini o‘zgartirishga yordam beradi. Milliy rivoyatlar bilan bir qatorda xalqlar va sivilizatsiyalarning o‘zaro bog‘liqligi g‘oyasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globalashuv tarixiy ta’limdan quyidagilarni talab qiladi:

- voqealarning etnotsentrik talqinlaridan voz kechish;
- tarixiy jarayonlarni tahlil qilishda mintaqaviy va global istiqbollarni integratsiyalash;
- madaniy aloqalar, migratsiyalar, transmilliy jarayonlar, sivilizatsiyalarning bir-biriga ta’siri masalalariga e’tibor qaratish lozim [4].

Aynan shu yondashuвлар orqali o‘quvchilarda madaniyatlararo idrok etish va “o‘zga”ni hurmat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.



Tarix o‘quv predmeti sifatida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish uchun noyob imkoniyatlarga ega, chunki:

- turli xalqlar va sivilizatsiyalarning qarashlarini aks ettiruvchi ko‘p ovozli diskursni ifodalaydi;
- madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning savdo va diplomatiyadan tortib urushlar va assimilyatsiyagacha bo‘lgan tarixiy shakllarini tahlil qilish imkonini beradi;
- madaniy xilma-xillik va ksenofobiya, mustamlakachilik va etnotsentrizmning tarixiy saboqlari qadrini anglashga yordam beradi.

Bunday yondashuv o‘qituvchidan nafaqat mazmunni qayta ko‘rib chiqishni, balki taqqoslash, talqin qilish, tanqidiy fikrlash (masalan, keys-tahlil, munozara, turli manbalarni tahlil qilish) ga qaratilgan o‘qitish usullaridan foydalanishni ham talab qiladi [5].

Pedagogning faol pozitsiyasisiz madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish mumkin emas. Tarix o‘qituvchisining o‘zi madaniyatlararo sezgirlikka ega bo‘lishi, sinfda dialog, hurmat va tarixiy masalalarga tadqiqotchilik yondashuvi muhitini yarata olishi kerak. Shuningdek, ta’lim siyosati tomonidan qo‘llab-quvvatlash ham muhimdir, ya’ni o‘quv dasturlariga jahon tarixi, madaniyatshunoslik, global muammolar va madaniyatlararo masalalar bo‘yicha modullarni kiritish [6].

Globallashuv sharoitida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish nafaqat dolzarb vazifa, balki tarixiy ta’limning ustuvor maqsadiga aylanmoqda. Kelajakdagi jamiyatning barqarorligi, tinch-totuv yashash qobiliyati, tafovutlarni qabul qilish va global tafakkurni rivojlantirish maktab o‘quvchilarini ko‘p madaniyatli jamiyatda hayotga qanchalik samarali tayyorlashga bog‘liq. Tarix xotira, o‘zlik va madaniy meros bilan bog‘liq fan sifatida nafaqat o‘tmishni bilih vositasi, balki hozirgi va kelajakda muloqotga qodir shaxsni shakllantirish vositasiga aylanishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Сайдова К.У. Особенности воспитания молодежи в контексте компаративного подхода к педагогике Востока и Запада: монография. – Ташкент: Fan va ta’lim, 2024.
2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Bristol: Multilingual Matters, 1997.
3. UNESCO. Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework. – Paris: UNESCO, 2013.
4. Banks J.A. Diversity, Group Identity, and Citizenship Education in a Global Age // Educational Researcher. – 2008. – №37(3). – P.129-139.
5. Davidova R. Facilitation of learning in the context of the transformation of the traditional education system // Acta Education. – 2024. – №1(1).–P.29–33.



- 
6. Karimov R., Naumenko O., Saidova K., Elmuratov R., Bekbaev R. The phenomenon of education in the context of an intercultural philosophical approach // Wisdom.–2022.–№4(24)–P.84-90.



## TA'LIMDA VR TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Usmonov Muhammadabdulla Qaxramon o‘g‘li**  
Qo‘qon universiteti Kompyuter injiniring talabasi  
[usmonov.st@gmail.com](mailto:usmonov.st@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ta'limda VR texnalogiyalaridan foydalanish: ta'rifi, afzalliklari va misollari.Ta'limda qanday VR texnalogiyalaridan faydalananish haqida so'z borgan,ya‘ni avfzalliklari va zararlari haqida batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** VR, Immersiv sinf,virtual sayohatlar.

Virtual haqiqat yoki VR texnologiyani o'zlashtirgan maktablar sonining ko'payishi bilan ta'limda rivojlanmoqda.VR talabalarga sinfdan chiqmasdan turib, dunyoning turli burchaklaridagi yo'nalichlarni his qilish imkonini beradi. Tasavvur qiling-a, talabalar o'z stollarida o'tirganlarida Giza piramidalarini o'rganishlari mumkin. Bu virtual haqiqat ta'limi imkonini beradi.Ko'pchilik virtual haqiqat (VR) haqida eshitgan, ammo ko'p odamlar bu nima ekanligini yoki o'rganish va ta'limda qanday ishlatilishini bilishmaydi.VR interaktiv kontentga (tasvirlar yoki videolar) ishora qiladi, bu tomoshabinga sahnaning butun 360 gradusini o'rganish imkonini beradi.

Quyida Yorkshirdagi Roche Abbeyning qisqa VR videosini tomosha qiling. Siz butun sahnani ko'rish uchun videoni bosishingiz yoki sudrab olishingiz mumkin.360VR deb nomlanuvchi VR turi ta'limda eng ko‘p qo‘llaniladi. Ushbu turdagি VR yordamida haqiqiy joylashuvlar maxsus kameralar va uskunalar yordamida suratga olinadi. Keyin tasvirlar studiyaga qaytariladi, u erda u VR kontentida ishlab chiqariladi.Keyin VR kontentini VR garnituralarida ko'rish yoki immersiv sinflar deb nomlanuvchi devorlarga proyeksiya qilish mumkin.360VR o'quvchilarga atrofdagi dunyonи o'rgatish uchun ta'limda ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, virtual haqiqat talabalarni ilhomlantirish va jalg qilish uchun noyob qobiliyatga ega.Talabalar shaxsan tashrif buyurish mumkin bo'limgan yoki juda qimmat bo'lgan joylarni boshdan kechirishlari mumkin. Shu tarzda, VR o'qituvchilar va maktablar uchun butunlay yangi imkoniyatlar dunyosini ochishi mumkin.Virtual haqiqat talabalarga esda qolarli va immersiv tajribalar bilan ta'minlash orqali ta'limi yaxshilashi mumkin. Bundan tashqari, bularning barchasi sinfda sodir bo'lishi mumkin.VR har bir talaba uchun ochiq va o'qituvchilar tomonidan osongina nazorat qilinishi mumkin. Virtual tajribalar talabalarni o'ziga xos va kuchli tarzda jalg qilish va ilhomlantirish qudratiga ega.

Ta'lim sohasida VR o'sishi va maktablarning ijobiy javobini hisobga olsak, kelajakda VR uni o'quv dasturiga kirtsa, biz hayron bo'lmaymiz. O'quv rejasiga moslashtirilgan kontent va tuzilgan [VR dars rejaları](#) allaqachon ishlab chiqilgan va Buyuk Britaniyada mavjud.

Virtual haqiqat talabalarga yordam beradigan juda ko'p usullar mavjud, ammo asosiy fikrlar quyida keltirilgan:

1. Talabalar tajriba orqali yaxshiroq o'rganadilar:VR talabalarga o'qish va yozishning an'anaviy usullaridan farqli o'laroq, tajriba orqali o'rganish imkoniyatini beradi.
2. VR ilhomlantirish qobiliyatiga ega:Sinfdagи g'ayrioddiy joylarni ko'rish va boshdan kechirish VR uchun mutlaqo o'ziga xosdir va bu talabalar uchun ilhomlantiradi.
3. VR tasavvurni uyg'otadi va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi:VR ta'minlaydigan ajoyib



tajriba o'qitishda tengsizdir. Talabalar sinfdan "tashiladi" va ularning tasavvurlarini rivojlantirishga ruxsat beriladi.

4. Ta'limgagi VR tengdoshlarning o'zaro ta'siriga yordam beradi: VR tajribasi davomida talabalar bir-birlari bilan muloqot qilishga da'vat etiladi. Shundan so'ng, ular o'z fikrlarini baham ko'rishga va tajribalarini muhokama qilishga tayyor.

5. VR talabalarни jalg qiladi: Ko'pgina talabalar klassik o'qitish usullaridan zerikadilar. Zamonaviy VR texnologiyasi talabalarning e'tiborini boshqa hech narsa kabi o'ziga tortmaydi. Biz talabalar bir zumda VRni sinab ko'rishni xohlashlarini aniqlaymiz.

6. VR real sayohat tajribasini taqdim etadi: VR-dan foydalangan holda, maktablar o'quvchilarga imkonsiz yoki amaliy bo'limgan sayohat tajribasini taqdim etishi mumkin. Maktablar o'quvchilarga aql bovar qilmaydigan tajribalar bilan ta'minlash bilan birga vaqt va pulni tejashlari mumkin.

7. Sinfdagи VR inklyuziv hisoblanadi: VR bilan har bir talaba tajribadan zavq olish uchun bir xil imkoniyatga ega bo'ladi. Ota-onalar uchun juda qimmat yoki ularning farzandlari uchun juda amaliy bo'limgan an'anaviy mакtab sayohatlaridan farqli o'laroq, VR barcha talabalar uchundir.

8. VR unutilmas ta'lif tajribalarini taqdim etadi: VR tugagandan keyin ko'p o'tmay, talabalar tajribani eslab qolishadi va ular kelgusi darslarda bu haqda o'ylashni xohlashadi. Sinfda VRni amalga oshirishning ikkita asosiy usuli mavjud: VR garnituralari va immersiv sinflar. Ta'limga VRdan foydalanishning eng keng tarqalgan va samarali usullaridan biri bu virtual haqiqat sinflari yoki immersiv sinflardir.

Immersiv sinf - bu xonaning ichki devorlariga tasvirlar aks ettiriladigan o'quv xonasi. Bu sinfda virtual muhit yaratadi. Immersiv sinf-talabalar sinfdan chiqmasdan, boshqa joyga "tashilishi" mumkin. VR garnituralariga ehtiyoj sezmasdan, talabalar birgalikda tajribadan bahramand bo'lishlari va bir-birlari bilan muloqot qilishlari mumkin. Ba'zi talabalar foydalanishi qiyin yoki noqulay bo'lishi mumkin bo'lgan VR garnituralaridan farqli o'laroq, immersiv sinflar barcha talabalar uchun mos keladi. Talabalar tanish muhitda VR kontentidan bahramand bo'lishlari mumkin. VR minigarnituralari sinfda VRni amalga oshirishning keng tarqalgan, amaliy usulidir. Minimal xarajat, asbob-uskunalar va bo'sh joy kerak bo'lganda, tobora ko'proq maktablar VR garnituralariga o'tmoqda.

30 talabadan iborat sinf xonasi uchun odatda 15 tagacha eshitish vositasi talab qilinadi. Bular odatda mustaqil minigarnituralardir, ya'ni ular boshqa qurilmalarga, masalan, kompyuterga ulanishi shart emas. O'qituvchilarga minigarnituralarni darsga qo'llashdan oldin ulardan qanday foydalanish kerakligi o'rgatiladi. VR minigarnituralarining asosiy afzalligi ular taqdim etadigan suvga cho'mish darajasidir. Garchi ulardan foydalanish immersiv sinflarga qaraganda biroz qiyinroq bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ular ajoyib darajada real tajriba beradi. Talabalar shoshqaloqlik bilan unutishlari mumkin bo'lgan tajriba. VR boshlang'ich ta'limga samarali qo'llanishi mumkin va Buyuk Britaniyada tobora keng tarqalgan. Immersiv sinflar boshlang'ich maktablar orasida VR garnituralariga qaraganda ko'proq mashhur. Buning sababi shundaki, har bir o'quvchini osongina kuzatib borish mumkin va yosh talabalarga naushniklardan qanday foydalanishni ko'rsatish shart emas. Bu barcha talabalar uchun tajriba yanada silliq va teng bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchilardan atrofga qarash va ko'rganlari haqida gapirish so'raladi. Bu talabalarga hamkorlik qilish imkoniyatini beradi va ayniqsa introvert talabalar o'rtasidagi o'zaro



munosabatlarni yaxshilashi mumkin. Yoshlikda ijtimoiy to'siqlarni kamaytirish juda muhim va ko'plab boshlang'ich maktablarning VRga o'tishining sabablaridan biridir. O'rta ta'linda VR minigarnituralari immersiv sinflarga qaraganda ko'proq mashhur bo'ladi. Buning sababi shundaki, katta yoshdagi o'quvchilarga ta'sir naushniklar bilan ko'proq bo'ladi. Butun ko'rish maydoni yopiq bo'lsa, VR garniturasi bilan suvga cho'mish hissi tengsizdir. Bundan tashqari, boshlang'ich maktab o'quvchilaridan farqli o'laroq, o'rta maktab o'quvchilari eshitish vositalaridan yaxshiroq foydalanishadi, bu esa o'qituvchidan kamroq kirish va yo'l-yo'rinqi talab qiladi.

VR minigarnituralaridan foydalangan holda, o'qituvchilar o'rta maktab o'quvchilariga haqiqatan ham "u erda bo'lish" hissi bilan ta'minlay oladilar - biz suvga cho'mish haqida gapirganda shuni nazarda tutamiz. Ko'pgina talabalar uchun bu aql bovar qilmaydigan tajriba va uni hukm qilishdan oldin sinab ko'rish kerak. VR o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan talabalar uchun ajoyib bo'lishi mumkin. Talabalar xavfsiz va boshqariladigan muhitda atrofdagi dunyo haqida bilib olishlari mumkin. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida bo'lgani kabi, immersiv sinflar o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilarga yordam berish uchun VRning eng mashhur shakli hisoblanadi. Talabalar VR minigarnituralaridan foydalanishda qiyinalishi odatiy hol emas. Immersive sinf xonasi bilan o'qituvchilar darsni ancha oddiy tarzda o'tkazishlari mumkin. Talabalar hali ham atrofga qarash va virtual muhitni o'rganish imkoniyatiga ega, lekin ular buni o'zlarini yopiq his qilmasdan, tanish tarzda qilishlari mumkin. VR autizmli talabalar uchun foydali ekanligi aniqlandi. Striklend va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot. (2007) autizmli bolalar virtual muhitda o'rgangan ko'nikmalarini haqiqiy dunyoda qo'llashlari mumkinligini ko'rsatdi. Bunga yong'in va ko'cha / yo'l xavfsizligi bo'yicha ko'nikmalar kiradi

VR o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan o'quvchilarga va yosh bolalarga yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha yordam berishi mumkin. Virtual sayohat talabalarga VR yordamida unutilmas va immersiv joylashuvni his qilish imkonini beradi. Ruxsat qog'ozlari kerak bo'limganda, o'qituvchilar o'quvchilarni sinfdan chiqmasdan aql bovar qilmaydigan joylarga olib borishlari mumkin. VR garnituralaridan foydalangan holda, talabalar atrofga qarash va atrofni o'rganish uchun boshlarini harakatga keltirib, joylashuvni real tarzda his qilishlari mumkin. Deyarli har bir o'quvchi maktabga sayohat qilishni yaxshi ko'radi, xoh u muzeyga, yodgorlikka yoki hatto boshqa mamlakatga bo'ladimi. Afsuski, ko'plab talabalar turli sabablarga ko'ra ularni boshdan kechira olmaydilar. Bu nogironlik, xarajatlar yoki transport muammolari va boshqa sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. VR bilan har bir talaba bir xil ekskursiya tajribasidan bepul bahramand bo'lishi mumkin. 100% qatnashish bilan bunday inklyuziya darjasini an'anaviy sayohatlar bilan mumkin emas. Maktablar sinfdan chiqmasdan sayohat tajribasini taqdim etish orqali vaqt va pulni tejashlari mumkin. Ko'pgina maktablar virtual sayohatlarni haqiqiy maktab sayohatlari o'rniga hali ko'rmasa-da, tendentsiya, albatta, VR tomon. Maktab byudjetlari tobora siqilib borayotganligi sababli, sayohat, chiptalar va vaqt bilan bog'liq xarajatlarni tejashni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Dastlabki o'rnatish narxi va minimal o'qituvchilarni tayyorlashdan tashqari, virtual sayohatlar asosan bepul. Qolaversa, o'qituvchilarga ruxsatnomalar yozish va olish uchun vaqt sarflashning hojati yo'q. Ekskursiyalar uchun sarflangan xarajatlarni kamaytirish bilan bir qatorda, virtual sayohatlar talabalarga maktablarga tashrif buyurish uchun juda qimmat va amaliy bo'lмаган joylarni boshdan kechirish imkonini beradi. Butun sinfga kolizeyni his qilishiga imkon berish endi



mumkin.

Virtual sayohatlarning maktablarga qo'shadigan qiymati juda katta. Garchi ular muntazam sayohatlarni to'liq almashtirmasa ham, ularga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi va maktablarga arzon narxlarda talabalarga qo'shimcha tajriba taqdim etishi mumkin. Virtual maktab sayohatlari an'anaviy o'qish va yozishdan yoqimli o'zgarishlarni taklif qiladi. Ular mavzuni buzish yoki yangisini kiritish usuli sifatida ishlatilishi mumkin va ular o'quvchilarning diqqatini jalg qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ko'plab o'qituvchilar turli xil o'qitish usullarini taklif qilish muhimligini tushunishadi, bu talabalarga turli yo'llar bilan o'rganishga yordam beradi. Har bir talaba an'anaviy o'qitish bilan yaxshi o'rganmaydi va VR talabalarni jalg qilishning yana bir ajoyib usulini taklif qiladi. Atrof-muhitni o'rganish haqida gap ketganda, u erda bo'lish o'rnini bosa olmaydi. Oddiy tasvirlar va videolar matndan ko'ra yaxshiroq bo'lsa-da, bu erda VR haqiqatan ham porlaydi. Virtual dala sayohati bilan talabalar o'zlarini xuddi shu joyda bo'lgandek his qilishlari va miqyos va atrofni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bu tarixni o'rganish va yodgorlikni ziyorat qilish yoki atrof-muhitni o'rganish va qo'riqxonaga tashrif buyurish bo'lishi mumkin. Imkoniyatlar haqiqatan ham cheksizdir. Virtual kontent dars rejasi va mavzusiga moslashtirilishi mumkin, bu o'qituvchilar va maktablarga hikoyani nazorat qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, VR texnalogiyalari ta'lim jarayonlarini yengillashtiradi, takomillashtiradi va amaliyotda qo'llab ko'rildi. VR texnalogiyalarini nafaqat ta'limda qolaversa ko'plab sohalarda keng qo'llanilishi mumkin, albatta. Chunki har bir sohada zamонавиј texnalogiyalardan foydalanilsa albatta yaxshi tomonga o'sish kuzatiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *Форум молодых ученых*, (3 (31)), 35-43.
2. Mulaydinov, F. (2021). Digital economy is A guarantee of government and society development. *Ilkogretim Online*, 20(3), 1474-1479.
3. Mulaydinov, F. M. (2022). MAK TABGACHA TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(1).



ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ МАШҒУЛОТ  
МЕЗОНЛАРИ ВА БЕЛГИЛАРИ

Чинкулова Гулмехра Баҳроновна

Самарқанд давлат чет тиллар институти  
роман-герман тиллари факултети тьютори.  
[gulmehracinkulova@gmail.com](mailto:gulmehracinkulova@gmail.com)

**Аннотация:** ўқув машғулотининг турлари, ўқув машғулоти элементлари, ўқув машғулотлари типи, ўқув машғулоти типи, дарс методикаси, ўқув машғулотига тайёргарлик босқичлари ва машғулот турлари ҳақида айтиб ўтилган.

**Калит сўзлар:** таълим жараёни, дарс машғулоти, ўқув машғулотининг тузилиши, машғулот элементлари, машғулот типи, тайёргарлик босқичлари, машғулот турлари.

**Аннотация:** Рассматриваются виды учебных занятий, элементы учебных занятий, виды учебных занятий, виды учебных занятий, методы обучения, этапы подготовки к учебным занятиям, виды учебных занятий.

**Ключевые слова:** образовательный процесс, урочное обучение, структура образовательного обучения, элементы обучения, вид обучения, подготовительные этапы, виды обучения.

**Abstract:** The article examines the types of training sessions, elements of training sessions, types of training sessions, types of training sessions, teaching methods, stages of preparation for training sessions, types of training sessions.

**Key words:** educational process, lesson teaching, structure of educational teaching, elements of teaching, type of teaching, preparatory stages, types of teaching.

Ўқув машғулоти қизиқарли ва ўзига жалб қилувчи бўлиши - таълим оловчига ўз малакасини, билимини, тушунчаларини ва дунёқарашини такомиллаштиришга имконият яратиши, фан дастурида талаб этилган материални ўз ичига олиши, тушунарли ва ўрганишга қулай бўлиши, таълим оловчиларнинг имкониятига мос равищда ёзилиши, уларнинг барчаси учун машқлар берилиши, таълим оловчига ўтаётган мавзусини тушунишда ёрдам берадиган мисол, масала, ва амалий машғулотлар билан таъминланиши, назарий ғояларни тушунтиришда ёрдам берадиган расм ва диаграммалар мавжуд бўлиши, республикамизнинг миллий ва маданий анъаналари ҳамда миллий қадриятларини ҳисобга олиши зарурлиги, бошқа фанлар билан узвийлик таъминланиш лозим.

Олий таълим муассасаларида ўқув машғулотларини ташкил этиш муаммоларига қаратилган изланишлар шуни кўрсатдики, замонавий таълим бериш ва ахборот технологиялардан фойдаланилган, билимларни мустақил ўзлаштиришга йўналтирилган, назарий билимларни амалий кўникмаларда қўллаш, ўргатиш ва баҳолаш тизимини ўзида қамраб олган ўқув машғулотлари самарали ўқитиш воситаси бўлиб хизмат қилиши мумкин. Қўйида ушбу машғулот шаклларидан айримларини кўриб ўтамиш.

**Маъруза машғулоти.** Бунда ўрганилаётган мавзу материалининг кўпроқ назарий қисми баён этилади. Таълим оловчилар фаолияти ва баён этилиш хусусияти бўйича маъруза: ахборотли, тушунтирувчи ва сухбат- маъруза шаклида бўлади.



Машғулотнинг маъруза шакли мақсадга мувофиқ бўлади агар: олдингилари билан кам боғлиқ бўлган янги материални ўрганилса ҳамда материални мустақил ўрганиш учун мураккаблик кўриб чиқилса.

**Семинар машғулоти:** бу диалог шаклида ўтказиладиган, аниқ мавзу бўйича ўқитиш ва тарбиялаш жараёнининг олдиндан тайёрланган ва ўйланган шаклидир. Кўпроқ бундай машғулотлар ўрганилган материални такрорлаш учун ўтказилади. Педагог олдиндан мавзу бўйича қатор саволларни тайёрлайди ва таълим олувчилар ўртасида тақсимлайди. Улар мустақил ҳолда барча саволлар бўйича жавобларни ёзишади. Таълим олувчининг чиқишидан кейин унга синф мавзу бўйича саволлар беради. Баҳолаш педагог томонидан амалга оширилади.

**Факультатив машғулот:** бу таълим олувчиларни фанни ўрганишга қизиқиш уйғотишга, уларнинг мазмунини чуқурлаштиришга, билиш фаолиятини фаоллаштиришга, мустақил ҳаётга, меҳнат фаолиятини бошлашга ва таълимни давом эттиришга йўналтирилган машғулотдир. У таълим олувчиларнинг дунёқарашини кенгайтириш, шахсий сифатларини шакллантириш, ижодкорлик потенциалини ривожлантиришга мўлжалланган. Бу машғулот туфайли ҳар бир таълим олувчи ўз-ўзини аниқлаши, ўзини билишга интилиши, аниқ ишда ўзини намоён этиши мумкин.

**Амалий машғулот:** бу назария билан амалиётни алоқасига, ўқув-амалий билиш вазифаларини ечишга қаратилган, илмий-луғавий, техник ва бошқа адабиётлардан фойдаланиш кўникмаларини шакллантиришга йўналтирилган ўқув машғулотини ўтказиш шаклидир. Унинг мақсади ўқитишнинг амалий йўналганлигини кучайтиришдан иборат. Уларни ўтказишнинг асосий шакллари, амалий ишлар ҳисобланади. Бунда таълим олувчилар назарий билим ва кўникмаларини амалиётда қўллаш имкониятларига эга бўлади. Қоидага кўра, амалий машғулот назарий билимларни амалиётда фойдаланиш кўникма ва малакаларини шакллантиришни назарда тутувчи энг асосий мавзуларга йўналтирилгандир.

**Лаборатория машғулоти:** фанлар илмий-назарий асосини чуқур ўрганишга, замонавий методларни ўзлаштиришга, маҳсус аппаратура ва асбоб-ускуналарда эксперимент ўтказа олишга йўналтирилган ўқув машғулотини ташкил этиш шаклидир. Бундай машғулотларда таълим олувчилар ўтказиладиган тажрибалар асосида ҳодисалар, қонуниятлар, хоссалар, қонунларни билиш жараёнига киришади. Бу уларга амалиётда машина, жараёнларни ўзлаштиришга, аппаратура, схема, моделлар, ўлчаш техникаларидан фойдаланишга имкон беради.

**Машғулотнинг диалог шакли:** у нутқ ёки матннинг алоқадор тури сифатида қаралади. Диалогда асосий ролни вазият, жест, мимика, интонация ўйнайди. Унинг учун бир қанча стилистик хусусиятлар характерли: саволлар, ундов, эллиптик конструкция, заррачалар, мурожаат кабилар.



**Замонавий машғулот мезонлари ва белгилари**



**1-расм. Замонавий машғулот мезонлари ва белгилари**

Юқорида кўрсатиб ўтилган вазифаларни муваффақиятли бажариш ҳамда  
Июль | 2025, 1-қисм



бажарилган ишларни баҳолаш учун аниқ ўйланган тизим лозим, бунда таълим жараёнида олиб борилган ҳар бир машғулот турининг вазифаси ва ўрни, унинг ўхшаш метод, усул ва воситаларидан фойдаланиш, ўқув ва луғавий адабиётлар билан ишлаш, берилган мавзу бўйича реферат тайёрлаш, презентация қилиш, портфолио учун материаллар тайёрлаш, гуруҳли ишлар учун топшириқларни ўйлаш, лаборатория ишларини бажариш, лойиҳаларни ишлаб чиқиш, ўқув вазиятларини моделлаштириш каби аниқ белгиланган вазифаларни бажаришни лозим қилиб қуяди.

Шуни таъкидлаш керакки, таълим жараёнида ҳар бир ўқув машғулотларидан алоҳида-алоҳида фойдаланишнинг кераги йўқ. Фақат уларни биргалиқда қўллаш кутилаётган натижаларни беради. Биргалик педагог томонидан таълим вазифалари, мавзу хусусиятлари материал ҳажми билан ечиш асосида аниқланади.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Б.Х.Рахимов – проф.; А.Мавлянов – ф.м.ф.н.; С.Р.Абдалова – п.ф.н.; А.Э.Эрназаров. Ўқув машғулотларини замонавий ташкил этиш ва ўтказиш технологиялари (Ўқув-услубий қўлланма).
2. ЭРНАЗАРОВ, А. Э. (2024). ОТМлар ўқув машғулотларида замонавий педагогик технологиялар. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 361-366.
3. Ernazarov, A. (2024). Form and content of organizing independent education in training lessons. *european journal of innovation in nonformal education*, 4(2), 174-179.
4. Ernazarov, A. E. (2024). Modern pedagogic technologies in training sessions of HEIs. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation* (2993-2777), 2(2), 11-14.
5. Эрназаров, А. Э. (2024). Ўқув машғулотларини замонавий ташкил қилишда таълим мақсадларини аниқлаштиришнинг аҳамияти. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 4(2), 344-350.

БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАРPOST-COVID SINDROMIDA OIV INFEKSIYASI BILAN KASALLANGAN  
BEMORLARDA KO'RUV NERVI KASALLIKLARINING O'ZIGA XOS  
KECHISHID. K. Mahkamova<sup>1</sup>, M.A. Qayumov<sup>2</sup>, Sh.Sh. Xaydarov<sup>2</sup>Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyat markazi<sup>1</sup>,  
Namangan viloyat ko'p tarmoqli tibbiyat markazi. Ko'z kasalliklari bo'limi<sup>2</sup>.[Sher0720@mail.ru](mailto:Sher0720@mail.ru)

Postkovid sindrom-(PKS)-bu korona virus infeksiyasi (COVID-19) natijasida yuzaga keladigan simptomlar to'plami bo'lib, u bilan kasallangan bemorlarning 20% uzoq muddatli asoratlardan aziyat chekadi. Ushbu asoratlarning davomiyligi juda o'zgaruvchan bo'lib, ular 12 haftadan ko'proq davom etishi mumkin. Manbalarga ko'ra, COVID-19 dan keying sindrom klinik sog'ayishdan keyin 3-6 oy ichida qayta paydo bo'lishi mumkin. Bu holat turli xil nospetsefik simptomlar bilan tavsiflanadi va ayrim organlarning disfunksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'z kasalliklari orasida nevrit, retrobulbar nevrit, neyroxorioretinit, vaskulit, retinit yuqori orbital sindromva kavernoza sinus trombozi boshqa kasalliklar uchrashi mumkin. Shuningdek Postkovid sindromi o'tkir COVID-19 dan keyin paydo bo'ladigan asoratlar, immuniteti zaif bo'lgan OIV infeksiyasi bo'lgan bemorlarda o'ziga xos xususiyatlari, shu jumladan ko'rav nervini zararlanishi kuzatiladi. Bu holat ko'rish qobiliyatini pasayishi va ko'rmaslik xavfi asoratlar tufayli alohida e'tibor talab qiladi.

**Kelib chiqishi va rivojlanishiga ko'ra**

-OIV bilan kasallangan bemorlarda PKS paytida ko'rav nervning zararlanishi bir necha omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

-Immunitetning buzilishi: OIV CD4+ limfotsitlarining kamayishiga olib keladi, bu virusli va bakterial infeksiyalarga qarshi immunitetni buzadi.

-Yallig'lanish jarayonlari: COVID-19 tizimli yallig'lanishni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa o'z navbatida vaskulit va ko'v nervi ta'sir qiluvchi boshqa yallig'lanish kasalliklariga olib keladi.

### **Klinik ko'rinishlar**

- To'satdan ko'rish qobiliyatining yo'qolishi yoki yomonlashuvi

- yuqori qovoqlar tushishi

- ayrim xollarda ko'zda og'riq yuzaga kelishi mumkin

Ushbu simptomlar COVID-19 dan keying sindromning umumiyligi belgilari bilan birga kelishi mumkin, masalan, charchoq, bosh og'rig'I va ko'gil aynish, umumiyl xolsizlik.

### **Tashxislash usullari**

Ko'rav nervining zararlanishini aniqlash uchun quyidagilar tekshiruvlar qolilaniladi:

- Standart va qo'shimcha oftalmologik: ko'rav nervi, to'r parda va ko'rish maydoni holatini baholash.

- Magnit-rezonans tomografiyasi (MRT): yallig'lanish o'zgarishlari va shishlarni aniqlash uchun.

- Laboratoriya tadqiqotlari: Umumiyl qon, siydik, revma faktorlar, koagulogramma,



antitela SARS-covid-19. OIV darajasini, CD4+ limfotsitlarini va boshqa yallig'lanish belgilarini aniqlash.

- Ko'rsatmaga asosan: LOR, Nevropatolog, Neyroxirurg, Infeksionist, terapevt, Revmatolog va boshqa mutaxassislar/

### Davolash

Postkovid sindromi natijasida OIV infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda ko'rur nervining nevriti bo'lgan bemorlarda davolash quyidagilarni o'zichiga oladi:

- Antibiotik, virus, zamburug'larga qarshi, antikoagulyant, shishlarga qarshi va neyroprotektiv terapiya bosqichma-bosqich boshqa mutaxassislar (neyroxirurg, yuz-jag'jarrohi, nevrolog, terapevt, kardiolog) bilan birgalikda olib boriladi.

### Natija

Natijaga ko'ra ko'rur nervining zararlanish darajasi va davolanishning boshlanish vaqtiga bog'liq. Erta diagnostika va davo natijalarini yaxshilashi va ko'rish qobiliyatini yo'qotish xavfini kamaytirishi mumkin. Ammo COVID-19 dan keying sindromning og'ir ko'rinishlariga ega bo'lgan bemorlarda salbiy natijalar bo'lishi mumkin.

### Xulosa

Postkovid sindromi bo'lgan OIV infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda ko'rur nervining zararlanishi tashxislash va davolashda kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu shikastlanish mexanizmlarini tushunish va samarali terapevtik strategiyalarni ishlab chiqish uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarur. Shu bilan birga, COVID-19 dan keying davrda, ko'pincha markaziy ko'rish o'tkirligi yuqori bo'lgan ko'zlarda to'r pardasi yorug'lik sezgirligining buzilishi skotoma va ko'rish maydonining periferik chegaralarining torayishi ko'rinishida kuzatilishi mumkin, bu esa keyinchalik ko'rur nervining patologiyalariga olib kelishi mumkin. Yuqorida bayon etilgan holatni o'zvaqtida aniqlash va davolash ikki ko'zda ko'rish qibiliyatining yo'qolishining oldini olish imkonini beradi. Shunday qilib, COVID-19 kasalligining avj olgan davri kabi, keying davri ham muhimdir, chunki bu davrda, immune va gemodinamik tizimlar bilan bog'liq muammolar tufayli, shuningdek, SARS-CoV-2 ga chalingan organizmda hali tiklanmagan patologik reaksiyalar oqibatida turli xil tizimli asoratlar rivojlanishi mumkin, bu esa og'ir holatlarga, hatto o'limga olib kelishi mumkin. Shu sababli, COVID-19 ga chalingan bemorlarni, uzoq muddatda, birnecha oy davomida kuzatib boorish zamonaviy tibbiyotning muhim vazifasi hisoblanadi.

### Adabiyotlar:

1. K. M. et al. "Visual complications in HIV and COVID-19: a clinical overview." \*Ophthalmology\*, 2022.
2. S. R. et al. "Post-COVID syndrome in HIV patients: implications for care." \*Journal of Infectious Diseases\*, 2023.
3. J. T. et al. "Neurological manifestations of COVID-19 in HIV-infected individuals." \*Neurology\*, 202



## КОНСЕРВАТИВНЫЕ И ХИРУРГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ ГИПЕРТРОФИЧЕСКОГО РИНИТА

Хасанов У.С., Абдурахимова Ш.С.

Республиканский специализированный

научно-практический медицинский

центр оториноларингологии и болезней головы и шеи

[bonusha-uz@list.ru](mailto:bonusha-uz@list.ru)

**АННОТАЦИЯ:** Заболеваемость носа и околоносовых пазух занимает одно из ведущих мест в структуре ЛОР патологии и имеет тенденцию к увеличению в общей нозологии человека, а также по количеству госпитализированных больных. Цель данного обзора является изучения консервативных и хирургических методов лечения гипертрофического ринита. Материал обзора составил научные публикации за последние 10 лет, опубликованных в международных базах E-library, Scopus и Web of Science. Таким образом, следует вывод, что изучение лечения гипертрофического ринита является важным элементом.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** гипертрофический ринит, диагностика, клиническое течение, лечение.

Методы лечения гипертрофического можно условно разделить на консервативные, полухирургические (полуконсервативные) и хирургические. Также относительно условно консервативные методы (медикаментозное лечение, внутриносовые блокады, физиопроцедуры и т.д.) применяют при кавернозной форме ГР, хирургические - при фиброзной, а при смешанной - полухирургические (в основном физические методы лечения). Условность разделения перечисленных методов лечения очевидна, так как любая инструментальная лечебная инвазия в полости носа может быть отнесена к хирургическому вмешательству. Относительная условность выбора метода лечения в зависимости от формы ГР заключается в отсутствии четкой общепринятой классификации этих форм, закрепленной на уровне федерального стандарта.

Сравнительная оценка различных методов лечения ГР подчеркивает актуальность проблемы адекватности выбора и остается постоянным предметом дискуссий. Необходимо отметить, что использование современных технологий при различных вмешательствах зачастую зависит от наличия в клинике того или иного оборудования. Хирурги же лишены возможности выбора, а иногда и не представляют в деталях особенностей взаимодействия различных видов излучения с тканями и их последствий.

Метод гальванокаустики известен с начала XX века и используется в некоторых отечественных клиниках до настоящего времени. В основе этого метода лежит использование высокой температуры, образованной за счет постоянного тока на платиновом наконечнике. Однако, нагретый до красного каления электрод вызывает глубокий ожег слизистой оболочки с последующим развитием струпа и рубцеванием, т.е. потерей функционально активного участка слизистой.

Метод криохирургического воздействия на слизистую оболочку носовых раковин



также применяется до настоящего времени, хотя пик его популярности пришелся на 70-80-е годы XX века, что в нашей стране связано с развитием в некоторых регионах производства жидкого азота, а затем разработкой и внедрением криохирургической аппаратуры. Десквамация и метаплазия эпителия после первичного воздействия жидким азотом уменьшаются, при повторном вмешательстве отмечено формирование ресничек и восстановление эпителия слизистой оболочки носовых раковин, что подтверждено данными электронной микроскопии. Безусловно, необходимость и сложность закупки, доставки и хранения жидкого азота снижает возможность использования метода в амбулаторном звене.

Применение ультразвука в лечении ГР началось с консервативных методик. Первые работы о применении ультразвуковой терапии при ринитах и других заболеваниях носа и его придаточных пазух относятся к 50-м годам прошлого века. Подавляющее большинство указанных исследователей с терапевтической целью применяли ультразвук довольно высокой интенсивности, превышающей современные дозы в несколько раз. Было установлено, что одним из основных проявлений деструктивного действия ультразвука является феномен мгновенных разрывов клеточных структур.

Уже первый опыт применения ультразвуковой дезинтеграции носовых раковин выявил высокую эффективность, доступность и безопасность метода, который быстро нашел широкое распространение в нашей стране, чему способствовала отечественная разработка и производство прибора. Для проведения данного воздействия применяется прибор ЛОРАДОН, также разработанный в нашей стране, который во многих клиниках используется до настоящего времени.

Однако при длительном наблюдении в послеоперационном периоде частота рецидивов заболевания и необходимости повторных вмешательств достигает 30-35%. Кроме того, до конца не изучен характер повреждения тканей под слизистой оболочкой при этом методе, что делает затруднительным дозирование коагулирующего воздействия на ткани раковин. Это в частности побудило к необходимости усовершенствования, прибора и созданию волноводо-дезинтегратора, с прогнозируемым коагулирующим действием.

Метод высокочастотной холодно-плазменной абляции начал активно разрабатываться с середины 1990-х годов. Технология холодноплазменной хирургии обеспечивает минимизацию повреждения окружающих тканей и реактивных послеоперационных осложнений, что создает успешные предпосылки ее использования для лечения гипертрофического ринита.

Как и холодно-плазменная абляция относительно новым методом лечения ГР является радиоволновая (радиочастотная) субмукозная коагуляция носовых раковин. Для этой цели используют приборы «сургитрон», ЭЧВЧ-Е80 и др.. Высокочастотные электрохирургические аппараты в диапазоне от 100 КГц до 105 МГц называют радиочастотными, причем радиочастоты, превышающие 2 МГц называют радиоволновыми. В радиохирургии атравматичное вмешательство достигается за счет прохождения через биологическую ткань радиочастотного электрического тока от активного электрода к нейтральному, вызывая нагрев тканей в области касания активного электрода.

Применение лазеров в оториноларингологии и лечении ГР заслуживает отдельного



анализа в силу многочисленности исследований, посвященных использованию различных типов лазерного излучения при избранной патологии. Эффективность низкоэнергетического лазерного излучения, т.е. терапевтического лазера у больных гипертрофическим ринитом вызывала сомнение у самих авторов исследования. Лазерная хирургия хронических ринитов обладает рядом очевидных преимуществ: операция проводится безболезненно, бескровно, не требует тампонады полости носа и пребывания больного в стационаре. В по-слеоперационном периоде в меньшей степени образуются корки, раньше наблюдалась заживление. И все же возникает закономерный вопрос о сравнительной эффективности различных типов лазеров, если, по мнению исследователей, они все дают хорошие результаты лечения, при том, что разнообразие длин волн определяет и разнообразие биологических эффектов.

Для вмешательства на носовых раковинах используются различные лазерные системы: CO<sub>2</sub>, аргоновый, Ho:YAG, полупроводниковый, KTP Nd:YAG, на парах меди, и др..

Несмотря на появление значительного числа новых методов лечения ГР с применением физических факторов, до настоящего времени остаются востребованными различные виды хирургических вмешательств, часть из которых также основывается на использовании приборов с механическим или физическим воздействием. Стандартная конхотомия (чаще нижняя) сегодня практически вытеснена более щадящими методиками, нередко основанными на эндоскопических технологиях. Речь идет о таких вариантах лечения, как щадящая конхотомия, подслизистая вазотомия, турбинопластика, внутрислизистая вакуум-резекция, резекция задних концов нижних раковин. Особое место в этом ряду занимает функциональная эндоскопическая ринохирургия с использованием микродебрайдера (микродебридера). Малая инвазивность и высокая эффективность метода не вызывают сомнений. Недостатком метода можно признать недостаточную доступность и необходимость определения точного объема удаляемых тканей нижних раковин. При помощи компьютерной программы можно видеоэндоскопически рассчитать оптимальный объем тканей, препятствующих нормальному носовому дыханию.

### Список использованной литературы:

1. Bergmark R. W., Gray S. T. Surgical management of turbinate hypertrophy //Otolaryngologic Clinics of North America. – 2018. – Т. 51. – №. 5. – С. 919-928.
2. Emilia G. et al. Clinical and treatment aspects in chronic hypertrophic rhinitis in children //The Moldovan Medical Journal. – 2021. – Т. 64. – №. 3. – С. 11-15.
3. Gelardi M. et al. Turbinate surgery: Which rhinitis are most at risk //Acta Bio Medica: Atenei Parmensis. – 2022. – Т. 93. – №. 4. – С. e2022249.
4. He Y. et al. Pharmacovigilance analysis of drug-induced hypertrophic rhinitis using FAERS data //Scientific Reports. – 2025. – Т. 15. – №. 1. – С. 23937.



5. Hizli O., Kayabasi S., Ozkan D. Is nasal septal body size associated with inferior turbinate hypertrophy and allergic rhinitis? //Journal of Craniofacial Surgery. – 2020. – Т. 31. – №. 3. – С. 778-781.
6. Karamatzanis I. et al. Inferior turbinate hypertrophy: a comparison of surgical techniques //Cureus. – 2022. – Т. 14. – №. 12.
7. Liva G. A., Karatzanis A. D., Prokopakis E. P. Review of rhinitis: classification, types, pathophysiology //Journal of clinical medicine. – 2021. – Т. 10. – №. 14. – С. 3183.
8. Mihalcea R. G. et al. Histological findings in chronic hypertrophic rhinitis //ORL. ro. – 2023. – №. 61.
9. Yan C. H., Hwang P. H. Surgical management of nonallergic rhinitis //Otolaryngologic Clinics of North America. – 2018. – Т. 51. – №. 5. – С. 945-955.



## ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ГИПЕРТРОФИЧЕСКОГО РИНИТА

Хасанов У.С., Абдурахимова Ш.С.

Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр оториноларингологии и болезней головы и шеи

[bonusha-uz@list.ru](mailto:bonusha-uz@list.ru)

**АННОТАЦИЯ:** Проблема диагностики и лечения различных широко распространенных во всем мире заболеваний носа, по-прежнему, остается нерешенной и поэтому актуальной. Одной из распространенных патологий, в этиологии и патогенезе которых остаются неясности, является гипертрофический ринит. Цель данного обзора является изучение различных взглядов на актуальные вопросы вазомоторного ринита у детей. Материал обзора составил научные публикации за последние 10 лет, опубликованных в международных базах E-library, Scopus и Web of Science. Таким образом, следует вывод, что изучение вопросов гипертрофического ринита является актуальным и требует дальнейших исследований.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** гипертрофический ринит, распространение, диагностика, клиническое течение.

Заболеваемость носа и околоносовых пазух занимает одно из ведущих мест в структуре ЛОР патологии и имеет тенденцию к увеличению в общей нозологии человека, а также по количеству госпитализированных больных.

Удельный вес гипертрофического ринита в структуре заболеваний ЛОР-органов составляет по данным разных авторов от 4,1-6,5% до 16-18% и также имеет тенденцию к увеличению.

Основной и самой главной функцией полости носа является проведение воздушного потока. Затруднение носового дыхания - это не только субъективный симптом, отражающий качество жизни, человека, но и проявление целого ряда заболеваний, связанных с изменением размеров внутриносовых структур.

Носовое дыхание нарушается по разным причинам. Основными из них являются сужение или увеличение просвета полости носа. К первым можно отнести гипертрофический ринит, деформацию носовой перегородки, полипы и опухоли, а ко вторым атрофический ринит, последствия некорректного оперативного вмешательства и т.д.

**Анатомо-физиологические особенности слизистой оболочки полости носа** предопределяют ее контакт с неблагоприятными факторами внешней среды, отрицательно влияющими на состояние эпителия, что снижает защитные свойства полости носа и приводит к развитию патологических изменений в нижних отделах дыхательных путей, а затем и во всем организме.



Дыхательные пути в анатомо-физиологическом отношении образуют единое целое, а в условиях клиники патологический процесс в одном отделе неблагоприятно отображается на состоянии другого. Это в очередной раз подтверждает необходимость ранней диагностики и лечения заболеваний верхних дыхательных путей, а значит и полости носа.

Одной из наиболее часто встречаемой причин развития обструкции носовых ходов является гипертрофия носовых раковин, но прежде нужно определить, что следует понимать под гипертрофией. В соответствии с международным консенсусом ВОЗ гипертрофический ринит и гипертрофия носовых раковин не выделяются как диагноз, а могут иметь место при аллергическом, профессиональном, гормональном, медикаментозном ринитах, а также могут быть отнесены к хроническому неспецифическому риниту. Если же рассмотреть МКБ-10, то гипертрофия носовых раковин относится к X классу под кодом J34.3. В настоящее время МКБ-10 является основным инструментом статистических разработок информации о здоровье населения и деятельности учреждений здравоохранения. Она используется как средство сбора анализа данных о заболеваемости и причинах смерти населения, оценки сдвигов в здоровье населения, состояния медицинской помощи, что необходимо для эффективного планирования здравоохранения. МКБ-10 обеспечивает методическое единство и сопоставимость результатов изучения заболеваемости населения, причин смерти и поводов обращения в медицинские учреждения, как в пределах страны, так и между странами. В отечественной клинической практике по-прежнему применяется термин хронический гипертрофический ринит, с подразделением на кавернозную и фиброзную формы, что в частности обусловлено работой в системе обязательного медицинского страхования.

Необходимо также различать понятия о гипертрофии и гиперплазии тканей. Общепринято под гипертрофией ткани понимать увеличение объема органа тела или отдельной его части в результате увеличения объема отдельных составных элементов органа (клеток и тканей), либо вследствие увеличения их количества, то есть увеличения числа структурных элементов тканей и органов, что и является гиперплазией. Так как в основе гиперплазии лежит усиленное размножение клеток и образование новых структур, этот процесс наблюдается при разнообразных патологических разрастаниях, в том числе хроническом продуктивном воспалении. Мышечная ткань, присутствующая как важный составной элемент в структуре кавернозной ткани полости носа, в тестах с тестостероном может увеличиваться в размерах не только путем гипертрофии, но и в некоторой степени благодаря гиперплазии.

При «rhinitis chronica hyperplastica» происходит разрощение тканевых элементов, развивающееся не диффузно во всей оболочке, но в ограниченной форме на определенных местах; такими излюбленными местами являются передние и задние концы нижней и средней раковин. Иногда бывает утолщен также весь нижний край нижней раковины».

Признавая значимость нижней носовой раковины, как основного компонента эндоназальных анатомических структур, при эндоскопическом обследовании 1250 пациентов выявил в 93% случаев деформации перегородки носа и в 50% наблюдений гипертрофию средней носовой раковины. Возможности



компьютерной томографии высокого разрешения в визуализации анатомического строения решетчатого лабиринта значительно дополняют данные индивидуальных анатомических особенностей пациента, определяя тем самым характер возможного вмешательства.

Таким образом, гипертрофия (возможно гиперплазия) носовых раковин развивается в силу множества различных по своей природе факторов, включая экзогенные и эндогенные факторы. Неблагоприятные воздействия внешней среды физической и химической природы, инфекционные агенты и аллергены, травмы и вредные привычки, анатомические предпосылки и заболевания внутренних органов приводят к увеличению размеров носовых раковин, затруднению носового дыхания, изменению качества жизни пациентов и в конечном итоге часто к необходимости хирургического вмешательства, высокой заболеваемости населения гипертрофическим ринитом.

Заболеваемость населения представляет собой самостоятельную проблему, требующую специального изучения. Под заболеваемостью населения понимают возникновение и распространение среди населения патологии, развивающейся в результате взаимодействия с окружающей средой настоящих и предшествующих поколений людей. В статистике заболеваемости используют несколько методов изучения, основными из них являются: по данным обращаемости, по данным медицинских осмотров, по данным причин смерти.

Учитывая высокую распространенность гипертрофического ринита данное направление является актуальным, что обуславливает изучение региональных эпидемиологических аспектов патологии, совершенствование методов диагностики и лечения гипертрофического ринита.

### Список использованной литературы:

1. Akamatsu M. et al. Hypertrophic rhinitis without sinusitis histologically compatible with IgG4-related disease //Otolaryngology Case Reports. – 2021. – T. 19. – C. 100294.
2. Bergmark R. W., Gray S. T. Surgical management of turbinate hypertrophy //Otolaryngologic Clinics of North America. – 2018. – T. 51. – №. 5. – C. 919-928.
3. Ciprandi G., Tosca M. A. Turbinate hypertrophy, allergic rhinitis, and otitis media //Current allergy and asthma reports. – 2021. – T. 21. – №. 7. – C. 40.
4. El-Morsy M., Al Awady M., Mostafa O. Histopathological study of compensated inferior turbinate hypertrophy and its hypertrophy in allergic rhinitis //The Scientific Journal of Al-Azhar Medical Faculty, Girls. – 2020. – T. 4. – №. 2. – C. 269-269.
5. Emilia G. et al. Clinical and treatment aspects in chronic hypertrophic rhinitis in children //The Moldovan Medical Journal. – 2021. – T. 64. – №. 3. – C. 11-15.
6. Furculita D. Laser treatment of hypetrophic rhinitis in children and evaluation of rhinomanometry results //Revista de Științe ale Sănătății din Moldova. – 2022. – T. 29. – №. 3 An. 1. – C. 358-358.
7. Furculita D., Manyuk M. Evaluation of the quality of life in patients with chronic hypertrophic rhinitis pre-and post-operative //Perspectives of the Balkan medicine in the post COVID-19 era. – 2023. – C. 222-222.



8. Gelardi M. et al. Turbinate surgery: Which rhinitis are most at risk //Acta Bio Medica: Atenei Parmensis. – 2022. – Т. 93. – №. 4. – С. e2022249.
9. He Y. et al. Pharmacovigilance analysis of drug-induced hypertrophic rhinitis using FAERS data //Scientific Reports. – 2025. – Т. 15. – №. 1. – С. 23937.
10. Karamatzanis I. et al. Inferior turbinate hypertrophy: a comparison of surgical techniques //Cureus. – 2022. – Т. 14. – №. 12.
11. Liva G. A., Karatzanis A. D., Prokopakis E. P. Review of rhinitis: classification, types, pathophysiology //Journal of clinical medicine. – 2021. – Т. 10. – №. 14. – С. 3183.
12. Mihalcea R. G. et al. Histological findings in chronic hypertrophic rhinitis //ORL. ro. – 2023. – №. 61.
13. Yan C. H., Hwang P. H. Surgical management of nonallergic rhinitis //Otolaryngologic Clinics of North America. – 2018. – Т. 51. – №. 5. – С. 945-955.



## BOLALARDA NOG'ARA PARDA TESHILISHINING RIVOJLANISH ETIOLOGIYASI VA PATAGENEZINI O'RGANISH

**Mahammadjonova Ruxshona Shuhrat qizi  
Toshtemirova Xolisxon Akmal qizi**

Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti 3-bosqich talabasi.

Ilmiy raxbar: Ichki kasalliklar nefrologiya va gemodializ kafedrasi assisenti


**PhD Mirsaidova Hilola Mirjalilovna**

**Kalit so'zlar:** Nog'ora parda teshilishi, ichki qulqoq, travma, infeksiya, eshitishning pasayishi, qulqoda shovqin, labirint, dahliz chig'anoq, yiringqliquloq kasalliklari, karlik.

Hozirgi vaqtida tibbiyotning sezilarli darajada rivojlangan bo'lishiga qaramay bolalar o'rtasida nog'ora pardaning teshilish holati juda ko'p uchrab turibdi. Bu o'z navbatida bolalarda erta kundan eshitish qobiliyatini pasayishiga yoki butunlay yo'qolishiga olib kelmoqda. Bu kasallikni kelib chiqish mexanizmini va bunga sabab bo'lувчи faktorlarni o'rganish va uni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish bemorlar orasida nogironlik darajasini kamayishiga va ularning normal eshitish qobiliyatini uzoq vaqtgacha saqlab qolishga yordam beradi.

Jahon Sog'likni Saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra yer yuzida taxminan 500 mingdan ortiq insonda nog'ora parda teshilishi natijasida eshitish faoliyatini pasayishi va karlik holatlari yuzaga keladi. To'g'ridan-to'g'ri qulqoqqa turli xildagi infeksion va noinfeksion omillar ta'siri natijasida nog'ora pardaning teshilishi 90% holatda kuzatiladi.



Inson organizmida qulqoq eng muhum vazifalardan biri ya'ni eshitish funksiyasini ta'minlaydi. Qulqoq uch qismidan tashkil topgan bo'lib bular tashqi qulqoq, o'rta qulqoq, va ichki qulqodan tuzilgan. Bularning har biri ma'lum bir vazifani ta'minlab turadi. Masalan, tashqi qulqoq (aurus externa) qulqoq suprasi (auricula) va tashqi eshituv yo'lidan (meatus acuticus externa) tuzilgan bo'lib tovushlarni yig'ish va nog'ora parda tomon yo'naltirish vazifasini o'taydi.



Nog'ora parda-membrana tympanica tashqi eshituv yo'li bilan o'rta qulqoq-nog'ora



bo'shlig'i orasida joylashadi. Nog'ora parda (membrana tympani) qalinligi 0,1 mm, bo'yи 10 mm, eni 8 - 9 mm, sathi 55- 60 mm<sup>2</sup> bo'lgan juda yupqa oval tuzilma bo'lib, tashqi qulqoqni o'rta qulqdan ajratib turadi. Tashqi eshituv yo'lining o'qiga nisbatan bolalarda nog'ora parda 30 gradus o'tkir burchak (kattalarda 45 gradus) hosil qilib joylashadi. Pardanining tashqi qirrasi fibroz halqa-anulus fibrocartilagineus vositasida tashqi eshituv yo'lining-sulcus tympanicus egatiga birikib turadi. Katta yoshdagilarda parda qiya holda bo'lsa, chaqaloqlarda gorizontal joylashadi. Nog'ora pardaga o'rta qulq bo'shlig'i tarafidan bolg'acha-malleus birikishi natijasida, tashqi yuzasida ichiga tortilgan chuqurcha nog'ora parda kindigi umbo membranae tymponicae hosil bo'ladi. Pardanining asosini fibroz biriktiruvchi to'qima hosil etib, uning tashqi yuzasi yupqa teri stratum cutaneum bilan ichki yuzasi esa silliq parda stratum mucosum bilan qoplangan. Fibroz parda tutamlari markazda halqasimon (sirkular) yo'nalgan bo'lsa, chetida esa shulasimon (radiar) tuzulishga ega bo'ladi. Nog'ora pardanining ustki qismida fibroz tutamlar juda ozligidan, shu sohaning devori ichki shilliq qavat, tashqi yupqa teri qavatlaridan hosil bo'ladi. Shu sababdan nog'ora pardanining tarang bo'limgan yumshoq holidagi qismi pars flaccida aksincha tarang qismi pars tense deyiladi.



Nog'ara pardanining natomik tuzilishi

Ichki qulqda suyak va parda labirintlar joylashgan. Auris interna eshituv va muvozanat a'zosi bo'lgan labirintdan tashkil topgan. Labirint chakka suyagining toshsimon qismining ichida joylashadi. U tashqi tarafdan suyak moddasi bilan qoplangan bo'lib suyak labirinti-labyrinthus osseus deyiladi. Labirint ichida xuddi shunday shaklga ega bo'lgan parda labirinti –labyrinthus membranaceus bo'ladi. Suyak labirinti uch qismdan iborat: 1-labirint dahlizi vestibulum, 2-yarim doira kanallar canales semicirculares ossei, 3-chig'anoq cochlea. Vestibulum ichki qulq o'rtasida joylashadi. Orqa sohada yarimdoira kanallar bilan aloqa bog'laydi. Dahliz oldingi sohada chig'anoq bo'shlig'iga davom etadi. Uning lateral devori o'rta qulq bo'shlig'iga qaragan bo'ladi. Bu devordagi fenestra vestibuli darchasiga uzangi tegib tursa, fenestra cochlea darchasi esa ikkimlamchi parda membrana tympani secundaria bilan qoplangan bo'ladi.

Bolalarda kuzatiladigan turli xildagi infektion va noinfektion kasalliklar manashu yuqoridagi qulqning anatomik tuzilmalariga salbiy ta'sir etadi ayniqsa bunday patologik holatlarga nog'ora parda juda sezgir hisoblanadi va har doim uning zaralanishi kuzatiladi. Quyidagi sabablarga ko'ra nog'ora parda zaralanishi mumkin, travmatik ta'sir (trauma acustica) qulqqa kuchli zarba tegishi natijasida ko'p hollarda nog'ora pardanining zaralanishi kuzatiladi.

Haddan tashqarikuchli ovoz yoki portlash natijasida yuzaga keladigan barotravmalar, qulqni noto'g'ri tozalash natijasida, yirtilish jarayonlari (otitis media).  
Июль | 2025, 1-қисм



perforativa), o'rta qulinqning yallig'lanish kasalliklari (otitis media acuta) nog'ora pardani ichki bosim ostida teshishilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari surunkali yallig'lanishlar nog'ora pardani yupqalashishi va keyinchalik yirtilishiga olib keladi. Ayrim hollarda atmosfera bosimining o'zgarishi (Barotrauma)

Samolyotlarda parvoz qilish yoki chuqurlikka sho'ng'ish natijasida bosim o'zgarishi nog'ora pardaga zarar yetkazish mumkin. Qulq infektion kasalliklarning yiringli kechishi eksudatning ko'p miqdorda to'planishi natijasida yuzaga keladigan ichki bosim pardaning yiringli erishi bilan birgalikda uning yupqalashishi va teshilishiga olib keladi. Ba'zi hollarda yiringli otit aniqlansa yiringning chiqishi ta'minlash, eshitish naychasini ventilyatsiyasini tiklash va og'riq sindromi bartaraf etish uchun nog'ora parda jarroxlid usulida teshiladi ichidagi yiring chiqib ketishi ta'minlanadi buning natijsida ham nog'ora parda zararlanadi.

Hozirgi kunda shifokorlar tomonidan nog'ora parda teshilishiga olib keladigan omillar chuqur o'rganilmoqda va buning oldini olish uchun bir qator tekshirish hamda davolash ishlari ishlab chiqilmoqda. Jumladan, otoskopiya qulinqning vizual tekshirish, audiometriya eshitish qobilyatini baholash, timpanometriya nog'ora pardaning harakatchanligini o'lhash

Davolash tadbirlarida avvalo nog'ora pparda teshilishi oldi olinadi iloji bo'limganda nog'ora pardadagi teshik orqali infeksiyani o'rta qulqqo tarqalishini oldini olishga qaratiladi.

O'rta qulq yallig'lanishini oldini olish maqsadida antibiotiklar buyuriladi. Nog'ora parda teshigini bitish holatlari bolani yoshiga va teshik o'lchamiga jarohat xarakteriga bog'liq bo'ladi. Mexanik jarohatdan 55% bemorlarda nog'ora teshik o'z o'zidan bitib ketadi.

Nog'ora pardadagi teshik o'z o'zidan bitmagan hollarda bemorda keyinchalik miringoplastika jarrohlik amali bajarilib (chakka mushagini fassiyasi ,ishlov berilgan bosh miya pardasi) timpanoplastik o'tkaziladi. Nog'ora parda teshilgandan so'ng qulqda surunkali o'griq eshitish faoliyatini sekin astalik bilan pasayib borishi va eshitmay qolish holatlari; kechqurun ayniqsa uplash vaqtida shaffof suyuqlik ko'p ajraladi bazi hollarda bosim hisobiga qon oqishi shamollash o'tib ketgan holatlarda yiring oqishi kuzatiladi. Bolaga befarqlik bilan qaraladigan holatlarda yiring tashqariga emas ichkariga ketish va muvozanatga ham yetib boradi bunda bemorda quisish bosh aylanishi doimiy shovqin kuzatiladi. Qulqda bo'ladigan har qanday patologiyaga jiddiy yondashish kerak aks holatlarda har qanday jarrohlik amaliyotidan keyin ham asorat sifatida muvozanatda, eshitish faoliyatini qayta tiklanmaslikka yuz nervlarida qiyshayish holatlari kuzatilishi insonlar eshitish qobiliyatini yo'qotib nogiron bolib qolishi mumkin.

Xulosa. O'z sog'ligingizga mas'uliyat bilan yondashish davolanish muddatini tezlashtiradi, reabilitatsiya davrini osonlashtiradi va membranada qo'pol chandiq paydo bo'lish ehtimolini va shu bilan bog'liq qaytarib bo'lmas eshitish qobiliyatini yo'qotilishini oldini olinadi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar;

1. F.N.Bahodirov, M.M.Xaqberdiyev
2. A.Axmedov, O' Mirsharapov, T. Sagatov, H. Rasulov Anatomiya darslik II jild
3. G.Q.Sodiqova, A.G'.Axmedov, G.M.Tursunxo'jayeva Bolalar nevrologiyasi darslik 2010-yil.
4. Брюс У., Джадек ЭНН .Секреты оториноларингологии. 2001. 2. Волков А.Г.



Лобные пазухи. М. 2001.

5. Григорьев Г.М. Современная лекарственная терапия и пропись рецептов при основных заболеваниях уха, горла и носа. Екатеринбург. 1998.
6. Гусель В.А., Маркова И.В. Справочник педиатра по клинической фармакологии . Ленинград: Медицина : 1989 г.
7. Дерюгина О.В, Ф.И.Чумаков. Орбитальные и внутричерепные осложнения воспалительных заболеваний носа и околоносовых пазух у взрослых и детей.М.М.2001.



## ITSENKO KUSHING SINDROMI BILAN KASALLANGAN BE'MORLARDA YURAK QON TOMIR TIZIMIDAGI O'ZGARISHLARNI BAHOLASH

Shukurova Kamola Karimovna,

Akademik Y.X. To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy amaliy markazi maslahat poleklinikasi kardiolog shifokori

[Miwamisha9@gmail.com](mailto:Miwamisha9@gmail.com)

**ANNOTASIYA:** Kushing sindromi — bu endokrin tizim kasalligi bo'lib, surunkali giperkortizolemiya bilan kechadi. Bu holat yurak-qon tomir asoratlari, jumladan, arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi, yurak yetishmovchiligi va tromboembolik hodisalar rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi. Giperkortizol holatini erta aniqlash va nazorat qilish ushbu bemorlarda yurak-qon tomir o'limini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**KALIT SO'ZLAR:** Itsenko-Kushing, YIK, Diabet, kortizol, glyukoza, Itsenko-Kushing sindromi yurak-qon tomir tizimini zararlovchi bir qator asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu sindromga xos bo'lgan kortizol gormoni darajasining ortishi arterial gipertoniya, yurak ishemik kasalligi (YIK), aritmiyalar va hatto yurak yetishmovchiligi rivojlanish xavfini oshirishi mumkin.

Qonda kortizol miqdorining ortishi qon tomirlarni torayishi, arterial bosimning oshishiga olib keladi. Bu holat esa o'z navbatida gipertoniya va boshqa metabolik buzilishlar koronar arteriyalarning torayishiga olib keladi, bu yurak mushaklarining qon bilan ta'minlanishini qiyinlashtiradi.

Kortizolning ortiqcha miqdori yurak ritmiga ta'sir etib, yurak urishidagi buzilishlarni (aritmialarni) yuzaga keltiradi.

Kushing sindromi ko'pincha uglevod almashinuvining buzilishi bilan kechadi, bu esa qandli diabet rivojlanishiga olib keladi. Diabet esa yurak-qon tomir kasalliklari uchun qo'shimcha xavf hisoblanadi.

### Maqsad:

Kushing sindromiga chalingan be'morlarda, yurak qon tomir tizimidagi o'zgarishlarni o'rganish va kasallikni erta aniqlash.

Matiellalar va usullar:

Tadqiqotda Kushing sindromi tashxisi qo'yilgan 20 nafar bemor ishtirot etdi. Ulardan 17 nafari (15nafar ayok va 2 nafar erkak) yurak qon tomir tizimida o'zgarishlar bo'lip, qolgan 3 nafari (3 ta ayol (15%) yurak qon tomir tizimida kasalliklar aniqlanmadи. Barcha bemorlarga quyidagi klinik-laborator va instrumental tekshiruvlar o'tkazildi:

#### 1. Gormonal tadqiqotlar:

- Kortizol (qonda va siydikda): ertalabki va kechki kortizol darajasi; 24 soatlik erkin kortizol (siydikda)
- Adrenokortikotrop gormon (ACTH): gipofizar yoki ektopik manbani aniqlash uchun
- Deksametazon sinovlari (kichik va katta dozali): giperkortizolizm manbasini aniqlash maqsadida

#### 2. Qonning biokimiyoviy tahlili:

- Glyukoza (qonda): giperkortizolizm tufayli insulin miqdori oshishi



- Glikoillangan gemoglobin (HbA1c): 3 oy muddatli glyukozani nazorat qilish
- Lipid profili:
  - Umumiy xolesterin
  - Past zichlikdagi lipoprotein (PZL / LDL)
  - Yuqori zichlikdagi lipoprotein (YZL / HDL)
  - Triglitseriddar
- Elektrolitlar:
  - Natriy ( $\text{Na}^+$ )
  - Kaliy ( $\text{K}^+$ ) — kortizolning mineralokortikoid ta'siri tufayli kamayishi mumkin
- 3. Qonning ivish tizimi:
  - Protrombin vaqtı (PV)
  - APTT (aktivlashtirilgan qisman tromboplastin vaqtı)
  - Fibrinogen
  - D-dimer — tromboz xavfini baholash uchun

### Natijalar:

20 bemordan 17 nafarida (85%) yurak-qon tomir tizimi buzilishlari aniqlangan. Eng ko‘p uchragan buzilishlar quyidagilar bo‘ldi:

- arterial gipertoniya – 14 bemorda,
- chap qorincha giperetrofiyasi belgilari – 9 bemorda,
- yurak ritmi buzilishlari – 4 bemorda.

Yurak-qon tomir asoratlari aniqlangan bemorlarning asosiy qismini ayollar tashkil etdi (17 holatdan 15 tasi).

### Xulosa:

Kushing sindromiga chalingan bemorlarning aksariyatida, yurak-qon tomir tizimi bilan bog‘liq jiddiy buzilishlar kuzatiladi. Bu holat bunday bemorlarni erta kardiologik tekshirish va kompleks davolash zarurligini ta’kidlaydi.



## ШИЗОФРЕНИЯНИНГ БОШЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ЭКЗОГЕН ОМИЛЛАРНИ ВОДИЙ ШАРОИТИДА ҚИЁСИЙ ТАВСИФИ ВА ЎЗГАРИШЛАРИ ДИНАМИКАСИ

Исламов Шавкат Хабибуллаевич

Андижон давлат тиббиёт институти,

Психиатрия, наркология, тиббий психологияси ва

психотерапия кафедраси доценти, PhD

*Islamovshavkatbek606@gmail.com*

**АННОТАЦИЯ:** Мақола экзогенияларнинг хар хил кечувчи шизофрения кечишига таъсирини ўрганишга бағищланган.

Тадқиқотлар натижасида экзоген омиллар орасида психогениялар етакчи рол ўйнаши аниқланди. Касалликнинг бошланишидан олдин экзоген омилларнинг таъсири бўлган ҳолларда, сезиларли даражада юқори бўлган ўткир руҳий бузилишлар сони сезиларли даражада кўпроқ бўлган. Бу нафақат бирламчи, балки иккиламчи чора-тадбирлар мажмуасидан ҳам кенгроқ фойдаланиш зарурлигини кўрсатади. Шунингдек, ушбу тоифадаги bemорларни реабилитация қилишнинг барча босқичларида психогигиена, психопрофилактика чора тадбирларини замонавий усулларини кўллаш зарурлигини тақазо этади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** шизофрения, экзогения, прогноз, психогения.

Шизофрения - бу энг оғир руҳий касалликлардан бири бўлиб, у асосан ёшларга таъсир қиласди. Патологик ўзгаришлар идрок, ҳис-туйғулар, хулқ-атвор, когнитив функцияларнинг барча соҳаларига таъсир қиласди.

Шизофрения кўп омилли касаллик бўлиб, генетик ва атрофдаги омилларнинг мураккаб ўзаро таъсирига боғлиқ. Ушбу касалликнинг ривожланишида ирсий мойиллик муҳим роль ўйнайди ва замонавий тадқиқотлар шуни тасдиқлайдики, шизофрения аниқ генетик фон билан боғлиқ касалликлар гуруҳига киради. [1,5].

Ҳамма ҳолларда ҳам ирсий мойиллик сифатидаги генетик омил касалликка айланавермайди. Бинобарин, касалликнинг фенотипик кўринишларини аниқлаш ва ўзгартиришга қодир бўлган қўшимча муҳит омиллари мавжуд бўлиши керак. [1,3].

Ушбу омилларни ўрганиш, уларнинг қўзғатувчи роли ва шизофрения бошланишининг табиати ва клиникасига, касалликнинг кейинги кечиш хусусиятларига, шу жумладан рецидивларнинг ривожланишига таъсири, уларнинг bemорларнинг ижтимоий-меҳнат мослашуви учун аҳамияти ички ва ташқи омилларнинг ўзаро боғлиқлиги муаммосини ҳал қилишга муҳим ҳисса қўшади [4,5]. Бироқ, уларнинг нисбати жараённинг намоён бўлишига, хусусан, касалликнинг бошланиши, биринчи циклининг ривожланиш характерига, кейинги хуружларга, клиник кечиш хусусиятларига таъсир қилиши ҳозирги кунгача етарлича ўрганилмаган. Шу билан бирга, асосланган ва статистик тасдиқланган прогноз мезонларидан фойдаланган ҳолда такорий хуружларнинг пайдо бўлиш эҳтимолини башорат қилиш муҳим илмий-амалий муаммо ҳисобланади.

Шунинг учун шизофрения хуружларининг ривожланиш хавфи, касалликнинг бошланиш характерига хавф омилларининг таъсирини ўрганиш, келиб чиқишининг прогностик мезонларини ишлаб чиқиш касаллик динамикасида



кейинги хуружлар замонавий психиатрияниң долзарб муаммоси ҳисобланади.

Тадқиқот мақсади: Хар хил турда кечувчи шизофрения кечишига хатар омилларнинг таъсирини ўрганиш.

Тадқиқот материаллари ва усууллари: Фарғона водийсида яшовчи хар хил турда кечувчи шизофрения (ХТКШ) билан касалланган ва касаллик давомийлиги 20 йилдан ортиқ бўлган 1087 нафар беморларда клиник-эпидемиологик ва клиник-психопатологик текширувлар ўтказилди.

Турли хил кечувчи шизофренияни ТХКШ бошланиши ва авжланишига таъсир этувчи экзоген омиллар (спиртли ичимликлар ва гиёхвандлар истеъмоли – СпИГИ, ҳомиладорлик ва туғруқлар – ХТО, инфекциялар, руҳий омиллар – РУО, соматик касалликлар – СК, бош мия жароҳатлари – БМЖ ва қўмилган экзоген омиллар – КЭО) таъсирлари ўрганилди ва таҳлил қилиниб баҳоланди.

Тахлил маълумотларидан кўринадики, водий шароитида шизофрения дебюти учун потенциал қўзғатувчи омиллар сифатида экзоген омилларни маҳсус ва янада чуқуроқ ҳамда кенгроқ, айниқса эпидемиологик тадқиқотларда ўрганиш зарурати бор.

Фарғона водийсининг учта вилоятидан бўлган, тадқиқот йиллари бўйича ўрганилган беморларнинг касаллик бошланишига таъсир қилган экзоген омиллар бўйича қиёсий таҳлили қўйидагиларни кўрсатди: касалликнинг бошланишида экзоген омил таъсири бўлмаган беморлар (ЭХЙП) сони жами 421 (38.7%) нафарни ташкил қилиб, булардан 1984 йилги ҳолат бўйича 183 (41,9%), 2024 йилги ҳолат бўйича эса 238 (36,6%) нафар беморни ташкил қилди. Экзоген омиллар мавжуд бўлмаган ҳолатлар улуши 1984-2024 йиллар оралиғида деярли ўзгармаган, фарқлар статистик аҳамиятга эга эмас. [RR-0.87; 95% ИО (CI)- 0.75-1.02;  $\chi^2$ -3.05;  $p > 0.05$ ]. Касалликнинг бошланишида экзоген омил сифатида спиртли ичимликлар ва гиёхванд моддалар истеъмоли таъсири бўлган беморлар (СпИГИ) сони жами 84 (7.7%) нафарни ташкил қилиб, булардан 1984 йилги ҳолат бўйича 38 (8,7%), 2024 йилги ҳолат бўйича эса 46 (7,1%) нафар беморни ташкил қилди. Алкоголь ва гиёхвандликнинг касаллик дебютига таъсири улуши 1984-2024 йиллар оралиғида деярли ўзгармаган ва фарқлар статистик аҳамиятга эга эмас. [RR-0.81; 95% ИО (CI)- 0.54-1.23;  $\chi^2$ -0.96;  $p > 0.05$ ].

Касалликнинг бошланишида ҳомиладорлик ёки туғруқ экзоген омил сифатида бўлган беморлар (ХТО) сони жами 67 (6.2%) нафарни ташкил қилиб, булардан 1984 йилги ҳолат бўйича 30 (6,9%), 2024 йилги ҳолат бўйича эса 37 (5,7%) нафар беморни ташкил қилди. Касаллик дебютида ҳомиладорлик ва туғруқ экзоген омил бўлган ҳолатларнинг улуши 1984-2024 йиллар оралиғида деярли ўзгармади, фарқлар статистик аҳамиятга эга эмаслиги аниқланди. [RR-0.83; 95% ИО (CI)- 0.52-1.32;  $\chi^2$ -0.62;  $p > 0.05$ ].

Касаллик дебютида инфекциялар экзоген омил сифатида бўлган беморлар сони жами 96 (8.8%) нафарни ташкил қилиб, булардан 1984 йилги ҳолат бўйича 43 (9,8%), 2024 йилги ҳолат бўйича эса 53 (8,2%) нафар беморни ташкил қилди. Касалликнинг дебютида экзоген омиллар бўлган инфекциялар улуши 1984-2024 йиллар оралиғида деярли ўзгармаган ва фарқлар статистик жиҳатдан аҳамиятли эмас. [RR-0.83; 95% ИО (CI)- 0.56-1.22;  $\chi^2$ -0.92;  $p > 0.05$ ].

Руҳий омиллар (РУО) экзоген омил сифатида бўлган беморлар сони жами 285 (26.2%) нафарни ташкил қилиб, булардан 1984 йилги ҳолат бўйича 80 (18,3%), 2024



йилги ҳолат бўйича эса 205 (31,5%) нафар беморни ташкил қилди. 2024 йилда психогения касаллик дебютида экзоген омил бўлган ҳолатлар улуши сезиларли даражада ошди ва бу фарқ статистик аҳамиятга эга. [RR-1.72; 95% ИО (CI)- 1.37-2.16;  $\chi^2$ -23.65;  $p < 0.001$ ].

Касаллик дебютида соматик касалликлар (СК) экзоген омил сифатида бўлган беморлар сони жами 41 (3.8%) нафарни ташкил қилиб, булардан 1984 йилги ҳолат бўйича 19 (4,3%), 2024 йилги ҳолат бўйича эса 22 (3,4%) нафар беморни ташкил қилди. Касалликнинг бошланишида экзоген омил бўлган соматоген ҳолатлар улуши 1984-2024 йиллар оралиғида сезиларли даражада ўзгармаган бўлиб, фарқлар статистик жиҳатдан аҳамиятли эмас [RR-0.78; 95% ИО (CI)- 0.43-42;  $\chi^2$ -0.67;  $p > 0.05$ ].

Бош мия жароҳатлари (БМЖ) экзоген омил сифатида бўлган беморлар сони жами 47 (4.3%) нафарни ташкил қилиб, булардан 1984 йилги ҳолат бўйича 22 (5,0%), 2024 йилги ҳолат бўйича эса 25 (3,8%) нафар беморни ташкил қилди. 1984-2024 йиллар оралиғида касалликнинг бошланиш даврида бош мия жароҳатлари ташқи омил бўлган ҳолатлар улуши деярли ўзгаришсиз қолган бўлиб, фарқлар статистик жиҳатдан аҳамиятли эмас [RR-0.76; 95% ИО (CI)- 0.44-1.34;  $\chi^2$ -0.89;  $p > 0.05$ ].

Комбинацияланган экзоген омиллар (КЭО) натижасида касаллиги бошланган беморлар сони жами 46 (4.2%) нафарни ташкил қилиб, булардан 1984 йилги ҳолат бўйича 22 (5,0%), 2024 йилги ҳолат бўйича эса 24 (3,7%) нафар беморни ташкил қилди. Касаллик бошланишида комбинацияланган омиллар экзоген бўлган ҳолатлар улуши 1984 йилдан 2024 йилгача бўлган даврда деярли ўзгармаган, бу фарқлар статистик жиҳатдан аҳамиятли эмас [RR-0.73; 95% ИО (CI)- 0.42-2.9;  $\chi^2$ -1.16;  $p > 0.05$ ].

Касалликнинг бошланишида экзоген омил таъсири бўлмаган беморлар ҳиссаси 1984-2024 йиллар оралиғида барқарор қолди. Бу кўпчилик беморлар учун касалликнинг бошланишида экзоген сабаблар асосий қўзғатувчи омил эмаслигини кўрсатади.

Алкоголизация ёки гиёхвандлик билан боғлиқ касаллик дебюти бўлган беморлар улуши 2024 йилда қиёсан камайган, аммо фарқлар статистик аҳамиятга эга бўлмайди. Бу ижтимоий муҳитдаги ўзгаришлар ёки алкоголь ва гиёхванд моддаларнинг осон топилиши билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Ҳомиладорлик ва туғруқ билан боғлиқ касаллик бошланиши частотаси ҳам деярли ўзгармаган. Бу ҳомиладорлик билан боғлиқ физиологик омилларнинг барқарор таъсирини кўрсатади.

Инфекциялар билан боғлиқ дебюти бўлган беморлар улуши 2024 йилда бироз камайди. Бироқ, фарқлар статистик аҳамиятга эга эмас, бу инфекцион омилларнинг барқарор таъсиридан далолат бериши мумкин.

Касаллик дебюти психоген омиллар билан боғлиқ бўлган беморлар улушкининг сезиларли даражада ошиши кузатилади. Ушбу ўзгариш статистик аҳамиятга эга бўлиб, стрессли вазиялар ва психосоциал омилларининг роли ошганлигини кўрсатиши мумкин. Соматиген омиллар билан боғлиқ барқарор қолган ва умумий тенденция бўйича хулоса қилса бўладики, психоген омилларнинг ролини статистик жиҳатдан сезиларли ўсиши кузатилмоқда ва прогноз қилинмоқда.



**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Аграновский М.Л., Мирзаев А.А. Прогностическая значимость дебюта приступообразной шизофрении для социально-трудового прогноза // Психиатрия. 2009. № 4-6 (40-42). С. 17-20.
2. Висневская, Л. Я. Социальная адаптация больных при стабилизированных состояниях на отдаленных этапах шизофренического процесса / Л. Я. Висневская, В. В. Худавердиев // XIII съезд психиатров России: Тез. докл. — М, 2000. — С. 120—121
3. Назимова С.В. Особенности психопатологии и клиники приступообразной шизофрении, формирующейся в условиях воздействия экзогенных факторов автореферат дис. Кандидата медицинских наук / Научный центр психического здоровья Российской академии медицинских наук. Москва, 2013.
4. Джонс П. Б. Шизофрения. Клиническое руководство /П. Б. Джонс, П.Ф. Бакли / Под общ. ред. С.Н. Мосолова. — М. : МЕДпресс, 2008. — 192 с.
5. Addington, D. Genger and Affect in Schizophrenia / D. Addington, J. Addington, S. Patten //Canad. J. of Psychiatr. — 2003. — Vol. 41. — P. 265—268.



## GESTATSION PANKREATITDA OSHQOZON OSTI BEZINING GISTOKIMYOVİY XUSUSIYATLARI

Ozodbekov Yusufbek Shavkatbek o'g'li  
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti. Assistant

**Annotatsiya:** gestatsion pankreatitda oshqozon osti bezining gistokimyoviy usulda tekshirish orqali dag‘al tolali tuzilmalar rivojlanganligi, ShIFF usulida esa, bez alveolyar tuzilmalarida nordon muhitli mukopolisaxaridlar va proteolitik fermentlarini faollik darajasini baholash imkonni tug‘iladi. Bu esa, o‘z navbatida, oshqozon osti atsinuslari, perivaskulyar sohalari, Langergans orolchalarida metabolik buzilishlar oqibatida yuzaga keladigan morfologik o‘zgarishlarni baholashda muhim axamiyatga ega bo‘lib, moviy ko‘k rangda bo‘yalish intensivligiga qarab jarayon og‘irligini baholash, surunkali tarzda kechuvchi pankreatitlarda, bez yo‘llari, qon tomirlar va bo‘lakchalarda yuzaga kelgan sklerotik o‘zgarishlarni baholash imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** gistokimyoviy tekshirish, pankreas, gestatsion pankreatit, homiladorlik, morfologiya.

**Muammoning dolzarbliyi.** Dunyoda xomiladorlik paytida rivojlanadigan gestatsion pankreatit barcha pankreatitlarni o‘rtacha 0,1% ni tashkil etib, shulardan 88% da o‘tkir pankreatit ko‘rinishida rivojlanadi. Bu esa, aynan, ushbu patologiyadan onalar o‘limning 68,3% ni tashkil etib, xomiladorlikni 3 oyligida rivojlanib davolash uchun juda ko‘p qarshi ko‘rsatmalar mavjudligi bilan izohlanadi. A.R. Hart et al. (2009) ma’lumotlari bo‘yicha, oxirgi 20 yillikda gestatsion pankreatitni 5,5 martaga oshganligi, o‘lim ko‘rsatkichi bo‘yicha, 50% dan yuqori bo‘lib, o A.C. Gough, K.J. Palmer (2006) va Cancer statistics (2007) ma’lumotlari bo‘yicha, 12-24% holatda tug‘ruqdan keyingi 28 sutkada o‘tkir va surunkali pankreatit ko‘rinishda namoyon bo‘lib, oshqozon osti bezida qaytmas o‘zgarishlar yuzaga kelishi aniqlangan. Bu esa, gestatsion pankreatitdan omon qolgan onalarda oshqozon osti bezi xavfli o‘simalari rivojlanishini 10-15 marta ko‘p uchrashini aniqlashgan. Rossiya federatsiyasida ushbu ko‘rsatkich, 2010 yilda, 100000 ta homiladorlikda 25-50tani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-2024 yillarda bu ko‘rsatkich, 180 va undan yuqori ko‘rsatkichga oshganligi qayd etilgan. Xorij olimlarining 2008 yiladgi ma’lumotlari bo‘yicha AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarida ushbu ko‘rsatkich 100000 ta xomiladorlikda 33 ta holatni tashkil etib, 88% da o‘tkir pankreatit yuzaga kelib, o‘lim ko‘rsatkichi 12-48% ni tashkil etadi. Xomiladorlikni 2 va 3 oyligida aniqlangan gestatsion pankreatitlarda xomilani yashab qolish imkoniyati juda past ko‘rsatkichda bo‘lib, qariyb, 68,3% holatda xomilani perinatal davrdagi o‘limini ko‘payishiga olib keladi. Jami muddatdan oldingi tug‘ruqlarni 3,8-7,2%da o‘tkir pankreatit aniqlangan bo‘lib, kasallikni tashxislashda juda ko‘p qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. MDX davlatlarida gestatsion pankreatitlar haqida juda kam ma’lumotlar keltirilib, fon kasalligi yoki yo‘ldosh kasallik ko‘rinishida keltirilgan bo‘lib, jami 100000 ta tug‘ruqda surunkali pankreatitni qo‘zg‘alish davri tashxisi bilan 85-172 holat ro‘yxatdan o‘tishi keltirilgan.

**Muxokama va natijalar.** Gestatsion pankreatitlarni o‘tkir shaklini tekshirishda asosiy gistokimyoviy bo‘yoqlardan ShIK va ShIFF usulida bo‘yash orqali atsinuslar va qon tomirlar perimetrida kechayotgan o‘tkir yallig‘lanish dinamikasini baholash imkonni



tug‘iladi. Jumladan, ShIFF usulida nordon muhitli metaboltlarni ko‘payishi, dastlab qon tomirlar perimetrida moviy ko‘k rangdagi ShIFF musbat tuzilmalarni ko‘payishi, stromadagi siyrak tolalarning titilishi va plazmatik bo‘kishi oqibatida, parenximatoz va stromal tomirla distrofiya aniqlanadi. Atsinuslar bo‘shlig‘idagi proteolitik fermentlarni faollahganligi ShIFF musbat tuzilmalarni mavjudligi bilan baxolanib, xuddi shu o‘zgarishlar oshqozon osti bezining bo‘lakchalararo fibroz to‘qimasida ham aniqlanib, barcha mezenximal to‘qima komponentlarida kislotali muxitni kuchayganligini anglatadi albata, bu o‘zgarishlar morfofunksional jihatdan oshqozon osti bezida gipoksiya jarayoni kechayotganligi, mayda kalibrli tomirlar va mikrosirkulyator o‘zan komponentlarida keskin o‘tkazuvchanlikni oshishi, ShIFF musbat tuzilmalarni bo‘lishi, Langerxans orolchalarida ekstrasellyulyar matriksda och moviy rangdagi ShIFF musbat tuzilmalarni bo‘lishi aniqlanadi. Bu esa, oshqozon osti bezida o‘tkir yallig‘lanish jarayoni kechayotganligi va perivaskulyar soxalarda va stromada plazmatik bo‘kish jarayoni kechayotganligi bez epiteliylarida distrofik va nekrobiotik o‘zgarishlar, nekrozga uchragan atsinuslar perimetrida demarkatsion chegara va shu soxada ShIFF musbat tuzilmalarining massiv to‘planishi bilan xarakterlanadi. Umumiy bez yo‘llari perimterida va bo‘shlig‘idagi sekret tarkibini ham faollahganligi och va to‘q moviy rangda ShIFF musbat tuzilalarni ko‘payganligi bilan tushuntirilib, me’yorda bu kabi o‘zgarishlar bo‘lmasligi bilan farqlanishini inobatga olganda, dimlangan oshqozon osti bezi sekretini faollahganligini anglatadi.

Van Gizon usulida bo‘yalganida homilador ayollarning tug‘ruqdan keyingi 28-60 sutkalarida oshqozon osti bezi stromasida fuksinofil dag‘al kollagen tolalarni ko‘payishi va bezni gistioarxitektonikasini o‘zgarganligi bilan xarakterlanadi. Bu o‘zgarishlar periduktal, perivaskulyar va bo‘lakchalararo fibroz to‘qimalarda ham rivojlangan bo‘lib, nekrolangandan keyingi chandiqlarda ham ushbu fuksinofil tuzilmalarni ko‘payganligi, jarayonda chandiqlanish va pankreatitni progressiv ravishda kuchayatganligini anglatadi.

Demak, gestatsion pankreatitning o‘tkir shaklida oshqozon osti bezi ekstrasellyulyar matriksda ShIFF musbat tuzilalarni massiv turli darajadagi intensivlikda bo‘lishi va nekroz o‘choqlari perimterida ham och moviy rangli ShIFF musbat tuzilmalarni mavjudligi jarayonda o‘tkir yallig‘lanishni ekssudatsiya bosqichi rivojlanganligini anglatadi.

Gestatsion pankreatitni surunkali shaklida esa, asosiy o‘zgarishlar fuksinofil tolalarni barcha qon tomirlari perimetrida, periduktal soxalarda va bo‘lakchalararo fibroz kapsulasida ko‘payganligi bilan xarakterlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Scott L.D. Gastrointestinal Disease in Pregnancy. In W.J. Creasy, R. Resnik (eds.), Maternal-Fetal Medicine, Principles and Practice (3rd ed.). Philadelphia: Saunders, 2004.
2. Минушкин О.Н. Хронический панкреатит: эпидемиология, этиология, классификация. — Фарматека, 2007; 2: 53-56.
3. Hernandez A., Petrov M.S., Brooks D.C. et al. Acute pancreatitis and pregnancy: a 10 year single center experience. J Gastrointestinal Surg. 2007; 11: 1623-7.
4. Маев И.В., Казюлин А.Н., Дичева Д.Т. и др. Хронический панкреатит. — Москва, ВУМНЦ, 2003.
5. Самсонов А.А. Современная фармакотерапия хронического панкреатита. —



Российские аптеки. 2007; 3: 30-32.

6. Клинические рекомендации. Гастроэнтерология / под ред В.Т. Ивашкина. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2006. — 208 с.



## GESTATSION PANKREATITDA OSHQOZON OSTI BEZINING PATOMORFOLOGIYASI

**Ozodbekov Yusufbek Shavkatbek o'g'li**  
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti. Assistant

**Annotatsiya:** gestatsion pankreatitda asosiy o'zgarishlar oshqozon osti bezining antsinuslari va qon tomirlari atrofida yallig'lanish infiltratini shakllanishi asosan, fiziologik gravidar immunodefisitni fonida ikkilamchi infeksion omillarni ta'siri, buyrak usti bezi giperfunksiyasi, disgormonal buzilishlar oqibatida, Langerans orolchalarida morfologik jihatdan o'zgarishlar yuzaga kelib, asosan, qon tomir reaksiyasini ustunligi, oshqozon osti bezi bo'lakchalar kapsulasini shishi, bo'lakchalar va magistral bez yo'lining kompression ezilishi oqibatida, atsinuslarda to'plangan sekretlarni aktivlashishi natijasida pankreonekroz va qon quyilishlarni to'satdan yuzaga kelganligi aniqlanadi. Bu esa, ikkilamchi infeksion omillarni jarayonga qo'shilishi oqibatida, o'tkir pankreatitni yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.

**Kalit so'zlar:** pankreas, gestatsion pankreatit, homiladorlik, morfologiya.

**Muammoning dolzarbliyi.** Dunyoda homiladorlik paytida rivojlanadigan gestatsion pankreatit barcha pankreatitlarni o'rtacha 0,1% ni tashkil etib, shulardan 88% da o'tkir pankreatit ko'rinishida rivojlanadi. Bu esa, aynan, ushbu patologiyadan onalar o'limining 68,3% ni tashkil etib, homiladorlikni 3 oyligida rivojlanib davolash uchun juda ko'p qarshi ko'rsatmalar mavjudligi bilan izohlanadi. A.R. Hart et al. (2009) ma'lumotlari bo'yicha, oxirgi 20 yillikda gestatsion pankreatitni 5,5 martga oshganligi, o'lim ko'rsatkichi bo'yicha, 50% dan yuqori bo'lib, o A.C. Gough, K.J. Palmer (2006) va Cancer statistics (2007) ma'lumotlari bo'yicha, 12-24% holatda tug'ruqdan keyingi 28 sutkada o'tkir va surunkali pankreatit ko'rinishda namoyon bo'lib, oshqozon osti bezida qaytmas o'zgarishlar yuzaga kelishi aniqlangan. Bu esa, gestatsion pankreatitdan omon qolgan onalarda oshqozon osti bezi xavfli o'smalari rivojlanishini 10-15 marta ko'proq uchrashini aniqlashgan. Rossiya federatsiyasida ushbu ko'rsatkich, 2010 yilda, 100000 ta homiladorlikda 25-50tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-2024 yillarda bu ko'rsatkich, 180 va undan yuqori ko'rsatkichga oshganligi qayd etilgan. Xorij olimlarining 2008 yiladgi ma'lumotlari bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlarida ushbu ko'rsatkich 100000 ta homiladorlikka 33 ta holatni tashkil etib, 88% da o'tkir pankreatit yuzaga kelib, o'lim ko'rsatkichi 12-48% ni tashkil etadi. Homiladorlikni 2 va 3 oyligida aniqlangan gestatsion pankreatitlarda homilani yashab qolish imkoniyati juda past ko'rsatkichda bo'lib, qariyb, 68,3% holatda homilani perinatal davrdagi o'limini ko'payishiga olib keladi. Jami muddatdan oldingi tug'ruqlarni 3,8-7,2%da o'tkir pankreatit aniqlangan bo'lib, kasallikni tashxislashda juda ko'p qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. MDX davlatlarida gestatsion pankreatitlar haqida juda kam ma'lumotlar keltirilib, fon kasalligi yoki yo'ldosh kasallik ko'rinishida keltirilgan bo'lib, jami 100000 ta tug'ruqda surunkali pankreatitni qo'zish davri tashxisi bilan 85-172 holat ro'yxatdan o'tishi keltirilgan.

**Muxokama va natijalar.** Homiladorlikni 2 va 3 oyligida oshqozon osti bezining o'tkir yallig'lanishini asosiy xavf omillaridan biri. Bu buyrak usti bezining giperfunksiyasi,



homiladorlikdagi intragepatik xolestaz, jigar kasalliklari, alkogol iste'moli, giprtriglitseridemiya, chekish, yirik homila va o't yo'llarini mexanik ezilishi, noto'g'ri ovqatlanish, qabziyat, surunkali infeksion gepatit, gormonal terapiya, tuxumdonlarni turli noonkologik kasalliklari va xakozolar. Asosiy morfologik substratlar oshqozon osti bezining atsinuslarida sekretlarni dimlanishi, mayda kalibrli tomirlarda to'laqonlik, 20% da neytrofil infiltratsiya va nekrozga uchragan sohalarda multifokal absess o'choqlari, bez yo'llari atrofida periduktal shishlar, tomirlarni massiv to'laqonligi sababli yuzaga kelgan interstsial shishlar, limfotsitar infiltratsiya o'choqlarining ko'p bo'lishi o'tkir yallig'lanish jarayoni kechayotganligini tasdiqlaydi. Bo'lakchalarni fibroz kapsulasi ostida o'choqli va diapedezli qon quyilishlar, periatsinar sohalarda diapedezli qon quyilishi oqibatida, bez epiteliylari och eozinofil bo'yagan, yadrolarida kariopiknoz, karioreksis, atrofida makrofagal infiltratsiya, shu sohalarda interstsial shishlar oqibatida, rivojlangan fibroblastlarni proliferativ faol infiltratsiyasi, 12%da polimorf infiltratsiyalangan hujayralar to'plami aniqlanadi. Umumiy bez yo'llarida to'q bazofil bo'yagan tarkibida proteolitik fermentlarga boy bo'lgan oqsil substratlarini saqlanishi, 5,8% da o't pigmentlarini aniqlanishi va shu sohalarda bez epiteliylarini ko'plab multifokal nekrozi kabi o'zgarishlar aniqlanadi. Langerhans orolchalarida och va to'q hujayralarida keskin o'zgarishlar aniqlanmasda, stromasi va ekstrasellyulyar matriksda shishlar aniqlanib, to'q hujayralar sitoplazmasida to'q granulyar kiritmalarning ko'payganligi aniqlanadi. Ushbu morfologik belgilar bir vaqtin o'zida bezda giperfunksional ko'rsatkichlarni yuqori darajada rivojlanishi kompensatsiya ko'rsatkichlarini kritik ko'rinishi bo'lib, oshqozon osti bezi sekretlarini bevosita kengaygan tomirlar orqali so'riliishi va barcha a'zolarni mikrosirkulyator o'zanlarida giperkoagutsiyani oshib ketishi oqibatida, DVS sindromini rivojlanishi va poliorgan yetishmovchiligi sababli homiladorlikda onalar o'limininig rivojlanishiga olib kelganligi bilan xarakterlanishi aniqlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Scott L.D. Gastrointestinal Disease in Pregnancy. In W.J. Creasy, R. Resnik (eds.), Maternal-Fetal Medicine, Principles and Practice (3rd ed.). Philadelphia: Saunders, 2004.
2. Минушкин О.Н. Хронический панкреатит: эпидемиология, этиология, классификация. — Фарматека, 2007; 2: 53-56.
3. Hernandez A., Petrov M.S., Brooks D.C. et al. Acute pancreatitis and pregnancy: a 10 year single center experience. J Gastrointestinal Surg. 2007; 11: 1623-7.
4. Маев И.В., Казюлин А.Н., Дичева Д.Т. и др. Хронический панкреатит. — Москва, ВУМНЦ, 2003.
5. Самсонов А.А. Современная фармакотерапия хронического панкреатита. — Российские аптеки. 2007; 3: 30-32.
6. Клинические рекомендации. Гастроэнтерология / под ред В.Т. Ивашкина. — М.: ГЭОТАР-Медиа, 2006. — 208 с.



## РОЛЬ ДАВЛЕНИЯ ПРЕССОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ФАРМАКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ТАБЛЕТОК «ВИНАМИР»

Х.М.Юнусова, К.У.Хакимова, Н.Б.Илхамова

Ташкентский фармацевтический институт

Государственное учреждение

"Центр безопасности фармацевтической продукции"

Юнусова Холида Маннановна

Хакимова Камола Уйгуновна

Илхамова Наргиза Бахтияровна

e-mail: [holida\\_222@mail.ru](mailto:holida_222@mail.ru)

e-mail: [kamolauygunovna@gmail.com](mailto:kamolauygunovna@gmail.com)

e-mail: [nargiza.samo@yandex.ru](mailto:nargiza.samo@yandex.ru)

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено влияние одного из ключевых технологических параметров давления прессования на показатели качества таблеток «Винамир». В рамках исследования проведена сравнительная оценка таких фармако-технологических характеристик, как прочность на раздавливание, степень истираемости и время распада. Полученные результаты позволили выявить зависимость качества готовой лекарственной формы от уровня приложенного давления, а также определить оптимальные режимы прессования для обеспечения стабильных показателей таблеток.

**Ключевые слова:** таблетки, удельное давление, прессование, раздавливание.

Одним из ключевых аспектов обеспечения качества таблетированных лекарственных форм является выбор оптимального давления прессования. Этот параметр оказывает значительное влияние не только на фармако-технологические свойства таблеток, такие как прочность на раздавливание, истираемость и распадаемость, но и на их потребительские характеристики, биологическую доступность и, как следствие, терапевтическую эффективность [1]. Оптимальное удельное давление прессования способствует получению таблеток с необходимыми физико-механическими показателями, а также положительно влияет на технико-экономические параметры производства. В частности, оно позволяет повысить производительность труда, снизить расход сырья и энергии, сократить износ пресс-инструмента и увеличить выход годной продукции [2].


**Цель исследования:** изучение влияния удельного давления прессования на устойчивость таблеток антидепрессивного действия «Винамир» к раздавливанию.

**Материалы и методы:** следует отметить, что давление прессования напрямую влияет на ключевые физико-механические свойства таблеток, такие как прочность на излом (раздавливание), истираемость и распадаемость. Учитывая значимость этих параметров, ряд экспериментальных исследований был направлен на изучение влияния величины удельного давления прессования на качество таблетированной



формы препарата [5]. В рамках настоящей работы изучалось влияние приложенного давления прессования на основные фармако-технологические показатели комбинированных таблеток антидепрессивного действия «Винамир». Технологический процесс получения таблеток осуществлялся с использованием лабораторного гидравлического пресса. Прессование проводилось при давлениях, варьирующихся в диапазоне от 30 до 200 МПа. Полученные образцы подвергались оценке по основным фармако-технологическим параметрам: прочность на раздавливание, устойчивость к истираемости и время распада. Проведённые испытания позволили установить зависимость качества таблеток «Винамир» от величины удельного давления прессования.

**Результаты исследования и обсуждение:** Одним из ключевых показателей, характеризующих прочность готовой таблетированной формы, является устойчивость к раздавливанию. В связи с этим исследование началось с определения влияния давления прессования на прочностные характеристики таблеток «Винамир». Оценка данного показателя позволила установить, насколько изменение удельного давления при прессовании влияет на механическую устойчивость таблеток и, соответственно, на общее качество готового продукта.



**Рис. 1. Влияние давления прессования на устойчивость таблеток «Винамир» к раздавливанию**

Как видно из полученных результатов, представленных на рис. 1, прочность таблеток «Винамир» на раздавливание зависит от величины приложенного удельного давления прессования. Установлено, что при увеличении давления прессования от 30 до 110 МПа прочность таблеток возрастает и достигает максимального значения — 65 Н. При дальнейшем увеличении давления до 130 МПа наблюдается незначительное снижение прочности до 64 Н. В более поздний инкубационный период прочность продолжала снижаться, достигая 51 Н. Полученные данные свидетельствуют о том, что при повышенных давлениях возможно образование более плотных агломератов, что первоначально способствует увеличению устойчивости таблеток к механическому воздействию. Однако избыточное давление может привести к нарушению внутренней структуры таблетки, что в перспективе снижает её прочностные характеристики.



Таким образом, диапазон давления прессования 100–120 МПа можно считать оптимальным по показателю прочности на раздавливание.

**Выводы.** Оптимальная величина удельного давления прессования для рекомендуемых таблеток «Винамир» была установлена в пределах 100–120 МПа. Именно в данном диапазоне обеспечивается наилучшее сочетание механической прочности, устойчивости к раздавливанию и сохранения внутренней структуры таблетки. Эти параметры свидетельствуют о достаточной компактности и однородности таблетированной массы, что способствует не только повышению физико-механической стабильности, но и обеспечивает технологическую надёжность при последующем хранении, транспортировке и применении препарата.

### Литература:

1. Абдижалилова З.Х., Юнусова Х.М. Метод прямого прессования в технологии таблеток «Амброл» // Научно-практическая конференция с международным участием «Создание конкурентоспособных лекарственных средств – приоритетное направление развития фармацевтической науки». -Пермь.-2018.- С.11-12.
2. А.С. Михеева, К.В.Алексеев, Е.В. Блынская. Применение математической модели хеккеля для подбора оптимального диапазона давления прессования// Фармация - Россия. -№8, 2015. С. 18-20.
3. Юнусова Х.М., Зуфарова З.Х. Факторы влияющие на качество таблеток Асрутас // Фармация и фармакология.-2024.- №2.-С. 59-64. (15.00.00., 07.03.2023 й.; 334/2)
4. Yunusova X.M., Turdieva Z.V., Anvarova.F.J. Studying the storage conditions and expiry dates of "Sedtab" tablets// International bulletin of applied science and technology. UIF = 8.2 | SJIF = 5.955. ISSN: 2750-3402. Р. 817-821.
5. Жалолиддинова М.Ш., Юнусова Х.М. Влияния удельного давления прессования на устойчивость комбинированных таблеток «Ортоф -S»// Фармация. -Санкт-Петербург.-2020.-С.514-517.



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДАГИ ФАРМАЦЕВТИКА БОЗОРИДА  
АНТИДЕПРЕССАНТ ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ ҲОЛАТИГА ДОИР  
ТАХЛИЛИЙ ТАДҚИҚОТ**

**Х.М.Юнусова, К.У.Хакимова, Н.Б.Илхамова**

Ташкентский фармацевтический институт

Государственное учреждение

"Центр безопасности фармацевтической продукции"

**Юнусова Холида Маннановна**

**Хакимова Камола Уйгуновна**

**Илхамова Наргиза Бахтияровна**

e-mail: [holida\\_222@mail.ru](mailto:holida_222@mail.ru)

e-mail: [kamolauygunovna@gmail.com](mailto:kamolauygunovna@gmail.com)

e-mail: [nargiza.samo@yandex.ru](mailto:nargiza.samo@yandex.ru)

**Аннотация:** Ўзбекистон фармацевтика бозорида антидепрессант дори воситалари бўйича таҳлилий тадқиқот амалга оширилди. Тадқиқот доирасида антидепрессант дори воситаларининг турлари, уларнинг ассортименти ва бозордаги улуши ўрганилди, шунингдек, уларни ишлаб чиқараётган маҳаллий ва хорижий корхоналар ҳақидаги маълумотлар таҳлил қилинди. Таҳлил 2021–2024 йилларга оид Давлат Реестрининг расмий маълумотлари асосида олиб борилди. Тадқиқот обьекти сифатида депрессияни даволашда қўлланиладиган дори воситалари танлаб олинди.

**Калит сўзлар:** антидепрессантлар, фармацевтика бозори, маркетинг тадқиқот, контент таҳлил.

Депрессия - инсоннинг руҳий саломатлигига жиддий таъсир кўрсатувчи, эмоционал ҳолатнинг издан чиқиши билан намоён бўладиган сурункали хасталик бўлиб, у ҳаёт сифатининг сезиларли даражада пасайишига олиб келади. Ҳозирги кунда дунё бўйлаб таҳминан 280 миллион киши ушбу ҳолатдан азият чекмоқда. Охирги таҳлиллар натижаларига кўра, жаҳон аҳолисининг ўртacha 3,8 фоизи, шу жумладан, ўрта ёшдаги аҳолининг 5 фоизи ва 60 ёшдан катта кишиларнинг 5,7 фоизи депрессия билан боғлиқ муаммоларни бошдан кечирмоқда.

Республикамизда антидепрессант дори воситаларининг ассортиментини таҳлил қилиш, уларнинг самарадорлиги ва хавфсизлигини баҳолаш, шунингдек, маҳаллий ишлаб чиқаришни ривожлантиришга доир илмий тадқиқотларни амалга ошириш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири саналади. Ушбу йўналишда олиб борилган таҳлилларда Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги “Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази” давлат муассасасининг маълумотларидан фойдаланилган бўлиб, улар 2021 - 2024 йиллар давомида рўйхатдан ўтказилган антидепрессантлар ва уларни ишлаб чиқарувчи корхоналар ҳақидаги маълумотларни ўз ичига олади [2-6].

**Тадқиқот мақсади:** Ушбу тадқиқотнинг мақсади - 2021 - 2024 йиллар давомида Ўзбекистон фармацевтика бозорида антидепрессант дори воситаларининг маҳаллий ва хорижий ишлаб чиқарувчилар томонидан тақдим этилган ассортименти ва уларнинг бозордаги улушини таҳлил қилишдан, шунингдек, ушбу




## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

таҳлиллар асосида антидепрессантлар турини кенгайтириш ҳамда маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг ишлаб чиқариш салоҳияти ва истиқболларини баҳолашдан иборат [1].

**Усул ва услублар:** Таҳлил олиб боришда Ўзбекистон Республикасида тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган дори воситалари, тиббий буюмлар ва тиббий техника Давлат реестрининг 2021 - 2024 йиллар (**№25, №26, №27, №28**) маълумотлари ҳамда “Drug Audit” статистик маълумотларидан фойдаланилди. Тадқиқот доирасида контент таҳлил, кузатиш ва солишифирма таҳлил усуллари қўлланилди.

**Тадқиқот натижалари:** Ўзбекистон Республикасида тиббиёт амалиётида қўллашга рухсат этилган дори воситалари, тиббий буюмлар ва тиббий техника



Давлат Реестри маълумотларига асосан, ҳозирги кунда маҳаллий фармацевтика бозорида 37 та турдаги савдо номига эга антидепрессант дори воситалари мавжудлиги аниқланган [1]. Тадқиқотнинг илк босқичида 2021–2024 йиллар давомида ушбу дори гурухининг Ўзбекистон бозоридаги хорижий, МДХ давлатлари ва маҳаллий ишлаб чиқарувчи корхоналар улуши таҳлил қилинди. Бу таҳлил натижалари 1-расмда акс эттирилган.

1-расм таҳлилига кўра, 2021–2024 йиллар давомида маҳаллий фармацевтика бозоридаги антидепрессант дори воситаларини ишлаб чиқарувчилар улуши бўйича хорижий компаниялар етакчи позицияни эгаллаб келмоқда. Хусусан, уларнинг бозордаги улуши мос равишда 70,59%, 74,47%, 72,73% ва 81,08% ни ташкил этган. МДХ давлатлари ишлаб чиқарувчилари эса шу давр мобайнида 11,76%, 9,44%, 9,09% ва 8,11% кўрсаткичлари билан иштирок этгани қузатилган. Маҳаллий ишлаб чиқарувчилар улуши эса 2021–2024 йилларда мос равишда 17,69%, 15,09%, 18,18%



ва 10,81% ни ташкил этган бўлиб, ушбу қўрсаткичлар маҳаллий антидепрессант дори воситалари бозорида бошқа гурухларга нисбатан паст даражада эканлигини кўрсатади.

**Хуноса:** Юқоридаги таҳлилларга кўра, 2021–2024 йиллар давомида Ўзбекистон Республикасида маҳаллий фармацевтика бозорида антидепрессант дори воситалари сегментида хорижий ишлаб чиқарувчилар етакчи позицияни эгаллаб келмоқда. Хусусан, уларнинг бозордаги улуши йиллар давомида 70% ни ташкил қилиб, бу ҳолат мамлакатда антидепрессант воситаларга бўлган талаб асосан импорт маҳсулотлар ҳисобига қондирилаётганини кўрсатади. МДҲ давлатлари ишлаб чиқарувчиларининг бозордаги иштироки нисбатан барқарор ва паст даражададир. Маҳаллий ишлаб чиқарувчилар улуши эса йиллар кесимида турлича бўлса-да, умумий тенденцияга кўра, уларнинг бозордаги иштироки нисбатан паст ва рақобатбардошлиқ даражаси етарли эмаслиги кўзга ташланади. Бу эса маҳаллий фармацевтика саноатини ривожлантириш, антидепрессантлар сегментида ички ишлаб чиқаришни кенгайтириш ва импортга бўлган қарамликни камайтириш бўйича аниқ чора-тадбирларни кўриш зарурлигини англаатади.

### Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасида тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган дори воситалари, тиббий буюмлар ва тиббий техника Давлат Реестрининг (№25, № 26, №27, №28) 2021-2024 йй.
2. Н.Б. Шодиева, Х.М. Юнусова. Контент-анализ ассортимента ноотропных препаратов // II Международная научно-практическое конференция “Кластерные подходы фармацевтического союза: образован наука и бизнес”-2012. -С.112. г. Белгород.
3. Жалилов, Ф. С. "Антидепрессантларнинг узбекистон фармацевтика бозорида тутган урни." Аптеки Узбекиста 3 (2016): 8-11.
4. Умарова З.Ф., Хамидова М.О., Зайнутдинов Х.С., Зияева М.Н. Артериал гипертензия касаллигини даволашда қўлланиладиган дори воситалари ассортиментининг контент таҳлили // Ўзбекистон фармацевтик хабарномаси. – Тошкент, 2017. –№4. -Б. 31-37.
5. Мищенко М.А. Система маркетинговых исследований лекарственных препаратов. Основные маркетинговые стратегии. Бюллетень медицинских Интернет - конференций, 2014, 1018-1031с.
6. Баҳромов Қ., Исматов Ш. Ўзбекистон фармацевтика бозоридаги муаммолар ва уларнинг ечимлари. *Фармацевтика ва тиббиёт журнали.* 2023; 4(2):45–50.



## XINOLON XOSILALARI ASOSIDA OLINGAN KOMPLEKS BIRIKMALARNING TUZILISHI VA XOSSALARI

**Bobojonova Nodira Rashidovna**

Xorazm Ma'mun akademiyasi tayanch doktoronti

**Abdullaeva Zubayda Shavkatovna**

Xorazm viloyati Urganch Ranch texnologiya universiteti k.f.f.d. (PhD), dots.

**Kadirova Shahnoza Abdughalilovna**

O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti dekani, professor

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda xinolon hosilalarining turli metall ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalari o'r ganildi. Komplekslar sintezi, ularning fizik-kimyoviy xossalari hamda biologik faolligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari xinolon komplekslari zamonaviy dori vositalari yaratishda istiqbolli modda sifatida baholandi.

**Kalit so'zlar.** Xinolon, nalistiks kislota, norfloksatsin, levofloksatsin, gatifloksatsin, koordinatsion birikma.

Xinolon antibiotiklari keng antibakterial spektrga ega va gram-musbat bakteriyalarga qarshi, *Pseudomonas aeruginosa* kabi ko'pchilik gram-musbat bakteriyalarga nisbatan sezilarli antibakterial ta'sir ko'rsatadi. Xinolon antibiotiklarini ishlatish oson va og'iz orqali qabul qilinishi mumkin va ular keltirib chiqaradigan salbiy reaksiyalar nisbatan yengil bo'lib, asosan oshqozon ichak simptomlari, markaziy asab tizimining reaksiyalarini va umumiy allergik reaksiyalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xinolon antibiotiklari o'ziga xos antibakterial ta'sir mexanizmiga ega bo'lib, bakterial DNK va RNK sintezini sezilarli darajada to'xtatib qo'yishi mumkin. Shu sababli, ular boshqa antibakterial dorilar bilan o'zaro qarshilik ko'rsatmaydi va hatto boshqa antibakterial dorilarga chidamli shtammlarga nisbatan ham yuqori antibakterial faollikni saqlab qolishi mumkin.[1].

Xinolon hosilalari antibakterial faolligi yuqori bo'lgan geterosiklik birikmalar bo'lib ularning kimyoviy tuzilishi 4-xinolon yadrosi asosida tuzilgan. Ushbu birikmalar tarkibida kislородли (karboksil, karbonil) va azotli (amin) funksional guruhlarning mavjudligi ular orqali turli metall ionlari bilan kompleks hosil qilish imkonini beradi. Aynan shu xususiyati ularni koordinatsion birikmalar sintezida istiqbolli ligandlarga aylantiradi. Xinolonlar odatda bidentat ligandlar sifatida ishtirok etadi, ya'ni ular bir vaqtning o'zida ikkita aktiv markaz orqali metall ionlariga birikadi. Eng ko'p uchraydigan koordinatsiya pozitsiyalari – 3-pozitsiyadagi karboksil guruhi va 4-pozitsiyadagi karbonil guruhi hisoblanadi [2]. Metall bilan kompleks hosil qilish natijasida xinolon birikmalarining fizik-kimyoviy xossalari, shu jumladan, eruvchanligi, stabilligi va biologik faolligi sezilarli darajada o'zgaradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xinolon hosilalari Cu(II), Ni(II), Co(II), Zn(II) kabi metall ionlari bilan mustahkam komplekslar hosil qilish xususiyatiga ega. Ushbu komplekslar antibakterial, zamburug'larga qarshi va hatto o'smalarga qarshi faollik namoyon etadi, bu esa ularning farmatsevtika sohasida qo'llanilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Spektrofotometrik, infraqizil (IK) spektral va rentgenostrukturaviy tahlillar orqali ushbu komplekslarning tuzilishi chuqur o'r ganilgan [3].



Xinolonning 1-avlod vakili nalidiks kislota. Nalidiks kislotsasi – xinolonlar sinfiga mansub bo‘lib, tuzilmasida 3-karboksil va 4-keton (karbonil) guruhlari mavjud. Ushbu funksional guruhlari unga oraliq metallar bilan kompleks hosil qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, nalidiks kislotsasi Cu ioni bilan ko‘p hollarda bidentat ligand sifatida ishtirok etadi, ya’ni u karboksilat va karbonil kislorod atomlari orqali metallga bir vaqtning o‘zida ikki joydan ulanadi (1-rasm).



1-rasm. Cu ionining nalidiks kislota bilan hosil qilgan kompleks birikmalari: kislorod orqali (a), azot orqali (b), kislorod va azot orqali (c), (d)

Nalidiks kislotsasining Zn(II), Cu(II), Mn(II) kabi biologik ahamiyatga ega bo‘lgan metall ionlari bilan suvli eritmada kompleks hosil qilishi potensiyometrik titrlash va UV-Vis spektral tahlillar yordamida isbotlangan [4]. Komplekslar suvli eritmada deprotonatsiyalangan nalidiks kislotsasi asosida shakllangan bo‘lib, ular 1:1 va 1:2 nisbatlarda (metal:ligand) barqaror tuzilish hosil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Uivarosi V. Metal complexes of quinolone antibiotics and their applications: an update // *Molecules*. – 2013. – T. 18, №9. – B. 11153–11197. – DOI: 10.3390/molecules180911153.
2. Serafi A., Stańczak A. The complexes of metal ions with fluoroquinolones // *Russian Journal of Coordination Chemistry*. – 2009. – T. 35, №2. – B. 81–95. – DOI: 10.1134/S1070328409020018.
3. Carnamucio C., Di Gioia M. L., Leggio A., Le Donne A., Morabito R., Trombino S., Malaguarnera G. Aqueous chemistry of nalidixic acid and its complexes with biologically relevant cations // *Journal of Inorganic Biochemistry*. – 2023. – 243 b.
4. Perez-Guaita D., Boudesocque S., Sayen S., Guillon E. Cu(II) and Zn(II) complexes with a fluoroquinolone antibiotic: Spectroscopic and X-ray absorption characterization // *Polyhedron*. – 2011. – T. 30. – B. 438–443.



## ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**Usmonov Tohirbek Shavkatovich**

SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI YANADA TAKOMILLASHTIRILMOQDA.....5

**Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович**ТЕРРОРИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАР БЎЙИЧА РАҶАМЛИ  
ДАЛИЛЛАРНИ ТЎПЛАШДА ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИНГ  
ЎРНИ.....7**Мирзаев Фарходжон Тахирович**МАЪМУРИЙ СУДЛАРДА ДАВЛАТ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИГА ОИД  
ФУҚАРОЛАРГА ИМТИЁЗЛИ ШАРТЛАРДА ЁШГА ДОИР ПЕНСИЯ  
ТАЙИНЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ НИЗОЛАРНИ КЎРИБ ЧИҚИЛИШИДА ЮЗАГА  
КЕЛАЁТГАН МУАММОЛАР.....11**Bekchanov Alisher Ilxamboevich**NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR LOYIHALARINING MOLIYAVIY  
EKSPERTIZASINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTI  
RIVOJLANISHIDAGI O'RNI.....16

## ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**Mamadiyarova Malika**YOSHLARNI OILAVIY QADRIYATLARGA HURMAT RUHIDA  
TARBIYALASHNING IJTIMOIY PRINSIPLARI.....19

## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШАЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**Ibragimova Rabiyajon Mansurbekovna**MARKAZIY OSIYODA ILK DAVLATCHILIK ASOSLARI: DINIY-MA'NAVIY  
QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI.....22**Ibragimova Rabiyajon Mansurbekovna**

“AVESTO”-MAMLAKATIMIZ TARIXINING ВЕВАНО DURDONASI.....25

## ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**Салойдинова Наргиза Шухратовна**

ТИЛШУНОСЛИКДА ДИСКУРСГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР.....28



## АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### Abdixalimova Elzara Nabijon qizi

ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDA INSONIYLIK VA MA'NAVIY QADRIYATLAR.....31

### Berdiyeva Baǵdagul Turǵanbekovna

CHINGIZ AYTMATOVNING "JAMILA" QISSASINING QORAQALPOQ TILIDAGI TARJIMASINING BADIY XUSUSIYATLARI.....34

## ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### Abror Kucharov, Jyoti Meshram

STRATEGIC CATALYSTS: INFRASTRUCTURE AND REGULATORY REFORMS DRIVING INDIAN FDI IN UZBEKISTAN.....39

### Намозов Жасурбек Кувадович

КАЧЕСТВО ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ И КОРПОРАТИВНОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: ВЛИЯНИЕ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ И МЕЖДУНАРОДНУЮ ПРАКТИКУ .....41

### Сайдаменова Дилора Хасановна

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИКИ-ЗЕЛЁННЫЙ АУДИТ.....44

### Бекзод Умматов

О ФОРМИРОВАНИИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ АНТИМОНОПОЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....46

### Mirxonov Mirfoziljon Olimjon o‘g‘li

AUTSORSING XIZMATLARINI TURLARI HAMDA USHBU XIZMATNING AFZALLIKLARI.....50

### Mirzaeva Intizor Ergashevna

SANOAT TARMOG'I IQTISODIY SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....53

### Mingboev Asqar Qandaharovich

NARX STATISTIKASI MA'LUMOTLARI ASOSIDA MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....57

## ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

### Javliyev Bekzod Xudoyberdiyevich

DESTRUKTIV DINIY AXBOROTGA QARSHI PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI.....64



**Qurbanboyev Miraziz Zulhaydar o'g'li**

O'QUV MOTIVATSIYASIGA SALBIY TA'SIR QILUVCHI IJTIMOIY TARMOQDAGI KONTENTLAR VA ULARNI NAZORAT QILISH IMKONIYATLARI.....69

**Rajabov Muhiddin Qo'chqorovich**

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA TARIXIY TA'LIMNING MAQSADI SIFATIDA.....74

**Usmonov Muhammadabdulla Qaxramon o'g'li**

TA'LIMDA VR TEKNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....77

**Чинкулова Гулмехра Баҳроновна**

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ МАШФУЛОТ МЕЗОНЛАРИ ВА БЕЛГИЛАРИ.....81

**БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ  
ТАДҚИҚОТЛАР**

**D. K. Mahkamova, M.A. Qayumov, Sh.Sh. Xaydarov**

POST-COVID SINDROMIDA OIV INFEKSIYASI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA KO'RUV NERVI KASALLIKLARINING O'ZIGA XOS KECHISHI.....85

**Хасанов У.С, Абдурахимова Ш.С**

КОНСЕРВАТИВНЫЕ И ХИРУРГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ ГИПЕРТРОФИЧЕСКОГО РИНИТА.....87

**Хасанов У.С, Абдурахимова Ш.С**

ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ГИПЕРТРОФИЧЕСКОГО РИНИТА.....91

**Mahammadjonova Ruxshona Shuhrat qizi, Toshtemirova Xolisxon Akmal qizi, Mirsaidova Hilola Mirjalilovna**

BOLALARDA NOG'ARA PARDA TESHILISHINING RIVOJLANISH ETIOLOGIYASI VA PATAGENEZINI O'RGANISH.....95

**Shukurova Kamola Karimovna**

ITSENKO KUSHING SINDROMI BILAN KASALLANGAN BE'MORLARDA YURAK QON TOMIR TIZIMIDAGI O'ZGARISHLARNI BAHOLASH.....99

**Исламов Шавкат Ҳабибуллаевич**

ШИЗОФРЕНИЯНИНГ БОШЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ЭКЗОГЕН ОМИЛЛАРНИ ВОДИЙ ШАРОИТИДА ҚИЁСИЙ ТАВСИФИ ВА ЎЗГАРИШЛАРИ ДИНАМИКАСИ.....101

**Ozodbekov Yusufbek Shavkatbek o'g'li**

GESTATSION PANKREATITDA OSHQOZON OSTI BEZINING GISTOKIMYOVIY XUSUSIYATLARI.....105

**Ozodbekov Yusufbek Shavkatbek o'g'li**

GESTATSION PANKREATITDA OSHQOZON OSTI BEZINING PATOMORFOLOGIYASI.....108



## ФАРМАЦЕВТИКА ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**Х.М.Юнусова, К.У.Хакимова, Н.Б.Илхамова**

РОЛЬ ДАВЛЕНИЯ ПРЕССОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ФАРМАКОТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ТАБЛЕТОК «ВИНАМИР».....110

**Х.М.Юнусова, К.У.Хакимова, Н.Б.Илхамова**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДАГИ ФАРМАЦЕВТИКА БОЗОРИДА АНТИДЕПРЕССАНТ ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ ҲОЛАТИГА ДОИР ТАҲЛИЛИЙ ТАДҚИҚОТ.....113

## КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

**Bobojonova Nodira Rashidovna, Abdullaeva Zubayda Shavkatovna, Kadirova Shahnoza Abdughalilovna**

XINOLON XOSILALARI ASOSIDA OLINGAN KOMPLEKS BIRIKMALARNING TUZILISHI VA XOSSALARI.....116

**TADQIQOT.UZ ТОМОНИДАН  
ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**"ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ  
РЕСПУБЛИКА 78-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(1-қисм)**

**Маъсул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович**

**Мусаххих: Файзиев Фарруҳ Фармонович**

**Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов**

**Эълон қилиш муддати: 31.07.2025**